O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

MAXSUS SON



@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120

t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

MUSTAQILLIGIMIZNING
34 YILLIGI

ISSN 3030 - 3230

www.mgjxu.uz

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
ОГЛАВЛЕНИЕ

Национальная гвардия Республики Узбекистан в системе обеспечения общественной безопасности: институционально-правовой анализ **Джураев Р.М.**	3
Tinchlik va xavfsizlik – mamlakat taraqqiyotining muhim omili **Shermatov U.U.**	9
Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mintaqaviy xavfsizlik va turizm barqarorligini mustahkamlash sohasidagi islohotlar **Mamayusupov S.D.**	13
O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligiga 34 yil: tarixiy ahamiyat, huquqiy islohotlar va taraqqiyot yo‘li **Rustambayev M.X.**	17
Sudlar faoliyati ochiqligining ta’minlanishida elektron odil sudlovni tatbiq etish istiqbollari **Sabirov E.K.**	23
Sud-tergov faoliyatida tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to‘plangan dalillardan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish imkoniyatlari **Yakubov B.E.**	29
Axborot urushlari-tezkor kommunikatsiya jarayonlari sifatida **Qudratxo‘ja Sh.T.**	32
Нормативно-правовые основы управления безопасностью массовых мероприятий **Тен В.Р.**	38
Mustaqillikning 34 yilligi: uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish orqali terrorizmga qarshi kurash — xorij tajribasi va O‘zbekiston istiqbollari **Sharopitdinov B.B.**	47
Yangi O‘zbekiston sharoitida inson-jamiyatdavlat manfaatlari uyg‘unligini ta’minlashning huquqiy asoslari **Zulfiqorov Sh.X.**	51
Shartnomalar konstruksiyalarida neustoykaning fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida namoyon bo‘lishi **Odinayev A.A.**	57
Mustaqillik yo‘lida: jadidchilik va kriminologik qarashlar **Muxitdinov F.M., Axrarov B.Dj.**	63
Mustaqillik islohotlari: inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati **Muxitdinova F.A.**	68
O‘zbekistonda Ichki ishlar organlar ruxsat berish tizimining zarurati: muammolar va islohotlar tahlili **Ismailov I., Kasimov D.**	73
Kitob diplomatiyasi – Yangi O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining muhim yo‘nalishi sifatida **Mirzayev G‘.R.**	79
Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish konsepsiyasining mazmun-mohiyati **Ikanov A.A., Alijonov I.R.**	90
Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda harbiy psixologlar qo‘llaydigan zamonaviy metodlar **Tursunov B.S.**	94
Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatida SPIN-OUT kompaniyaning o‘rni **Xomidov E.O.**	98
Mamlakat qurolli kuchlar qudrati – tinchlik va xavfsizlik kafolatidir **Akramova Sh.A.**	101
Экономические итоги независимости Узбекистана: 34 года поступательного развития и структурной трансформации **Абдуллаева М.С.**	106
Mustaqillik ne’mati: jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatining muhim belgisi **Rasulova N.S.**	111
Mustaqillik yillarida rivojlangan harbiy sudlov tiziming protsessual tartibga solinishi **Alimov M.I.**	115
Mustaqillik yillarida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi masalalariga nazariy tahlil **Olimjonov X.M.**	121
Davlatlar uchun raqamli suverenitetni himoya qilishda kiberxavfsizlikning roli **Xoliqov Sh.A., Xujimov A.X.**	125

Mustaqillik yillarida aholi punktlari yerlarining geneziyasi va huquqiy islohotlarining samarasi
Xolmuminov O.J. 129

Mustaqil O‘zbekistonda jamoat xavfsizligiga oid qonunlar ijrosini ta’minlashda zamonaviy shakl va usul-larni qo‘llashning ayrim masalalari
Azizov E.U. 136

Национальная гвардия независимого Узбекистана: институциональная трансформация и современные функции
Хужамбердиев Ф.К. 142

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizligini ta’minlashning mintaqaviy yo‘nalishi
Olimov Yu.Yu. 153

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual yangilanishi: mustaqillik ruhidagi yangi marralar
Jo‘rayev M.U. 160

O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va barqaror o‘sishini ta’minlashda iqlim o‘zgarishlariga moslashishning ustuvor yo‘nalishlari
Elov A. 164

O‘zbekistonda barqarorlikni ta’minlashda millatlararo munosabatlarning o‘rni
Xomitov R.X. 169

Mustaqillik davri O‘zbekistonda harbiy fanlar sohasidagi islohotlarning falsafiy-epistemologik tahlili
Xudoyqulov Y.A. 173

Ekologik xavfsizlik-davlat mustaqilligining kafolati sifatida
Mirzaabdullayeva M.R. 180

Aholi yashash joylarida xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha aqsh va yevropa davlatlari tajribasining ilmiy tahlili
Alijonov I.R. 184

Mustaqil O‘zbekistonda harbiy xizmat-chilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi
Nishanov B.T. 190

Yangi O‘zbekiston Italiya e’tirofida: strategik hamkorlik va investitsiyalar almashinuvi
Ergashova B.S. 194

Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligi va inson qadri: yangi konsepsiya asosidagi yondashuv
Jo‘rayev M.U., Erkinov J.A. 197

Прокурорский надзор и судебный контроль как гарантии обеспечения принципа законности в деятельности местных органов государственной власти
Дауменов Б.А., Бекполатов Б.О. 202

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi
Ravshanov U.M. 208

Inson huquqlari – Konstitutsiyaviy-huquqiy diskursda oliy qadriyat sifatida
Raxmanov A. 212

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosati: tizimli tahlili, mavjud muammolari va ularning yechimlari
Djaydakbaev F.T. 216

O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi: harbiy ta’limda uua bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish zarurati
Qodirov T.T. 221

Yangi O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish: muammolar va innovatsion yechimlar
Soatov U.R. 224

Модернизация системы инженерного образования в независимом Узбекистане на основе внедрения симуляционного модуля SDME
Абдуллаева А.О. 227

O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi doirasida jazoni ijro etish tizimidagi islohotlar: insonparvarlik, raqamlashtirish va samaradorlik sari
Axmedov A.A. 232

O‘zbekiston mustaqilligi va huquqiy islohotlar samarasi: elektron braslet orqali masofaviy nazorat tizimi tajribasi
Kamilxanov J.K., Kamolov A.A. 235

Языковое образование в годы независимости Узбекистана
Тригулова Т.А. 239

Межкультурная эмпатия - ключ к миру и безопасности в многонациональном Узбекистане
Землянкина Ю.И. 243

Bojxona organlarning o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish mexanizmini takomillashtirish masalalari
Allambayev J.R. 248

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan javobgarlikni takomillashtirish masalalari
Tulanbayev N.Sh. 253

O‘zbek tili taraqqiyoti va mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglash jarayoni
Sharipova N.M. 256

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik davri mobaynida jinoyat protsessi sohasida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki huquqni ijro etish uchun ushlab berishda inson huquqlarining ahamiyati
Nasrullayev F.S. 260

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlanishi masalalari
Rahmonov A.A. 264

Mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda kasaba uyushmalarining ishtirokini takomillashtirish
Eshonqulov B.M. 268

НАЦИОНАЛЬНАЯ ГВАРДИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В СИСТЕМЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

ДЖУРАЕВ Рустам Мирзаевич,
Командующий Национальной гвардии Республики Узбекистан,
доктор философии по юридическим наукам (PhD), доцент,
генерал-майор, заслуженный юрист Республики Узбекистан

Аннотация. В статье представлен комплексный институционально-правовой анализ Закона Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» с акцентом на ключевые функции, принципы деятельности и правовой статус Национальной гвардии как особого субъекта в системе обеспечения общественного порядка и общественной безопасности. Исследование включает сопоставительный теоретический обзор научных подходов к определению понятий «общественная безопасность» и «общественный порядок», а также раскрывает их нормативные различия и функциональную взаимосвязь. Особое внимание уделяется роли Национальной гвардии в интеграции усилий различных государственных институтов по предупреждению правонарушений, охране прав и свобод граждан, а также реагированию на внутренние и внешние угрозы безопасности. В заключении обоснована необходимость дальнейшего развития нормативной и институциональной базы Национальной гвардии в условиях трансформации современных угроз.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, правопорядок, институциональный анализ, правовое регулирование, безопасность личности, взаимодействие институтов, государственная политика, правовой статус.

В условиях современного развития Республики Узбекистан особое внимание уделяется укреплению системы обеспечения общественной безопасности, защите прав и свобод граждан, а также повышению эффективности институтов, отвечающих за профилактику правонарушений и борьбу с терроризмом. Существенным шагом на этом пути стало формирование Национальной гвардии Республики Узбекистан, правовой статус и задачи которой закреплены Законом Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» [1].

Принятие данного Закона направлено на правовое регулирование деятельности Национальной гвардии как специального рода войск Вооружённых Сил, наделённого правоохранительными функциями в сфере обеспечения общественной безопасности. Статьи 1–11 данного Закона определяют цели, принципы, компетенции и ключевые задачи Национальной гвардии, включая защиту прав и свобод граждан, участие в борьбе с терроризмом, охрану особо важных объектов и обеспечение правопорядка при массовых мероприятиях.

Согласно статье 3 Закона Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан», Национальная гвардия представляет собой специальный род войск в составе Вооружённых Сил, выполняющий наряду с военными функциями также определённые правоохранительные задачи. В отличие от традиционных вооружённых подразделений, она наделена отдельными полномочиями в сфере обеспечения общественной безопасности и профилактики правонарушений, что придаёт ей уникальный гибридный статус между силовыми и правоохранительными структурами. Правовой режим деятельности Национальной гвардии основан на комплексной системе принципов, включающих верховенство закона, соблюдение и уважение прав и свобод граждан, институциональное единство и независимость, закреплённых в статьях 4–8 данного Закона[1]. Исходя из нормативных положений, к числу основных задач Национальной гвардии

отнесены обеспечение правовой защиты физических и юридических лиц, участие в противодействии терроризму и ликвидации последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера, охрана государственных, стратегических и иных объектов, реализация государственной политики в области охранной деятельности, проведение превентивных мероприятий по пресечению правонарушений, а также обеспечение общественного порядка при проведении массовых мероприятий. Кроме того, Национальная гвардия выполняет функции по обеспечению правового режима в условиях чрезвычайного положения и особого периода, оказывает содействие Пограничным войскам Службы государственной безопасности в охране Государственной границы, и может привлекаться к выполнению иных задач в пределах компетенции, определённой Президентом и действующим законодательством Республики Узбекистан. Подобный объём функций свидетельствует о том, что Национальная гвардия рассматривается не только как элемент оборонной системы государства, но и как ключевой институт в архитектуре внутренней безопасности, выполняющий роль связующего звена между военной и гражданской сферами правопорядка [1].

Правовой статус и полномочия Национальной гвардии, как закреплено в Законе, демонстрируют её центральную роль в обеспечении внутренней стабильности и общественной безопасности. Широкий спектр задач, выполняемых данным органом, формирует институциональную основу для интеграции усилий государства в сфере предупреждения правонарушений, охраны общественного порядка и обеспечения прав и свобод граждан. Вместе с тем, столь комплексный характер функций Национальной гвардии требует глубокого переосмысления теоретико-правовой базы понятия «общественная безопасность», а также его разграничения от смежных категорий, таких как «общественный порядок». В этом контексте встаёт необходимость проанализировать научные подходы к определению содержания и структуры общественной безопасности, её уровней и элементов, что, в свою очередь, позволяет конкретизировать направления деятельности государственных органов и оценить эффективность их координации.

Подобный подход позволяет разграничить теоретические и прикладные уровни обеспечения общественной безопасности, а также рассматривать её как целостную систему. Это, в свою очередь, способствует конкретизации усилий государственных органов в данной сфере и повышает эффективность реализуемых мер. Так, по мнению Б.Т. Хамхоева, «общественная безопасность — это система отношений, основанная на строгом соблюдении и реализации специально установленных государством организационно-технических правил, направленных на предотвращение последствий, которые могут создать угрозу для других лиц в результате разрушения или повреждения зданий, сооружений, вызванных действиями должностных лиц или отдельных граждан»[2]. Однако, на наш взгляд, данное определение не в полной мере отражает сущностную природу системы общественной безопасности. Термин должен охватывать более широкую совокупность социальных отношений, включающую защиту прав, свобод и законных интересов физических и юридических лиц в любых сферах общественной жизни, а также создание безопасных условий для существования общества в целом.

Проблематика соотношения категорий «общественный порядок» и «общественная безопасность» занимает устойчивое место в юридической науке, порождая множество интерпретаций и подходов. Так, австрийский исследователь И. Петерс трактует общественную безопасность как «совокупность норм, регулирующих поведение личности в обществе, включая как формализованные, так и неформализованные правила, соблюдение которых является основой для сосуществования государства и граждан в едином пространстве» [3]. Подобное понимание подчёркивает не только нормативную, но и поведенческую природу рассматриваемого явления, фиксируя внимание на взаимодействии индивида с социальной средой в условиях нормативной предсказуемости.

В свою очередь, в научной доктрине данная дихотомия рассматривается более подробно. Так, Д.В. Пивоваров определяет общественный порядок как «совокупность взаимосвязанных элементов, обеспечивающих общественное

и личное спокойствие граждан, уважение к их чести, достоинству и общественной морали, регулируемое верховенством закона». В то же время общественная безопасность, по его мнению, охватывает более широкий социоправовой пласт и представляет собой «систему социальных отношений, направленную на защиту жизненно важных интересов личности, общества и государства от внутренних и внешних угроз»[4]. Такое разграничение позволяет говорить о том, что общественный порядок выражает собой конкретизированный правовой режим повседневной жизни, тогда как общественная безопасность выполняет более комплексную функцию, направленную на стратегическую защиту базовых ценностей и устойчивости социального устройства.

В условиях теоретико-правового анализа понятий «общественная безопасность» и «общественный порядок» заслуживает внимания позиция Д.М. Миразова, который акцентирует внимание на том, что ключевое различие между ними обусловлено характером нормативно-правового регулирования. Исследователь отмечает, что хотя оба понятия используются в схожем контексте, их содержание и область применения зависят от используемых правовых механизмов [5]. На этом фоне в научной литературе наблюдаются разные точки зрения: одни авторы отождествляют обе категории, другие наделяют «общественный порядок» более широким значением, а третьи, напротив, подчеркивают, что именно «общественная безопасность» охватывает более комплексную сферу общественных отношений. Несмотря на подобные расхождения, в юридической доктрине устойчиво утверждается наличие внутренней взаимосвязи между этими категориями. Так, Е.В. Саманюк подчёркивает их тесную функциональную взаимосвязь[6], а А.В. Точка аргументирует, что обе категории удовлетворяют базовые потребности граждан и общества, устанавливают нормы поведения, нарушение которых в одной сфере неизбежно ведёт к сбоям в другой[7]. Исходя из этого, общественный порядок и общественная безопасность представляют собой взаимодополняющие элементы единой системы обеспечения стабильности социального пространства.

Наиболее концептуально чёткую интерпретацию соотношения данных понятий, на наш взгляд, предлагает профессор М.Х. Рустамбаев. Согласно его определению, общественный порядок — это правовой и нравственный режим, основанный на устойчивых межличностных отношениях, обеспечивающий безопасность, спокойствие граждан, защиту собственности, а также стабильную работу государственных, общественных и иных институтов. Общественная безопасность же, по мнению Рустамбаева, представляет собой совокупность условий безопасного существования общества, включающую в себя защиту жизни, здоровья и неприкосновенности личности, имущественные интересы юридических и физических лиц, а также стабильное функционирование всех структур государства и гражданского общества [8]. Позиция Д.А. Коротченкова дополняет данную интерпретацию, подчёркивая, что общественный порядок и общественная безопасность представляют собой различные по природе, но взаимозависимые правовые категории, каждая из которых является необходимым условием существования и воспроизводства другой [9].

Таким образом, сопоставительный анализ научных взглядов и юридических определений позволяет заключить, что общественный порядок и общественная безопасность, несмотря на различия в регулятивных инструментах и функциональной направленности, являются взаимосвязанными и взаимозависимыми элементами единой системы обеспечения правопорядка. Общественный порядок преимущественно ориентирован на текущее соблюдение установленных норм поведения в общественных местах и функционирование институтов социальной координации. Общественная безопасность же формирует более широкую парадигму, охватывающую комплексную защиту фундаментальных общественных интересов от внутренних и внешних угроз. Такое разграничение особенно важно в условиях современной трансформации угроз безопасности и роста требований к правоохранительным органам. В этой связи особую актуальность приобретает изучение институциональной роли Национальной гвардии Республики Узбекистан как ключевого субъекта, действующего на стыке задач по обеспечению как общественного порядка, так и общественной безопасности.

В соответствии с Законом Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан», данная структура функционирует на пересечении военной и правоохранительной систем, обладая уникальными компетенциями в сфере охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности. Такой статус обуславливает особую институциональную роль Национальной гвардии как связующего элемента между органами внутреннего правопорядка, вооружёнными силами и гражданским обществом.

Применительно к общественному порядку, деятельность Национальной гвардии выражается в участии в охране общественного порядка при проведении массовых мероприятий, митингов, собраний, демонстраций, а также в патрулировании общественных мест и реагировании на правонарушения. Данные функции направлены на профилактику и немедленное пресечение деструктивных проявлений в общественной среде. Таким образом, гвардия выполняет задачу поддержания стабильности текущего правового режима в обществе и защиты гарантированных Конституцией прав и свобод граждан.

С точки зрения обеспечения общественной безопасности, роль Национальной гвардии значительно шире. Она охватывает такие направления, как участие в борьбе с терроризмом, ликвидация последствий чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера, а также охрана государственных и стратегически важных объектов. Кроме того, гвардия обладает полномочиями по проведению доследственных проверок, возбуждению уголовных дел и участию в административном производстве, что расширяет её полномочия до уровня правоохранительного органа особого статуса.

Принципиальное значение имеет также положение о взаимодействии Национальной гвардии с другими государственными органами, институтами гражданского общества и населением. Согласно статье 9 Закона [1], такая координация осуществляется в установленном законом порядке и предполагает не только обмен информацией, но и реализацию совместных мер по предупреждению и устранению угроз безопасности. Это подтверждает интегративный характер функций Национальной гвардии и её ключевую роль в реализации комплексной стратегии обеспечения внутренней стабильности.

Следует отметить, что Национальная гвардия Республики Узбекистан выступает в качестве одного из центральных субъектов в системе национальной безопасности. Её институциональный потенциал позволяет эффективно реагировать на угрозы как правопорядку, так и безопасности граждан, а также выполнять функции координации и оперативного реагирования на межведомственном уровне. В условиях растущей сложности современных вызовов безопасности роль гвардии продолжает возрастать, что требует дальнейшего нормативного и организационного укрепления её статуса и механизмов деятельности.

Проведённый институционально-правовой анализ положений Закона Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» в совокупности с теоретическими подходами к пониманию категорий «общественная безопасность» и «общественный порядок» позволяет сформулировать ряд обобщающих выводов.

Во-первых, Национальная гвардия представляет собой уникальную по своему правовому статусу структуру, обладающую как военными, так и правоохранительными полномочиями. Её функциональная направленность охватывает широкий спектр задач: от обеспечения правопорядка в повседневной жизни до реагирования на чрезвычайные ситуации, угрозы терроризма и охраны стратегических объектов.

Во-вторых, системный анализ научных определений показывает, что общественный порядок и общественная безопасность, хотя и различаются по предмету правового регулирования, представляют собой взаимозависимые элементы единой системы обеспечения внутренней стабильности. Общественный порядок выполняет роль оперативного механизма соблюдения установленных норм, тогда как общественная безопасность охватывает более фундаментальные и стратегические задачи защиты прав, свобод и законных интересов личности, общества и государства.

С учётом вышеизложенного, представляется целесообразным актуализировать научный подход к определению

понятия «общественная безопасность». В нашей трактовке, общественная безопасность — это не просто совокупность регламентированных мер по устранению угроз, а комплексное состояние социальных отношений, при котором обеспечивается неприкосновенность прав, свобод и законных интересов личности и организаций в любых сферах общественной жизни, а также формируются гарантированные условия безопасного существования всего общества. Это понятие охватывает как институциональные, так и поведенческие уровни защиты, включая механизмы профилактики, мониторинга рисков, межведомственного взаимодействия и правового реагирования на внутренние и внешние угрозы.

В-третьих, роль Национальной гвардии в обеспечении как порядка, так и безопасности в обществе невозможно рассматривать изолированно от её взаимодействия с другими государственными органами и институтами гражданского общества. Такая координация усилий, предусмотренная действующим законодательством, делает Национальную гвардию важнейшим элементом системы комплексного реагирования на современные вызовы в сфере безопасности.

Следовательно, приоритетом государственной политики в сфере общественной безопасности должно стать дальнейшее совершенствование правового статуса и институционального потенциала Национальной гвардии Республики Узбекистан. Речь идёт не только о нормативной конкретизации её полномочий, но и об усилении функциональной интеграции в общенациональную систему обеспечения внутренней стабильности. В этом контексте особую значимость приобретают разработка устойчивых межведомственных механизмов координации, активное внедрение современных цифровых и управленческих технологий, а также формирование транспарентной модели деятельности Национальной гвардии. Всё это выступает необходимыми предпосылками для укрепления общественного доверия, повышения легитимности принимаемых мер и обеспечения устойчивого функционирования правопорядка в условиях современной трансформации угроз.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonunining institutsional-huquqiy tahlili taqdim etilgan bo‘lib, unda Milliy gvardiyaning asosiy funksiyalari, faoliyat tamoyillari va huquqiy maqomi jamoat tartibi hamda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi maxsus subyekt sifatida yoritilgan. Tadqiqotda “jamoat xavfsizligi” va “jamoat tartibi” tushunchalariga oid ilmiy yondashuvlarning taqqoslamali nazariy tahlili keltirilgan bo‘lib, ularning normativ tafovutlari va funksional o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Xususan, Milliy gvardiyaning huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ichki va tashqi xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha davlat institutlari harakatlarini integratsiyalashdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan. Xulosa qismida Milliy gvardiyaning zamonaviy tahdidlar sharoitida normativ va institutsional asoslarini yanada rivojlantirish zarurligi asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, huquqiy tartib, institutsional tahlil, huquqiy tartibga solish, shaxs xavfsizligi, institutlararo hamkorlik, davlat siyosati, huquqiy maqom.

Annotation. This article presents a comprehensive institutional and legal analysis of the Law of the Republic of Uzbekistan «On the National Guard of the Republic of Uzbekistan,» with a focus on the key functions, principles of operation, and legal status of the National Guard as a special entity within the system of public order and public safety. The study includes a comparative theoretical review of scientific approaches to defining the concepts of «public safety» and «public order,» revealing their normative distinctions and functional interrelation. Particular attention is paid to the role of the National Guard in integrating the efforts of various state institutions in preventing offenses, protecting the rights and freedoms of citizens, and responding to internal and external security threats. In conclusion, the article

substantiates the necessity of further development of the normative and institutional framework of the National Guard under the conditions of evolving contemporary threats.

Key words: public safety, public order, rule of law, institutional analysis, legal regulation, personal security, inter-agency cooperation, state policy, legal status.

Использованная литература:

1. Закон Республики Узбекистан «О Национальной гвардии Республики Узбекистан» от 18 ноября 2020 года // lex.uz (дата обращения 25.07.2025 г.)

2. Хамхоев Б.Т. Проблемы определения общественной безопасности. Административное право и процесс, 2011, №7.

3. Peters I. Lehrbuch der Verwaltungsreht. – Frankfurt a/M., 1999. – C.377

4. Пивоваров Д.В. Меры обеспечения производства по делам об административных правонарушениях, посягающих на общественной порядок и общественную безопасность, применяемые сотрудниками полиции: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Омск, 2017. С. 14.

5. Mirazov D.M. Theoretical analysis of the concepts of public order and public safety: their relationship and difference // Scientific-practical journal of "Public safety". – 2022. – №1. – P. 64.

6. Саманюк Э.В. О соотношении понятий «общественная безопасность» и «общественный порядок» // «Молодой учёный». № 3 (62). Март, 2014 г. – С. 674.

7. Точка А.В. Преступления против общественного порядка: криминализация, систематизация, уголовно-правовое содержание: дисс. к. ю. н. – Краснодар, 2014. – С. 70.

8. Рустамбаев М.Х. Курс уголовного права Республики Узбекистан. Особенная часть. Том 5: Преступления против правосудия, общественной безопасности и общественного порядка, порядка несения военной службы. Учебник для ВУЗов. 2-е издание, дополненное и переработанное – Т.: Военно-технический институт Национальной гвардии Республики Узбекистан, 2018. – С.60.

9. Коротченков Д.А. Организация административно-правовой охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности при проведении массовых мероприятий: автореф. Дис. Канд. Юрид. Наук. – Хабаровск, 2006. – С. 11.

TINCHLIK VA XAVFSIZLIK – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

SHERMATOV Ulug'bek Ubaydullayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyatining turlari, tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilisSo‘nggi yillarda O‘zbekistonda mudofaa va xavfsizlik tizimini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda Qurolli Kuchlarning moddiy-texnika bazasi yangilanib, ular zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta’minlandi. Milliy xavfsizlikni ta’minlash maqsadida yangi qonunlar qabul qilindi, Mudofaa doktrinasi tasdiqlandi hamda davlat chegarasini muhofaza qilish tizimi takomillashtirildi. Shuningdek, mahalliy harbiy-sanoat kompleksi yaratildi, innovatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalari joriy etildi. Harbiy ta’lim tizimida islohotlar olib borilib, kadrlar tayyorlashning milliy modeli ishlab chiqildi. Bu chora-tadbirlar mamlakat mudofaa qobiliyatini, Qurolli Kuchlarning jangovar tayyorgarligi va strategik imkoniyatlarini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: Tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor eksperiment tadbir turi, konspiratsiya prinsipi, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va prokuror nazorati.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining qiyofasi va salohiyati tubdan o‘zgardi. Ayni paytda Qurolli Kuchlar mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi.

Xalqaro terrorizm, ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka tahdidlarning kuchayishini inobatga olgan holda, mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini izchil mustahkamlash olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu munosabat bilan, tabiiyki, davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va salohiyatini kuchaytirish borasidagi maqsad va vazifalar 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida ham belgilab qo‘yildi.

Eng muhimi, mudofaa va xavfsizlik sohasini qonun talablari asosida boshqarish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tibor qaratildi.

Jumladan, harbiy sohada mamlakatning milliy xavfsizligini ta’minlashga doir prinsip va yondashuvlarni o‘z ichiga qamrab olgan O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Xususan, unda mamlakatimizning prinsipial pozitsiyasi - hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik, o‘z hududida chet el harbiy bazalari va obyektlarining joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, harbiy xizmatchilarimizning xorijdagi tinchlik o‘rnatish bilan bog‘liq operatsiyalarda ishtirok etmasligi va boshqalari o‘z aksini topgan. Shuningdek, ushbu hujjatda Qurolli Kuchlarning asosiy vazifalari, mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlash asoslari belgilangan.

Qolaversa, so‘nggi yillarda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida»gi, “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarning dolzarbligi va ahamiyatini alohida qayd etish lozim.

Ushbu qonunlarda ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan mustahkam mudofaa tizimini yaratish, jamoat tartibini saqlash va mamlakat xavfsizligiga qarshi qaratilgan har qanday xavf-xatarlarning oldini olish, eng muhimi xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, davlatimiz chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. Qonun bilan davlat organlarining ushbu sohadagi vakolatlari belgilandi, fuqarolar

o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, yuridik shaxslarning hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilishdagi ishtirok etishi tartibga solindi.

Davlat chegarasini shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tish tartibi, shaxslarning, transport vositalarining va tovarlarning Davlat chegarasi orqali o‘tkazilishini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatib turish uchun asoslarning to‘liq ro‘yxati belgilandi. Davlat chegarasini qo‘riqlash va himoya qilish sohasida maxsus vositalarni, qurol-yarog‘ va harbiy texnikani qo‘llashning huquqiy asoslari belgilab berildi.

Davlat organlarining davlatni tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, jamoat tartibini saqlash bo‘yicha faoliyatini tartibga soluvchi bir qator qonunlar, jumladan, «Favqulodda holat to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy Qonun, «Qurol to‘g‘risida»gi, «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunlar ham qabul qilindi.

Ta’kidlash lozimki, harbiy qurilish sohasini zamonaviy turdagi qurol-yarog‘ va harbiy texnikasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, Qurolli Kuchlarni jihozlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ushbu yo‘nalishda belgilangan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

2017 yildan boshlab mahalliy harbiy-sanoat kompleksini bosqichma-bosqich yaratish ishlari boshlandi. Xususan, davlat harbiy buyurtmalarini shakllantirish va mudofaa ahamiyatiga molik ishlab chiqarishlarni tashkil etish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul vakolatli davlat organi tashkil topdi. Tarmoqning bir qator korxonalarida modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 yanvardagi tegishli Farmoni qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy va maxsus texnika bilan qurollantirish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha muhim tashkiliy-huquqiy asos bo‘ldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini qurollantirish bo‘yicha davlat komissiyasi, shuningdek Mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa sanoati agentligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi «O‘ztextreyd» Davlat unitar korxonasi tashkil etildi, ushbu tuzilmalarning ustuvor vazifalari hamda ularni moliyalashtirish manbalari belgilandi.

Bugungi kunda mamlakatimiz mudofaa sanoati kompleksi korxonalari tomonidan ishlab chiqarishlarni muntazam takomillashtirib, yangi mahsulot va texnologiyalarni o‘zlashtirish, istiqbolli ishlanmalarni qo‘shinlarda joriy etish, robototexnika va uchuvchisiz apparatlar bo‘yicha startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, bunda innovatsion texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalanish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mutaxassislarni tizimli tayyorlash, yangi texnikalar bo‘yicha ilmiy laboratoriyalar tashkil etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar shular jumlasidandir.

Jahonda kechayotgan murakkab geosiyosiy va harbiy-texnikaviy jarayonlar sharoitida mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning strategik va taktik imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot va navigatsiya texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Jumladan, barcha darajadagi qo‘mondonlik va boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirish, qo‘shinlarda avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalari va komplekslarni joriy qilish orqali ularning hamkorlikdagi operativ va jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash istiqboldagi dolzarb vazifalardan bo‘lib qoladi.

Shunga ko‘ra, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash hamda bu borada zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or innovatsiyalarni keng tatbiq etish bo‘yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Bugungi kunda, 80 to‘plam yo‘ldoshdan pozitsiyalanuvchi navigatsiya qabul qilgichlar bilan ta’minlanishi Qurolli Kuchlar qismlari harakatini aniq koordinatalar asosida boshqarish, aniq yo‘nalish va masofani hisoblash, harbiy mashg‘ulotlar hamda real operatsiyalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu qurilmalar harbiy texnikani avtomatik yo‘lga solish, hujum va mudofaa manyovrlarini sinxronlashtirish imkonini kengaytirdi.

Shuningdek, Qurolli kuchlarning geoaxborot dasturiy ta’minoti bilan jihozlanishi harbiy qo‘mondonlik va boshqaruv tizimida zamonaviy kartografiya, topografik tahlil va masofadan zondlash ma’lumotlaridan foydalanish

imkoniyatini yaratdi.

Qolaversa, yerni masofadan zondlash materiallari (kosmik suratlar) yordamida elektron xaritalar yaratish va yangilash borasida amalga oshirilgan ishlar mamlakat hududiy xavfsizligini ta’minlashda strategik qadam bo‘ldi. Yangilangan elektron xaritalar harbiy mashg‘ulotlar, chegara nazorati, injenerlik inshootlari qurilishi va logistika harakatlarida aniq va ishonchli ma’lumot manbai sifatida xizmat qiladi.

Ushbu chora-tadbirlar natijasida Qurolli Kuchlarning harakatchanligi, manyovrchanligi va aniq zarba berish qobiliyati oshdi, mudofaa salohiyati va strategik xavfsizlikni ta’minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi tizim yaratildi.

Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan yana biri shubhasiz, harbiy ta’limning sifatini oshirish hisoblanadi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida 2017 yilda Toshkent oliy umumqo‘shin qo‘mondonlik bilim yurti negizida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi tashkil etilib, unda yetakchi ilmiy va ta’lim muassasalarining tajribasi mujassamlashtirildi. Hozirgi kunda Akademiyada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun ofitserlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amalga oshirilmoqda, Chegara qo‘shinlari ofitserlarini tayyorlash va malakasini oshirish fakulteti, Ichki ishlar vazirligining harbiy tuzilmalari mutaxassislarini tayyorlash kafedrasi tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti, Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti va boshqa muassasalar faoliyati qayta tashkil etildi, yangidan tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati va Milliy gvardiyasi tarkibida harbiy-akademik litseylari tashkil etilib, ularning faoliyati shu jumladan, mamlakatning oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlashga qaratilgan.

Shu o‘rinda, sohadagi muhim yangilik, 20 dan ortiq xorijiy davlatning sohaga oid ilg‘or tajribalari o‘rganilib, harbiy ta’limni isloh qilish bo‘yicha yangi milliy model ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Mudofaa vazirligining barcha harbiy ta’lim muassasalari - 5 ta institut, Serjantlar tayyorlash oliy maktabi hamda AVIATSIYA va uchuvchisiz uchish apparatlari mutaxassislarini tayyorlash markazi institut maqomida mazkur universitet tarkibiga o‘tkaziladi.

Bu markazlashgan vertikal tizimni hosil qilib, qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, dual ta’limni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Bu tashabbus qo‘shinlarning jangovar salohiyatini oshirish, dual ta’limni kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihati, bitiruvchilar ikkita diplom - fuqarolik va harbiy mutaxassislik egasi bo‘lib, harbiy xizmatdan keyin ham faol faoliyat yurita oladi. Iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish uchun «Oliy Bosh Qo‘mondon» davlat stipendiyasi joriy etilib, tor doiradagi ixtisosliklar bo‘yicha «2+2» tartibi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu kompleks choralar O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining kadr salohiyati va jangovar tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish imkonini yaratadi.

Xulosa o‘rnida, O‘zbekiston milliy xavfsizlik va mudofaa tizimini mustahkamlash yo‘nalishida izchil va kompleks islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon nafaqat Qurolli Kuchlarning moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, balki huquqiy, tashkiliy va kadrlar salohiyatini tubdan yangilash bilan ham uyg‘un ravishda kechmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, qonunchilik bazasining takomillashuvi, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish maqsadida Qo‘shinlarni zamonaviy qurol-aslaha, harbiy va maxsus texnika hamda jihozlar bilan ta’minlash yuzasidan kompleks chora- tadbirlar mamlakatning tinchligi, barqarorligi va uzoq muddatli taraqqiyoti uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Аннотация. В данной статье рассматриваются виды оперативно-розыскной деятельности, проведение оперативно-розыскных мероприятийВ последние годы в Узбекистане были проведены масштабные реформы, направленные на укрепление системы обороны и безопасности. В ходе этого процесса была обновлена материально-техническая база вооруженных сил, они были оснащены современным вооружением и военной техникой. В целях обеспечения национальной безопасности были приняты новые законы, утверждена оборонная доктрина и усовершенствована система охраны государственной границы. Также был создан отечественный военно-промышленный комплекс, внедрены инновационные технологии и технологии искусственного интеллекта. Была проведена реформа системы военного образования, разработана национальная модель подготовки кадров. Эти меры служат поднятию обороноспособности страны, боевой готовности и стратегических возможностей Вооруженных сил на новый уровень.

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, оперативный эксперимент вид деятельности, принцип заговора, результаты оперативно-розыскной деятельности и прокурорский надзор.

Annotation. In this article, the types of operational-search activities, operational-search activities, large-scale reforms aimed at strengthening the defense and security system were carried out in Uzbekistan in recent years. In the process, the material and technical base of the Armed Forces was updated, they were provided with modern weapons and military equipment. In order to ensure national security, new laws were passed, the defense doctrine was approved, and the state border protection system was improved. Also, a local military-industrial complex was created, innovation and artificial intelligence technologies were introduced. Reforms were carried out in the military education system, and a national model of Personnel Training was developed. These measures serve to take the country's defense capabilities, combat readiness and strategic capabilities of the armed forces to a new level.

Key words: quick-search activity, quick-experiment event type, conspiracy principle, quick-search activity results and prosecutor's control.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси 2022–2026". – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси, 2022.
2. "Ўзбекистон – 2030" стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси, 2023.
3. Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси. – Тошкент, 2017.
4. Ўзбекистон Республикасининг "Ички ишлар органлари тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2017.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат хавфсизлик хизмати тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2017.
6. Ўзбекистон Республикасининг "Миллий гвардия тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2017.
7. Ўзбекистон Республикасининг "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида"ги Қонуни. – Тошкент, 2019.
8. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат чегараси тўғрисида"ги Қонуни (янги таҳрир). – Тошкент, 2021.
9. "Фавқулодда ҳолат тўғрисида"ги Конституциявий Қонун. – Тошкент, 2020.
10. "Қурол тўғрисида"ги Қонун. – Тошкент, 2019.
11. "Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Қонун. – Тошкент, 2020.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MINTAQAVIY XAVFSIZLIK VA TURIZM BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

MAMAYUSUPOV SARVAR DEXKANOVICH,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni o‘rinbosar, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangilangan tashqi siyosati, mintaqaviy hamkorlik borasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi, dunyo hamjamiyati tomonidan xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash tashabbuslarining e’tirof etilishi masalalari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Mintaqaviy hamkorlik, xalqaro hamkorlik, ochiq tashqi siyosat, investitsion muhit, doktrina, savdo-iqtisodiy aloqalar, transport-logistika, mintaqaviy xavfsizlik, Afg‘on muammosi, iqtisodiy barqarorlik.

Keyingi yillarda barcha soha qatori mamlakatimiz tashqi siyosati ham yangi yo‘nalishda rivojlana boshladi. Bunda ochiqlik va tenglik prinsipi eng ustuvor g‘oya sifatida qaraldi. Ayniqsa, yaqin qo‘shnichilik munosabatlariga putur yetgan yon-atrofimizdagi mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli va qardoshlik an’analari asosida hamkorlikning yangi davriga qadam quyildi. Uzoq yillar nizolarga sabab bo‘lgan chegara, suv manbalari, energetika muammolari bartaraf etildi. Aynan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mintaqasi bir maqsad yo‘lida yana birlashdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti minbarlaridan ilgari surilgan qator tashabbuslar dunyo hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va aksariyati bugun o‘z ijrosini topmoqda. 2019 yildan O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining to‘laqonli a’zosiga aylandi.

Mamlakat rahbari tomonidan mintaqada harbiy-texnikaviy hamkorlikni mustahkamlash, mudofaa va xavfsizlik masalalarida keng hamkorlik olib borish tashabbusi ilgari surildi.

Prezident Shavkat Mirziyoev Xavfsizlik Kengashining ilk kengaytirilgan yig‘ilishidagi ma’ruzasida bu boradagi masalalarga ham to‘xtalib o‘tdi. “Tashqi siyosatimizning moslashuvchanlik va ochiqlik prinsiplariga, eng asosiysi qo‘shni davlatlar bilan do‘stona va amaliy munosabatlarni rivojlantirish, Vatanimiz suvereniteti va mustaqilligini mustahkamlashdek biz uchun ustuvor bo‘lgan tamoyillarga tayangan holda, mamlakatimiz Mudofaa doktrinasi sifat jihatidan yangilandi. Bu doktrinaning ma’no-mazmuni birinchi marta ochiqlik xususiyatiga ega bo‘ldi[1]” deb ta’kidlagan edi.

Mudofaa doktrinasining ochiq xarakterda qaytadan qabul qilinishi, mamlakat o‘z tashqi siyosatida ochiqlik siyosatiga o‘tganligini anglatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash borasida ham O‘zbekistonning yangi siyosati mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va yurtimizda barqarorlikni mustahkamlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Buni mintaqa davlatlari bilan tovar ayirboshlash, davlatlararo tovar aylanmasining so‘ngi yillarda oshganligi bilan izohlash mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ilk murojaatnomasida tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalarni sanab o‘tib, “Mamlakatimizda qabul qilingan Harakatlar strategiyasiga muvofiq, biz tashqi siyosat sohasida barcha uzoq va yaqin davlatlar, avvalo, qo‘shni mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish siyosatini izchil davom ettiramiz”[2,144] deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Bu boradagi tashabbuslarning amaliy natijasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2017 yil

10-11 noyabr kunlari Samarqand shahrida BMT shafeligida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda Markaziy Osiyoda barqaror va iqtisodiy jihatdan rivojlangan mintaqa shakllantirish va ulkan hududda tinchlik va yaxshi qo‘shnichilik rishtalari bog‘lash, tarix, din, umumiy madaniyat va an’analarni birlashtirilishi e’tirof

etildi. Konferensiyada nutq so‘zlagan Prezident Shavkat Mirziyoev Yevroosiyoning “yuragi”da joylashgan mintaqamizda ayni paytda Markaziy Osiyoda qudratli davlatlarning manfaatlari kesishayotgani, barqarorlik va qarama-qarshilik o‘choqlariga tutash bo‘lgan ushbu mintaqa yaqin va uzoq xorijda ro‘y berayotgan barcha salbiy jarayonlar ta’sirini his etayotganini e’tirof etdi va “Mintaqada vaziyat qanday rivojlanadi? Bu yerda qanday kuch ustun keladi – nizo va qarama-qarshiliklarmi yoki hamkorlik va taraqqiyotmi?” degan tabiiy savollarni o‘rtaga tashladi[1]. Davlatimiz rahbari bu borada O‘zbekistonning bosh maqsadi – umumiy sa’y-harakatlari bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirish ekanligini bildirib o‘tdi[3]. Ushbu maqsadlarga erishish borasida Prezidentimiz quyidagi bir qator tashabbuslarni ilgari so‘rgan yedi:

Birinchi muhim tashabbus sifatida mintaqaviy iqtisodiy forumni tashkil etish masalasi ilgari so‘rildi. Bu borada umummintaqaviy ustuvor manfaatlar borasida birinchi navbatda savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirish hamda kooperatsiyani mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi, biznes hamjamiyatlari o‘rtasida bevosita muloqot va o‘zaro savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va innovatsion hamkorlik borasidagi aniq loyihalarni atroflicha muhokama qilish maqsadida Mintaqaviy iqtisodiy forumni tashkil qilish bu yo‘nalishdagi amaliy qadam bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab o‘tgan edi[3]. Mintaqalararo hamkorlik masalasiga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini e’tirof etgan davlatimiz rahbari shu munosabat bilan Markaziy Osiyo davlatlarining hududlar rahbarlari (hokimlar) biznes hamjamiyatining assotsiatsiyasini ta’sis etish taklifini ham bildirib o‘tgan edi. Ushbu tashabbuslar doirasida o‘tgan vaqt mobaynida bir qator amaliy ishlar bajarildi. Xususan, Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh viloyati hokimi boshchiligida delegatsiyaning Andijon viloyatiga tashrifi davomida viloyat hokimlari o‘rtasida hududlarda hamkorlikni kuchaytirish va mustahkamlash borasida bir qator shartnoma va bitimlar imzolandi. Turkmaniston Respublikasining ayrim viloyatlari va tumanlari bilan Xorazm va Buxoro viloyatlari o‘rtasida hamkorlik va do‘stlik bitimlari imzolandi. Xususan, Xorazm viloyati va Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz viloyatlari hamda Buxoro viloyati bilan Turkmaniston Respublikasining Lebob viloyatlari o‘rtasida do‘stlik bitimlari imzolandi.

Konferensiya davomida Prezident Shavkat Mirziyoev ikkinchi muhim tashabbus sifatida transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini ilgari surgan edi.

Prezident mintaqaning tranzit-logistika salohiyatidan yanada samarali foydalanish va transport infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta’minlash lozimligini qayd etarkan, shu munosabat bilan transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha umummintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligini bildirdi. Bu borada esa davlatimiz rahbari umumyondashuvlarni kelishib olish uchun 2018 yilda Toshkentda “Markaziy Osiyo xalqaro transport yo‘laklari tizimida: strategik istiqbollar va amalga oshirilmagan imkoniyatlar” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Mintaqa mamlakatlari orasida Tojikiston Respublikasi bilan hamkorlik aloqalari qayta tiklandi va rivojlantirib borilmoqda. Qo‘shni davlat bilan to‘xtab qolgan aloqalar tiklanishi, mamlakatlar aholisining emin-erkin kelib ketishi masalalari tez orada hal etildi. Tojikiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi bilan ayrim jabhalarga to‘xtagan aloqalar, do‘stlik munosabatlari qayta tiklandi.

2018 yil 9-10 mart kunlari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon tashabbusi bilan Shavkat Mirziyoev ushbu davlatga rasmiy tashrif bilan borishi ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarning yangi bosqichini boshlab berdi.

O‘zbekiston Prezidenti o‘z tashrifi doirasidagi uchrashuv chog‘ida so‘zlagan nutqida “Biz qardosh tojik xalqi Tojikiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Emomali Rahmon rahbarligida hozirgi murakkab zamonda og‘ir sinovlarni yengib, hayotning turli jabhalarida katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritayotganini yuksak baholaymiz, do‘stlarimiz erishayotgan yutuqlardan quvonamiz. Zotan, et bilan tirnoqdek jipslashib ketgan o‘zbek va tojik xalqlarini hech qachon bir-biridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi[2,337]” degan muhim fikrlarni ta’kidlab o‘tgan edi.

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda ushbu ikki davlatning mustahkam hamkorligi muhim hisoblanadi. Markaziy Osiyo mintaqasiga tahdid soluvchi mintaqaviy muammolarni bartaraf etishda Tojikiston Respublikasi bilan hamkorlik muhim

ahamiyatga ega.

Yangi asrning boshlarida mamlakatimiz janubiy sarhadlariga bostirib kirgan jangari bosqinchilar aynan qo'shni davlat tog'li hududlaridan kirib kelgan edi. Ushbu jiddiy muammoni bartaraf etishda qo'shni davlat ko'magi ham albatta zarur hisoblanar edi. Keyingi yillarda hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishi va barqarorlikni ta'minlashga har ikki mamlakat mas'uliyat bilan yondashishi har qanday xavfga qarshi kurashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Mintaqa hududida xavfsizlikni ta'minlash borasidagi muhim tashabbuslardan biri xavfsizlik va barqarorlik uchun mustahkam hamkorlik tashabbusi bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoev Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligini ko'plab ma'ruzalarida qayd etib kelmoqda. Bugungi kunda mintaqaning barcha mamlakatlari terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlarga duch kelayotgani, ushbu tahdidlarga qarshi samarali kurashishni faqat birgalikda, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkinligiga e'tibor qaratdi. "Xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarur, degan qat'iy fikrdamiz[3]" deb ta'kidlagan edi mamlakatimiz Prezidenti.

Ushbu takliflar doirasidagi birinchi galdagi vazifalardan biri Afg'onistonning mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga qo'shilishiga har tamonlama ko'maklashishdan iboratligini va bu borada O'zbekiston bundan buyon ham bu qo'shni mamlakatni iqtisodiy jihatdan tiklash, uning transport va energetik infratuzilmasini rivojlantirish, milliy kadrlar tayyorlash jarayonlarida faol ishtirok etishiga tayyorligini ta'kidlab o'tgan edi.

Mintaqada ekstremistik g'oyalarga qarshi qat'iy kurashish va mamlakatlar o'rtasida hamkorlik borasida bu jabhada ham aloqalar mustahkamlanishi muhim hisoblanadi. Markaziy Osiyo – aholining yoshi bo'yicha eng "yosh" mintaqalardan biri ekanligi, ya'ni bu yerda aholining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishi va bu dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoriligi bu jabhaga jiddiy e'tibor qaratishni anglatadi. Ana shu maqsadda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentabrda bo'lib o'tgan 72 sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi ilgari so'rilganligi[4] mintaqada va butun dunyoda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi yirik qadam bo'ldi.

2018 yil 28 noyabrda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trast fondi faoliyati boshlanishiga bag'ishlangan yuqori darajadagi tadbir bo'lib o'tdi. Fondning asosiy vazifasi O'zbekiston, BMT va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish, texnik-moliyaviy resurslarni safarbar etish, mintaqaga innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali Orolbo'yi hududini rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu trans fondni yaqin yillarda amalga tushirish bo'yicha amaliy harakatlar boshlandi. Mamlakatimiz Prezidenti 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ham ushbu masala yuzasidan fikr bildirib o'tdi.

2018 yil noyabr oyida Samarqand shahrida inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 70 yilligiga bag'ishlangan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi o'tkazildi. Forum jahon hamjamiyati tomonidan inson huquqlari va qadr-qimmatini yuksaltirishga, manfaatlar hamda inson huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik global voqea sifatida e'tirof etildi. Ushbu olib borilayotgan islohotlar albatta o'z natijasini berdi.

2018 yil 11 dekabrda AQSh Davlat departamenti "Diniy erkinlikni tizimli, davomiy va jiddiy ravishda buzishda ishtirok etuvchi mamlakatlar ro'yxati"dan O'zbekistonni chiqarganligini e'lon qildi. Bu qaror mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarning xalqaro miqyosda e'tirof etilishining muhim dalilidir[5]. Ushbu ro'yxatdan respublikaning chiqishi biz intilayotgan Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lib kirishimizga ham turtki bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, dunyo davlatlari bilan ochiq siyosat olib borish mamlakatimizga investitsiyalar oqimini ko'payishiga, yangi infratuzilmalar shakllanishiga olib keladi. Davlatimizni xalqaro hamjamiyat tomonidan

qo'llab-quvvatlab borilishi, davlatlararo munosabatlar mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mintaqadagi xavfsizlik masalalarini mustahkamlashda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlari ishtirokini kengroq ta'minlash borasida xalqaro tashkilotlararo tashabbuslar ilgari surilishi va mintaqada raqobatbardosh, barqaror bozorni shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi ham muhim hisoblanadi.

Аннотация. В статье научно проанализированы вопросы укрепления сотрудничесва Республики Узбекистан с государствами Центральной Азии в области обновленной внешней политики, регионального сотрудничества, признания мировым сообществом инициатив по укреплению безопасности и стабильности в регионе.

Ключевые слова: региональное сотрудничество, международное сотрудничество, открытая внешняя политика, инвестиционная среда, доктрина, торгово-экономические отношения, транспортно-логистика, Региональная безопасность, афганская проблема, экономическая стабильность.

Abstract. In the article, the issues of the renewed foreign policy of the Republic of Uzbekistan, strengthening cooperation with the countries of Central Asia in the field of regional cooperation, recognition of the initiatives of the world community to strengthen security and stability in the region are scientifically analyzed.

Keywords: regional cooperation, International cooperation, open foreign policy, investment climate, doctrine, trade-economic relations, transport-logistics, regional security, Afghan problem, economic stability.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнгинг 2018 йил 10 январдаги Хавфсизлик Кенгаши йиғилишидаги нутқи. Халқ сўзи. 2018 йил 11 январь.
2. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳо. - Т.: Ўзбекистон. 2018. 508 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтказилган "Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик" мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 йил 11 ноябрь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 йил 20 сентябрь.
5. Файзиев О.Ўзбекистон дунёга ўз сўзини айтмоқда. // Халқ сўзи. 2019. №1.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIGIGA 34 YIL: TARIXIY AHAMIYAT, HUQUQIY ISLOHOTLAR VA TARAQQIYOT YO‘LI

RUSTAMBAYEV Mirzayusup Xakimovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligining 34 yillik tarixiy bosqichlari, ularning siyosiy-huquqiy ahamiyati hamda mamlakat taraqqiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan konstitutsiyaviy va huquqiy islohotlar, ularning davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi yutuqlar, xalqaro maydondagi faoliyat hamda milliy manfaatlarni himoya qilish mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqotda tarixiy manbalar, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va zamonaviy ilmiy qarashlar asosida mustaqillik davri islohotlarining tizimli yondashuvi yoritilib, kelgusi taraqqiyot istiqbollari bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy tizim, taraqqiyot, tarixiy ahamiyat.

1991-yil 1-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qildi. Bu sana xalqimizning asrlar davomida orzu qilgan ozodlik va erkin hayot sari intilishlarining yuksak cho‘qqisidir. 2025-yilda O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi nishonlanmoqda. Shu davr ichida mamlakatda chuqur siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlar amalga oshirildi, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi va xalqaro maydondagi nufuzi yuksaldi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida erishilgan asosiy yutuqlar, konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi.

“O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–222-son, 10.07.2025 y.) qabul qilindi[1].

Qarorga ko‘ra, milliy istiqlolimizning 34 yillik shonli sanasi Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot darajasi, jahon maydonidagi obro‘-e’tiboriga har tomonlama munosib tarzda, yuksak saviyada nishonlanadi. Mustaqillikning 34 yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlari “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam etgan holda o‘tkaziladi. Mustaqillik bayrami Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishi ta’minlanadi. “Ona diyor – ranglar jilosida”, “Vatan uchun yashaylik!”, “Eng ulug‘, eng aziz” kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovlar yuqori darajada o‘tkaziladi.

1. Mustaqillikning tarixiy asoslari

O‘zbekiston xalqi uzoq tarix davomida o‘zining erkinligi, hududiy yaxlitligi va suvereniteti uchun kurashgan. Movarounnahr, Turkiston hududi qadimda mustaqil davlatlar — Xorazmshohlar, Temuriylar, Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklari asosida boshqarilgan. 19-asr oxirida Rossiya imperiyasi bu hududni bosib olib, mustaqillikni tugatdi. 1924-yilgi milliy-davlat chegaralash natijasida O‘zbekiston SSR tuzildi, biroq bu suveren davlat emas, SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika edi. Bu davrda davlat suvereniteti faqat nomigagina mavjud edi. Markazlashgan boshqaruv tufayli xalq irodasi cheklangan edi. Senzura, repressiyalar va madaniy assimilyatsiya siyosati olib borilgan. Shunga qaramay, 1980-yillar oxiriga kelib, SSSRda “qayta qurish” (perestroyka) siyosati bilan erkinlik g‘oyalari kuchaya boshladi. O‘zbekiston SSRda mustaqillikka erishish yo‘lida quyidagi bosqichlar muhim ahamiyat kasb etdi:

- 1989-yil: Islom Karimov O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi etib saylandi.
- 1990-yil 20-iyun: O‘zbekiston SSR Oliy Soveti “Davlat suvereniteti to‘g‘risida deklaratsiya” qabul qildi.
- 1991-yil 31-avgust: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

- 1991-yil 1-sentabr: davlat mustaqilligi e’lon qilindi — bu sana milliy bayram sifatida nishonlanadi.

1991-yil 29-dekabrda o‘tkazilgan umumxalq referendumida ishtirok etganlarning 98% dan ortig‘i mustaqil O‘zbekiston davlatini qo‘llab-quvvatladi. Bu xalq irodasining bevosita ifodasi bo‘ldi.

1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinib, davlat mustaqilligining huquqiy asoslari mustahkamlandi. Unda: davlat suvereniteti, mustaqil tashqi va ichki siyosat yuritish, inson huquqlarining ustuvorligi, bo‘linmagan va daxlsiz hudud tamoyillari belgilandi. O‘zbekiston mustaqilligi — bu tasodifiy siyosiy voqea emas, balki tarixiy zarurat, xalqimizning asrlar davomida ozodlikka bo‘lgan intilishlari, siyosiy o‘zgarishlar va xalq irodasining mahsulidir. Bu tarixiy asoslar bugungi O‘zbekistonning mustahkam poydevoridir.

2. Konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qildi. Bu tarixiy voqea xalqimizning asriy orzularini ro‘yobga chiqarib, milliy davlatchilikning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini yaratish zaruratini yuzaga keltirdi. O‘tgan 34 yil davomida mamlakatda huquqiy davlat barpo etish, fuqaro jamiyatini shakllantirish yo‘lida muhim bosqichlar bosib o‘tildi. 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun (№ HR-469-XII) – davlatimiz suverenitetining huquqiy asosidir. Ushbu hujjat orqali xalqning o‘z taqdirini belgilashga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqi tan olingan.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlatning asosiy qonuni sifatida inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, davlat hokimiyatining bo‘linishi prinsiplarini joriy etish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kabi konstitutsiyaviy qadriyatlarni belgilab berdi.

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan **xalq referendumi** asosida qabul qilingan Konstitutsiyaning yangi tahriri:

“Inson – jamiyat – davlat” tamoyilini asosiy konsepsiya sifatida belgiladi;

Ijtimoiy davlat modelini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi;

Prezident vakolati muddati, inson huquqlari kafolatlari va hokimiyat vakolatlarining muvozanatini yangidan belgiladi.

2025-yil 10-iyulda Prezident tomonidan qabul qilingan PQ–222-sonli qaror asosida, mustaqillikning 34 yilligini keng nishonlash rejalashtirildi. Qarorda:

mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib qilish; davlat suvereniteti va huquqiy qadriyatlarni mustahkamlash; yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish kabi maqsadlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 34 yillik mustaqillik davri – konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining mustahkamlanish, demokratiyani chuqurlashtirish va huquqiy davlat barpo etish yo‘lida muhim tarixiy bosqichdir. Ayniqsa, 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiya bu taraqqiyotda sifat jihatidan yangi davrni boshlab berdi.

1.1. 1991–2000 yillar: Siyosiy barqarorlikni ta’minlash bosqichi

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar, prezidentlik institutining mustahkamlanishi, hamda xalq vakillik organlari – Oliy Majlis faoliyatining bosqichma-bosqich shakllanishi kuzatildi. 1992-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqil davlatning siyosiy-huquqiy poydevorini yaratdi.

1.2. 2000–2016 yillar: Markazlashgan boshqaruvdan institutsional barqarorlik sari

Bu davrda hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi aloqalar aniq-ravshan bo‘lib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining nisbiy mustaqilligi kuchaydi.

2005-yildan boshlab ikki palatali parlament tizimi joriy etildi.

Bosqich	Yillar	Asosiy voqealar va islohotlar
Mustaqillik e’lon qilinishi	1991	Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi
Konstitutsiya qabul qilinishi	1992	Asosiy qonun tasdiqlandi
Barqarorlik va qonunchilik asoslari	1992–2016	Davlat boshqaruvi tizimlari mustahkamlandi
Yangilanish va islohotlar davri	2017–2022	Davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi tubdan isloh qilindi
Konstitutsiyaning yangi tahriri	2023	Referendum orqali yangi Konstitutsiya tasdiqlandi

1.3. 2016-yildan hozirgacha: “Yangi O‘zbekiston” va ochiq boshqaruv

2016-yilda Shavkat Mirziyoyev prezident etib saylangach, siyosiy islohotlar yangi bosqichga o‘tdi. Quyidagi yo‘nalishlarda chuqur islohotlar amalga oshirildi: - Davlat boshqaruvi tizimining raqamlashtirilishi; - Jamoatchilik nazorati kuchaytirildi; - Siyosiy partiyalar va fuqarolik jamiyatiga keng maydon ochildi; - 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar – demokratik qadriyatlar mustahkamlash. O‘zbekiston siyosiy tizimi mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich demokratiya sari harakat qildi. Bugungi kunda:- Siyosiy pluralizmga asoslangan tizim shakllandi;- Davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlik kuchaydi; - Biroq, ayrim hududlarda amaliyotdagi byurokratik to‘siqlar saqlanib qolmoqda.

Mustaqillik yillarida prezidentlik institutining mustahkamlanishi, parlament vakolatlarining kengaytirilishi va sud hokimiyatining mustaqilligi O‘zbekistonning siyosiy tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Xususan, 2016-yildan keyin amalga oshirilgan “Yangi O‘zbekiston” siyosati natijasida fuqarolik jamiyati institutlari faollasha boshladi.

4. Iqtisodiy taraqqiyot

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda, xususiy sektorni faol jalb etgan holda, zamonaviy transport-logistika tarmoqlarini barpo etish bo‘yicha tizimli qadamlartashlanganinialohidata’kidlamoqchiman. Mamlakatimiz logistika ochiqligi va shaffofligi masalalarida yuqori dinamika ko‘rsatmoqda. Savdo-transport jarayonlarini raqamlashtirish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotda tuzilmaviy islohotlar, savdo tizimi liberallashgani va investitsiya muhiti tubdan yaxshilangani salmoqli natijalar bermoqda. Raqobatdoshlik oshdi, innovatsion taraqqiyot tezlashdi. Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch va sheriklik yangi darajaga ko‘tarilgani esa jadal o‘zgarishlarga kuchli turtki bermoqda. Hozirgi kunda mintaqamizda yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb, Shimol va Janubi o‘rtasidagi to‘laqonli tranzit habiga aylantirish uchun dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zaro savdo hajmi 4,5 marta, sarmoyalar esa ikki barobar o‘sdi. Qo‘shma korxonalar soni besh karra ko‘paydi.

Joriy yilda hamkorlarimiz bilan birga Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishiga kirishdik. O‘zbekiston – Turkmaniston – Eron – Turkiya transport yo‘lagida yuk tashish hajmi sezilarli darajada o‘sdi.[1]

So‘nggi yillarda milliy taraqqiyot dasturlarini amalga oshirish jarayonida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat berayotganimiz sizlarga yaxshi ma’lum. Shu boradagi keng ko‘lamli islohotlar tufayli O‘zbekiston temir yo‘llari faoliyati tubdan takomillashtirilib, sohada muhim loyiha va dasturlar hayotga joriy etilayotganini mamnuniyat bilan ta’kidlash lozim. Qisqa muddatda 3 ming 800 kilometrdan ziyod temir yo‘l elektrlashtirilib, Buxoro – Urganch – Xiva temir yo‘li qurib bitkazilgani, lokomotiv parki zamonaviy texnikalar bilan to‘ldirib borilayotgani shu yo‘nalishdagi ishlarimiz ko‘lamidan dalolat beradi.

Eng muhimi, bunday sa’y-harakatlarimiz uzviy va davomli bo‘lib, buning tasdig‘ini Toshkent – Urganch – Xiva yo‘nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan elektr poyezdlar qatnovini yo‘lga qo‘yish, Miskin – Nukus temir yo‘l tarmog‘ini elektrlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilayotgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, bu yil aholiga sifatli transport xizmati ko‘rsatish, turizmni rivojlantirish maqsadida Samarqand shahridan Urgutga, Toshkent viloyatidagi Baytqo‘rg‘on stansiyasidan Parkent tumaniga temir yo‘l tarmog‘ini tortib borish ishlari boshlandi. Shuningdek, Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li qurilishi bo‘yicha yirik xalqaro loyihaning amalga oshirilayotgani nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamiz kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega.[2]

1. Iqtisodiy rivojlanish bosqichlari

1.1. 1991–2000 yillar: Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston iqtisodiy jihatdan og‘ir holatda edi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport infratuzilmasi SSSRdan qolgan markazlashgan tizimga tayanardi. 1994-yildan boshlab pul islohoti (so‘mning muomalaga kiritilishi), davlat mulkini xususiylashtirish va erkin savdo yo‘lga qo‘yildi.

[1] https://president.uz/uz/lists/view/8360/O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasidagi nutqi

[2] https://president.uz/uz/lists/view/8353/ O‘zbekiston temir yo‘l transporti sohasi xodimlariga tabrigi

1.2. 2000–2016 yillar: Barqaror iqtisodiy o‘sish va modernizatsiya

Ushbu davrda sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida strukturaviy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Eksport-import muvozanatini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va bank-moliya tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator qarorlar qabul qilindi. Jahon moliyaviy inqirozi davrida ham iqtisodiyotning o‘sishi 7–8% atrofida saqlanib qolgan.

1.3. 2016-yildan hozirgacha: Ochiq iqtisodiyot va investitsion islohotlar

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar O‘zbekistonni ochiq, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotga aylantirishga yo‘naltirilgan. So‘mning erkin konvertatsiyasi (2017), bojxona va soliq islohotlari, xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish va “Yagona darcha” tizimi joriy etilishi muhim bosqich bo‘ldi.

Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish masalasi ko‘rib chiqilar ekan, davlatimiz rahbari yerdan unumli foydalanish, samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatgan edi.

Buning uchun aniq hisob-kitob va tahlil juda zarur. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “O‘zbekkosmos” agentligi shunday imkoniyat bermoqda. 2024-yil 14-oktabrdagi Prezident farmoniga muvofiq, iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalar joriy etilmoqda.

Jumladan, bu qishloq va suv xo‘jaligidagi haqiqiy holatni, kamchiliklarni ochiq-oydin ko‘rsatib berayapti. Ikki yil mobaynida sohada foydalanilayotgan 4 million gektardan ziyod yerlar kosmik monitoring qilindi. Aniqlanishicha, hisobotlarda ko‘rsatilgan ayrim maydonlarda paxta ekilmagan, ba’zan esa zaxiradagi yoki egasi noma’lum yerlarga ekilgan.

Shu bois davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishini masofaviy monitoring qiladigan tizim yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligidan kelib chiqib, yurtimizda kam suv talab qiladigan yangi navlar va agrotexnologiyaga o‘tilmoqda. Lekin ekinlarni sug‘orishda suv sarfi me’yori hozirgi haqiqatdagi talabga javob bermasligi ko‘rsatib o‘tildi. Gidromodul rayonlashtirish yondashuvi ham eskirgan. Oqibatda kanallar oxirida joylashgan 3 mingdan ziyod fermerga suv yetib bormayapti[3].

3. Xulosa va tavsiyalar

O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining asosiy xususiyati – bosqichma-bosqich, ehtiyotkorona yondashuv va barqarorlikni ta’minlashdir. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti globallashuvga moslashmoqda, raqamli iqtisodiyot, yashil energetika va ilm-fan asosidagi innovatsiyalar rivojlanmoqda.

1. Raqamli iqtisodiyotni jadallashtirish;
2. Yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash;
3. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksportga yo‘naltirish.

34 yil davomida O‘zbekiston agrar davlatdan sanoatlashgan, ochiq iqtisodiyotga ega davlatga aylandi. Xususan, so‘nggi yillarda eksport-import hajmlarining oshishi, investitsiyalarni jalb etish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish katta iqtisodiy yutuqlarga sabab bo‘ldi. So‘nggi yillarda soliq yukini kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘p ish qilindi. Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaydi, 100 dan ortiq turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor bo‘ldi[4].

5. Xalqaro aloqalar va tashqi siyosat

O‘zbekiston 130 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan, BMT, YXHT, IHT, SHHT, MDH kabi xalqaro tashkilotlarning faol a’zosi hisoblanadi. Mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta’minlash borasida ham O‘zbekiston faol tashabbuskor sifatida namoyon bo‘lmoqda.

2. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar (jadval)

Yil	YAIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investit-siyalar (mlrd $)
1995	1.6	305	0.1
2005	7.0	10.0	0.8
2010	8.5	7.3	1.6
2017	4.5	14.4	2.4
2023	6.2	8.8	3.8

[3] https://president.uz/uz/lists/view/8351/ Qishloq xo‘jaligida kosmik ma’lumotlardan foydalanish kengayadi tadbiridan
[4] https://president.uz/uz/lists/view/8376/ Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi tadbiridan

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar (so‘nggi 5 yil)

Yil	YAIM o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)
2019	5.7	14.5
2020	1.6	11.1
2021	7.4	10.0
2022	5.7	12.3
2023	6.0	8.8



Рис.2. Эффективность различных моделей управления Национальной гвардией (сравнительный анализ)[27]

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 34 yil to‘lishi nafaqat tarixiy sana, balki bugungi kunimiz uchun mas’uliyatli xulosa chiqarish davri hamdir. Shu davr mobaynida mamlakatda chuqur islohotlar amalga oshirildi, mustaqil siyosiy va iqtisodiy tizimlar shakllandi. Endilikda esa asosiy vazifa — inson manfaatlariga asoslangan ochiq, demokratik va huquqiy davlatni mustahkamlashdir. O‘zbekiston xalqining irodasi va birligi asosida bu yutuqlar yanada mustahkamlanaveradi. Shu maqsad yo‘lida boshlangan islohotlarimizni dadil davom ettirish har bir fuqarodan buni ulug‘ vazifa deb qabul qilish va uning tub mohiyatini anglashni talab etadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются исторические этапы 34-летней государственной независимости Республики Узбекистан, их политико-правовое значение и влияние на развитие страны. Освещены проведённые за годы независимости конституционные и правовые реформы, их роль в модернизации системы государственного управления. Также анализируются достижения в экономической, социальной и культурной сферах, деятельность на международной арене и механизмы защиты национальных интересов. На основе исторических источников, действующих нормативно-правовых актов и современных научных подходов раскрывается системный характер реформ периода независимости и приводятся научные выводы о перспективах дальнейшего развития.

Ключевые слова: независимость, конституционные реформы, правовая система, развитие, историческое значение.

Annotation. This article analyzes the historical stages of the 34 years of state independence of the Republic of Uzbekistan, their political and legal significance, and their impact on the country's development. It highlights the constitutional and legal reforms implemented during the years of independence and their role in modernizing the system of public administration. The study also examines achievements in the economic, social, and cultural spheres, the country's activities on the international stage, and mechanisms for protecting national interests. Based on historical sources, current normative legal acts, and modern scientific approaches, the research reveals the systematic nature of the reforms carried out during the independence period and provides scholarly conclusions regarding future development prospects.

Key words: Uzbekistan, independence, constitutional reforms, legal system, development, historical significance.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (2023-yilgi tahriri)
2. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi Qonun. 1991-yil.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, 2021.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat. Toshkent, 1999.
5. Rasmiy statistika va hukumat saytlari: www.stat.uz, www.gov.uz
6. https://president.uz/uz/lists/view/8376

SUDLAR FAOLIYATI OCHIQLIGINING TA'MINLANISHIDA ELEKTRON ODIL SUDLOVNI TATBIQ ETISH ISTIQBOLLARI

Sabirov Erkinjon Kuchkarbayevich,
Fuqarolik ishlari bo'yicha Asaka tumanlararo sudining raisi,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. Maqolada sudlar faoliyati ochiqligining ta'minlanishida elektron odil sudlovni tatbiq etish istiqbollari tahlil etilgan.Shuningdek, milliy amaliyot, xorijiy tajriba asosida elektron odil sudlovni rivojlantirish bo'yicha xulosalar ilgari surilgan.
Kalit so'zlar:Sud hokimiyati,huquqiy asoslar, elektron odil sudlov, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari,sudlar faoliyatining ochiqligi, shaffoflik, huquqiy ma'lumotlar bazalari,sud qarorlarini e'lon qilish, takomillashtirish.

So'nggi yillarda O'zbekistonda axborot texnologiyalarini sud tizimiga joriy etish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Sud tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish, sudlov bo'yicha axborot tizimlarini yaratish va joriy etish, veb-saytlar orqali fuqarolarga xizmat ko'rsatish va boshqalar sud organlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi [1].

Sudlov tizimini axborotlashtirish sudlarni axborot bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish, shuningdek foydalanuvchilar uchun sud organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan keng foydalanishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi ochiq va shaffof odil sudlov tizimini joriy etishdan iboratdir.

Jadal sur'atlar bilan rivojlanish yo'lidan borayotgan, taraqqiy etgan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallayotgan respublikamizda boshqa sohalar qatorida sudlov tizimi ham samarali isloh qilinmoqda. Sud tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiyalari infratuzilmasini yaratish, axborot resurslari va axborot tizimlarini ishlab chiqish, elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hamda sud organlari veb-saytlari orqali fuqarolarga interaktiv xizmatlarni ko'rsatish hozirgi kunda respublikamizda sud organlarida amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, sudlov tizimini axborotlashtirish nafaqat sud organlari faoliyatining samaradorligining oshishiga, balki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan odil sudlovning oshkoraligi va hamma uchun ochiqligi tamoyillarini sudlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, aholining sudlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini oshirish orqali rivojlantirish va sifat jihatdan yangi bosqichiga ko'tarishga imkon beradi [2].

Amaliyotchi mutaxassislarningfikricha, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ishlarni ko'rib chiqish sifatini oshirib, muddatini qisqartirish imkonini beradi. Bu fuqarolar-ning vaqti, mablag'i tejalishi, huquqlari o'z vaqtida tiklanishiga keng yo'l ochadi [3]. Huquqshunos olimlar ham o'z asarlarida jamiyat hayotining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil ravishda kirib kelayotganligi odil sudlovni amalga oshirish tartib-taomillariga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini, sud ishlarini yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, sudlar faoliyatida kompyuterlashtirish darajasini va kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish sudyalarning ish hajmini pasaytirishga, turli moliyaviy sarf-xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishini, jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili bo'lmish sud hokimiyatining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi uning jamiyatda tutgan o'rni va obro'sini ham oshirishini ta'kidlaydilar [4].

Sudlar faoliyatiga elektron odil sudlovni tatbiq etishning sudlar faoliyati ochiqligini ta'minlashdagi ahamiyati haqida xorijlik amaliyotchi mutaxassislar ham o'z fikrlarini bildirib, elektron odil sudlov - bu axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan odil sudlovni amalga oshirish usuli ekanligini,u sudlar to'g'risidagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlovchi va sud ishlarini avtomatlashtirish tizimlarini o'z ichiga olishini, elektron vositalar sudlarning mutlaqo ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashi, sud ishlarining sifatini yaxshilashi, xarajatlarni kamaytirishi va bahsli huquqiy munosabatlar

ishtirokchilariga qulaylik yaratishi haqida fikr bildiradi [5].

Elektron odil sudlovning amaliyotda qo‘llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, fuqarolik nizolari bo‘yicha birinchi elektron sud Niderlandiyada 2011-yilda tashkil etilgan [6]. Keyinchalik elektron odil sudlov turli mamlakatlardagi fuqarolar va tashkilotlarga tegishli ishlarni samarali ko‘rib chiqishga yordam bera boshladi [7].

Mamlakatimizda sud tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning dastlabki huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 2-avgustdagiPF-4459-sonli “Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilashchora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bo‘ldi [8]. Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo‘jalik sudi bilan kelishilgan holda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturini tasdiqlash, sudlarning tarkibiy tuzilmasida axborotlashtirish masalalari bo‘yicha alohida bo‘linmalar tashkil qilish to‘g‘risida takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan edi. Mazkur Farmonning ijrosini ta’minlash, shuningdek sud ishlarini yuritish tezkorligini oshirish uchun sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish maqsadida 2012-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 346-sonli Qarori qabul qilingan. [9]

2017-yilning 8-fevralida matbuotda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon bilan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da [10] **sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish** bo‘yicha bir qator aniq chora-tadbirlar nazarda tutildi. Xususan, **Davlat dasturining 65-bandida:**

- *sudyalar o‘rtasida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash tartibini joriy qilish;*

- *sudlarda o‘z vaqtida elektron tarzda axborot almashuvini ta’minlovchi korporativ aloqani joriy etish, sud faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimini kiritish;*

- *sud qarorlarining axborot-huquqiy elektron bazasini yuritish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta’minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan barcha sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilish (yopiq sud jarayonida ko‘rib chiqilganlaridan tashqari)* kabilar nazarda tutildi.

Sud qarorlarini chop etish tartibining joriy qilinishi sudda ish ko‘rishning ochiq va oshkoraligi prinsipi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sud qarorlarining asosli, qonuniy va adolatli qabul qilinishini kafolatlashga xizmat qiladi. Zero, sud hal qiluv qarori va hukmining e’lon qilinishi sudyalarni ish yuzasidan o‘z qarorlarini aniq faktlar bilan asoslashga undaydi.

Shuningdek, Davlat dasturida elektron tartibda sud ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini, shu jumladan, protsess ishtirokchilari bilan o‘zaro elektron hamkorlikni amalga oshirish, videokonferensaloqadan foydalanishni, shuningdek protsessual harakatlarni video, audio qayd etishni, sud-tergov jarayonlarini stenogramma qilishning yangi turlarini kengroq joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beruvchi qonun loyihasini ishlab chiqish nazarda tutildi (73 va 82-bandlar). [11]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagi PQ-3250-sonli “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [12] hamda ushbu Qarorga ilova sifatida 2017-2020 yillarda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha Dasturning qabul qilinishi sudlar faoliyatiga elektron odil sudlov modelini tatbiq etishning yangi bosqichini boshlab berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, Dasturda sud majlislarini audio va videoda qayd etish maqsadida apparatlarni bosqichma-bosqich sotib olish, elektron stenografiya qilish funksiyasi bilan sud majlislarini audio-videoda qayd etishning milliy dasturiy ta’minotini ishlab chiqish, fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sudlarda videokonferens-aloqa tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, shaxsiy hayot siri, tijorat siri saqlanishini ta’minlash va sud majlislari qatnashchilarining roziligini inobatga olgan holda sud qarorlari (yopiq sud majlislarida chiqarilgan sud qarorlari bundan mustasno) Internet butunjahon

axborot tarmog'ida e'lon qilinishi bo'yicha dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va joriy etish, sud ishlarini yuritish tizimining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish, sud organlarining axborot tizimlarida xizmatga oid ma'lumotlar va fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlarni himoya qilish, shuningdek, axborot xavfsizligini buzish bilan bog'liq ehtimol tutilgan hodisalarga tezkorlik bilan chora ko'rish tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutildi.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosati tomonidan sudlarning faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydala-nish masalalariga bag'ishlangan qator nizom va konsepsiyalar qabul qilingan. Bular: O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarda Internet tarmog'i va TAS-IX tarmog'idan foydalanish to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarning lokal hisoblash tarmog'idan va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarining korporativ hisoblash tarmog'i to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarining korporativ elektron pochtasi to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarida axborot xavfsizligini ta'minlash to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va quyi sudlarida kompyuter va ofis uskunalaridan foydalanish to'g'risida nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini telefon orqali qabul qilish markazi - "Ishonch telefoni" markazi nizomi, "E-SUD" Milliy elektron sudlov axborot tizimidan foydalanish bo'yicha nizom (yangi tahrirda), Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga kelib tushgan ariza (da'vo arizasi, shikoyat, ariza, sud buyrug'i chiqarish to'g'risidagi ariza) va fuqarolik ishlarini sudyalar o'rtasida taqsimlash tartibi to'g'risida nizom, E-xSUD va E-SUD axborot tizimlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bilan integratsiya qilish Konsepsiyasi, E-xSUD va E-SUD axborot tizimlarini Ochiq ma'lumotlar portali (shu mumladan barqaror rivojlanish Portali) bilan integratsiya qilish Konsepsiyasi, E-xSUD va E-SUD axborot tizimlarini Ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorliklarni undirish masalalari bo'yicha yagona idoralararo elektron xamkorlik tizimi bilan integratsiya qilish Konsepsiyasi, E-xSUD va E-SUD axborot tizimlarini elektron hukumat idoralararo integratsiyaviy platformasi bilan integratsiya qilish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarda ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash to'g'risida nizom. [13]

E-SUD elektron sudlov axborot tizimi fuqarolarga va umuman sudga murojaat etuvchilarga qulayliklar yaratish bilan birga sudlar faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Tashqi foydalanuvchilar ya'ni sudga murojaat qiluvchilar uchun:

- sudlarga da'vo, shikoyat va iltimosnomalar, hamda ularga ilova qilingan hujjatlarni elektron tarzda taqdim qilish;
- sudlarga tashrif qilmasdan, ko'rilayotgan fuqarolik ishidagi o'zgarishlardan xabardor bo'lmoq;
- sudga chaqiruv qog'ozlari va bildirishnomalarni elektron shaklda yetkazish;
- ko'rilayotgan fuqarolik ishi bo'yicha qabul qilingan protsessual aktlar bilan tanishish;
- sud aktlari - qaror va ajrimlar bilan tanishishi.

Ichki foydalanuvchilar, ya'ni sudya va sud xodimlari uchun:

- elektron shaklda fuqarolik ishini olib borish;
- sudga chaqiruv qog'ozlari va bildirishnomalarni, fuqarolik ishi bo'yicha kiritilgan o'zgartirishlar va qabul qilingan protsessual aktlarni yuborishni avtomatizatsiyalashtirish;
- ishlab chiqilgan va tizimga kiritilgan shablonlar asosida alohida protsessual aktlarni tuzishni avtomatizatsiyalashtirish;
- sudlar faoliyati haqida ma'lumotlarni yig'ish, ularni ishlab chiqish, saqlash va tizimlashtirish;
- ishda ishtirok etuvchi shaxslar uchun qabul qilingan aktlarni informatsion tizimda chop etilishini avtomatizatsiyalashtirish;
- sudlarning statistik hisobotlarini chop etilishini avtomatizatsiyalashtirish. [14]

Elektron odil sudlov haqida gap ketganda shuni ta'kidlash kerakki, unga ko'ra sud tizimiga tegishli elektron shaklda ma'lumotlarni taqdim etuvchi, shuningdek, AKT orqali sud ma'lumotlarini elektron ravishda almashishga imkon beradigan har bir xizmatni elektron odil sudlov deb belgilash mumkinligi haqida nuqtai nazar ilgari surib kelinadi.[15] Bizning fikrimizcha, ushbu nuqtai nazar bilan to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Elektron odil sudlovning sud ma'lumotlarini elektron almashish yoki elektron kommunikatsiyadan ajratib turadigan asosiy mezoni bu - odil sudlovni amalga oshirish samaradorligining qulayligi va shaffofligining nechog'lik ta'minlanganligidir. Boshqacha qilib aytganda, elektron odil sudlovning

samaradorligi sud ishlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilangina emas, balki sudda ishlarning oshkoraligi va sud hokimiyati faoliyatining ochiqligining nechog'lik ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Fikrimizcha, elektron odil sudlov sud funksiyalarining shaffofligini, ma'lumotlarning oshkoraligini ta'minlaydi va natijada sudyalarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan elektron odil sudlovning quyidagi huquqiy mexanizmlari mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin:

1) axborotning ochiqligi; 2) masofaviy hamkorlik;3) sud qarorlarining ma'lumotlar bazasi; 4) sud qarorlarining xalqaro miqyosda tan olinishi; 5) elektron hujjat aylanishi; 6) ishlarni elektron tarzda masofadan qo'zg'atish va hujjatlarni topshirish; 7) elektron ma'lumotlar; 8) elektron konsalting.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, elektron odil sudlovga quyidagicha ta'rif berish mumkin bo'ladi: **elektron odil sudlov** - odil sudlovning ochiqligi va qulayligini ta'minlash va ijtimoiy-huquqiy nizolarni sudlar tomonidan samarali hal etish uchun ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, saqlash, tarqatish, namoyish etish va ulardan foydalanish maqsadida dasturiy-texnik vositalarni qo'llash jarayoni.

Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining CM / Rec (2009) 1 (G48) tavsiyalarida elektron odil sudlovning nimalarda namoyon bo'lishi aniq bayon etilgan. Unga ko'ra,elektron odil sudlov elektron demokratiyaning ifodasi sifatida, sudlarning rasmiy veb-saytlari, milliy va xalqaro portallar, sud ishining holati to'g'risida onlayn ma'lumot berish tizimlari, videokonferensiya aloqa tizimlarini, shuningdek elektron axborot almashish usullari va standartlarini o'z ichiga oladi. [16]

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar huquqni qo'llash amaliyotida elektron odil sudlov sudlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash, sud faoliyatiga doir ma'lumotlardan keng jamoatchilikni xabardor qilishda ko'proq namoyon bo'lmoqda. Xususan, sudning ish bo'yicha yakuniy to'xtami - sud qarorlarining Internetda ma'lumotlar bazalarini yaratish orqali amalga oshirilishiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Masalan, Avstriyada elektron huquqiy ma'lumotlarning bazalari keng tarqalgan. Ularning eng mashhuri –"RIS" deb nomlangan Avstriyaning huquqiy axborot tizimidir. Sud xodimlari va boshqa barcha foydalanuvchilar ris.bka.gv.at veb-saytida qonunchilik bilan tanishishlari, qonun hujjatlarining rasmiy manbasi hisoblangan "Qonunlar axborotnomasi" hamda oliy instansiya sudlarining barcha qarorlari va boshqa sud instansiyalarining eng muhim qarorlarini yuklab olishlari mumkin. [17]

Fransiyada oliy sud instansiyalarining va ma'muriy sudlarning qarorlari "Legifrance.gov.fr" nomli Internetdagi huquqiy axborot sayti orqali keng omma uchun ochiq bo'lib, mazkur sayt orqali Fransiyaning oliy sud instansiyalarining qarorlari bilan ham bemalol tanishish imkoniyati yaratilgan. [18]

Buyuk Britaniyada http://www.publications.parlament. uk/pa/Id deb nomlangan lordlar Palatasining maxsus sayti orqali Qirollikning barcha hududidagi sud qarorlari bilan tanishish mumkin bo'ladi. [19]

AQShning barcha sud qarorlari shu sudlarga tegishli bo'lgan nashrlarda to'plam sifatida chop etib boriladi va mazkur nashrlar barcha yuridik kutubxonalarda mavjud. [20]

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining veb-sayti da'vo arizalari, apellatsiya, kassatsiya shikoyatlari, shuningdek ularga javoblar, ishlarni nazorat, apellatsiya va boshqa protsessual hujjatlar orqali masofadan turib elektron odil sudlov tizimi orqali ko'rib chiqishni tashkil qiladi. Bundan tashqari, endi istagan har qanday kishi "Elektron qo'riqchilar"-2 avtomatlashtirilgan tizimidan foydalangan holda ish jarayonlarining harakatlanishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. [21]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, elektron odil sudlovning samaradorligi sud ishlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilangina emas, balki sudda ishlarning oshkoraligi va sud hokimiyati faoliyatining ochiqligining nechog'lik ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Elektron odil sudlov - odil sudlovning ochiqligi va qulayligini ta'minlash va ijtimoiy-huquqiy nizolarni sudlar tomonidan samarali hal etish uchun ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, saqlash, tarqatish, namoyish etish va ulardan foydalanish maqsadida dasturiy-texnik vositalarni qo'llash jarayoni bo'lib, sudlarning rasmiy veb-saytlari, milliy va xalqaro portallar, sud ishining holati to'g'risida onlayn ma'lumot berish tizimlari, videokonferensaloqa tizimlarini, shuningdek elektron axborot almashish usullari va standartlarini o'z ichiga oladi.

Аннотация. В статье проанализированы перспективы внедрения электронного правосудия в обеспечение открытости деятельности судов.Также были выдвинуты выводы о развитии электронного правосудия на основе отечественной практики, зарубежного опыта.

Ключевые слова: судебная власть, правовые основы,Электронное правосудие, информационные и коммуникационные технологии, открытость судебной деятельности,прозрачность, правовые базы данных, публикация судебных решений, совершенствование.

Annotation. The article analyzes the prospects for the implementation of electronic justice in the provision of openness of judicial activities.Conclusions on the development of electronic justice on the basis of national practice, foreign experience have also been put forward.

Key words: judicial power,legal framework, electronic Justice, Information and Communication Technology,openness of judicial activity, transparency, legal databases,publication of court decisions, improvement.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ёдгоров Х.Б. "Ўзбекистонда қонун устуворлиги йўлида ҳамкорлик" лойиҳасининг ахборотномаси. Ўзбекистон Республикаси Олий суди, АҚШ Халқаро Тараққиёт Агентлиги (USAID) ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тараққиёт Дастури (БМТТД) "Ўзбекистонда қонун устуворлиги йўлида ҳамкорлик" қўшма лойиҳаси // www.undp.org › ruleoflaw
2. https://www.norma.uz/raznoe/e-sud_elektron_sudlov_ahborot_tizimi
3. Суд орқали ҳимояланиш имконияти ортмоқда // Ўзбекистон Республикаси Олий суди Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати раиси Холмўмин Ёдгоров билан ЎзА мухбирининг суҳбати, 13.08.2014 // http://uza.uz/oz/society/sud-or-ali-imoyalanish-imkoniyati-ortmo-da-
4. Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик азоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. -Тошкент. "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи". 2019. – 60 б.
5. Электронное правосудие: итоги и перспективы//интернет-интервью с Председателем Арбитражного суда Калужской области Сергеем Юрьевичем Шараевым, 2011 URL: http:// www. garant.ru/action/regional/271319/
6. https://www.e-court.nl/
7. Recommendation CM/Rec (2009). 1 of the Committee of Ministers to member states on electronic democracy (e-democracy) [Electronic resource]. URL: http://www.coe.int/t/dgap/democracy/Activities/GGIS/CAHDE/2009/RecCM2009_1_and_Accomp_Docs/Recom-mendation%20CM_Rec_2009_1E_FINAL_PDF.pdf
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 2 августдаги ПФ-4459-сонли "Суд тизими ходимларини ижтимоий муҳофаза қилишни тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2012 йил, 31-сон, 355-модда.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 10 декабрдаги "Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 346-сонли Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 50-сон, 560-модда.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Ф-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017. 13 февраль, 6-сон, 70-модда.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2017 йил 13 февраль, 6-сон, 70-модда.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 августдаги "Судлар фаолиятига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3250-сонли қарори // http://lex.uz/pages/getpage. aspx?lact_id=3327998

13. http://sud.uz/низомлар/

14. Ёдгоров Х.Б. "Ўзбекистонда қонун устуворлиги йўлида ҳамкорлик" лойиҳасининг ахборотномаси. Ўзбекистон Республикаси Олий суди, АҚШ Халқаро Тараққиёт Агентлиги (USAID) ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тараққиёт Дастури (БМТТД) "Ўзбекистонда қонун устуворлиги йўлида ҳамкорлик" қўшма лойиҳаси // www.undp.org › ruleoflaw

15. e-Justice [Electronic resource]. URL: http://www.netlaw.bg/l_en/?s=19&i=6

16. Рекомендации Комитета министров Совета Европы государствам-участникам Совета Европы по электронной демократии, приняты Комитетом министров 18 февраля 2009 г. на 1049-м собрании заместителей министров // [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://dsnmp.ru/rekomendatsii-komiteta-ministrov-sov/. – Дата доступа: 01.09.2019.

17. Сотиболдиев Ж.Судлар фаолиятига ахборот-коммуникация технологияларини жорий килиш борасида хорижий тажриба (Германия, Австрия ва Латвия давлатлари мисолида) // Фуқаролик суд ишларини юритишга оид қонунчиликни такомиллаштиришнинг назарий ва амалий масалалари. Илмий-амалий конференция материаллари / ю.ф.д., проф. М.М.Мамасиддиқов. – Тошкент, "Adabiyot uchqunlari". 2015. - 24 бет.

18. Барнар К. Пути и способы распространения информации о судебных решениях в Великобритании / В сб.: Судебная практика как источник права. –М., 2000. -71 с.

19. Барнар К. Пути и способы распространения информации о судебных решениях в Великобритании / В сб.: Судебная практика как источник права. –М., 2000. –С. 71-72.

20. Власихин В. Виртуальное путешествие российского читателья п о американским судам // Российская юстиция. 2001. №3. –С. 60-63.

21. Электронное правосудие//URL: http://ras.arbitr.ru

SUD-TERGOV FAOLIYATIDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI NATIJASIDA TO‘PLANGAN DALILLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Yakubov Bekzod Erkinbayevich,
Xorazm viloyati Jinoyat ishlari bo‘yicha
Bog‘ot tuman sudi raisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tezkor-qidiruv faoliyatining turlari, tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazilishi va tezkor qidiruv faoliyatining asosiy vazifalari hamda faoliyat natijalarining qonuniyligi ta’minlash choralari, o‘tkazilgan tezkor qidiruv tadbirlari davomida to‘plangan dalillarning qonuniyligi va ushbu dalillardan jinoyat ishlarini tergov qilish hamda sud muhokamasi davomida qilmishni aybliligini isbot qilishning asosiy vositasi sifatida foydalanish asoslari borasida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar berib o‘tilgan, shu bilan birga, nazariyotchi olimlar, tajribali amaliyotchi xodimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor eksperiment tadbir turi, konspiratsiya prinsipi, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari va prokuror nazorati.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish – jinoyat sodir etishda asosli gumon qilinayotgan yoki sodir etayotgan shaxslarga nisbatan, ularning jinoyatlarini oldini olish yoki ochish hamda yashiringan jinoyatchilarni aniqlash va ushlash uchun, agar maqsadga boshqa yo‘llar bilan erishishning imkoni yo‘q yoki bu nihoyatda murakkab bo‘lgan hollarda tezkor va boshqa choralar majmuini amalga oshirish jarayonini o‘zida ifodalaydi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalaridan kelib chiqqan holda tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazish yuzasidan qaror qabul qilish uchun sabab va asoslar mavjud bo‘lishi shart hisoblanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan va to‘plangan ma’lumotlar ishning haqqoniy holatini oydinlashtirishda hamda haqiqatni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Ushbu o‘rinda tezkor-qidiruv tadbirlarida to‘plangan dalillar masalasiga to‘xtalishdan avval dalillar va uning o‘ziga xos xususiyatlariga oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, dalillar jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik bo‘lgan, qonunda belgilangan manbalardan va qonunda ko‘rsatilgan usullar bilan olingan faktlar va holatlar to‘g‘risidagi har qanday ma’lumotlar hisoblanadi. [1]

Jinoyat ishlari bo‘yicha mavjud ma’lumotlaridan dalil sifatida foydalanish sud-tergov ishlarini yuritish mohiyatiga, uning protsessual shakliga, faqat qonunda ko‘zda tutilgan protsessual isbotlash vositalarini qo‘llash to‘g‘risidagi qoidaga zid keladi, chunki Jinoyat-protsessi qonunchiligida jinoyat-protsessida aynan kelib tushgan tezkor ma’lumotdan dalil sifatida foydalanishga, ushbu ma’lumotlarini tezkor-qidiruv faoliyatini olib boruvchi rasmiy xodimlar (tezkor-xodimlar), ishga aloqador shaxslarni so‘roq qilish yo‘li bilan sud dalillari shakliga o‘tkazishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida xulosaga kelinadi. [2]

Jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalaridan kelib chiqqan holda tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazish yuzasidan qaror qabul qilish uchun sabab va asoslar mavjud bo‘lishi shart hisoblanadi. Faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tayyorlanayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ma’lumotlarning kelib tushishi tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazish uchun sabab deb e’tirof etiladi, ushbu ma’lumotlar yozma (faoliyatni amalga oshiruvchi organlarga kelib tushgan xabarlar, tekshiruv materiallari va boshqa axborotlar) hamda salbiy oqibatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun zudlik bilan choralar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda og‘zaki shaklda ham kelib tushishi mumkin. [3]

Tezkor-qidiruv tadbirlar o‘tkazilishining huquqiy asoslari, uning o‘tkazilish tartibi va sharoitlari hamda tadbirlar davomida qo‘llanilishi ruxsat etilgan texnika vositalardan foydalanilishi hamda tadbir natijalarini qonuniy rasmiylashtirilishi va sodir qilingan yoki oldi olingan jinoiy qilmishni fosh etilishida isbot qilinishi lozim bo‘lgan dalillarning

olinishi va to'planishining manbalari qonuniyligi bilan izohlanadi.

Tezkor-qidiruv tadbirlarini sifatli tashkil qilinishi va o'tkazilishiga, maxsus vakolatli organlarning tezkor xodimlarining nafaqat bu tadbirlarning mohiyatini, balki ularni o'tkazish qoidalariga qo'yilgan talablarni anglagan holda to'liq hajmda o'rganish muhim omil bo'lib xizmat qiladi, faqat ushbu tamoyillarga amal qilish bilan bir qatorda, yuqorida ko'rsatilgan tezkor tadbirlarni o'tkazish asoslari va shartlarini mukammal o'zlashtirish hamda hosil qilingan ko'nikmalarni amaliyotda qonuniy asoslangan holda qo'llash, qonuniylikni buzish hollarini oldini olish va yuridik ahamiyatga molik natijalarga erishish imkonini beradi.

Shundan kelib chiqqan holda tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to'plangan dalillarni quyidagicha tavsiflash mumkin, ya'ni: - ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlanishiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar; - guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko'rsatuvlari, ekspertning xulosasi, video - audio yozuvlar, rasmiy ravishda tuzilgan bayonnomalardan iborat materiallar; - qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor tadbirlar natijasida tekshirilgan va baholangan faktik ma'lumotlar, hujjatlar va boshqa ashyoviy buyumlardir. [4]

Ushbu keltirilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, tezkor-qidiruv faoliyatining natijalari mazmun - mohiyatida dalillarning ishonchliligi, maqbulligi yoki nomaqbulligi, aloqador dalillarning chegeralanmaganligi, ularga qo'yilayotgan talablar kabi muhim faktorlar alohida o'rin egallaydi.

Bugungi kunda tezkor-qidiruv faoliyati amaliyotining guvohlik berishicha, jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh etish maqsadida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat puxta tayyorlanishi, balki qonunda nazarda tutilgan shartlarga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini taqozo etadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunining 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlari va huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, bu – qonunda belgilangan tezkor tadbirlarning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlovchi qoidalarning huquqiy asoslarini o'zida aks ettiradi.

Ya'ni, [5]

Bundan ko'rinadiki, tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to'plangan narsa(buyum) va hujjatlarni dalillar sifatida e'tirof etishda ularning aloqadorligi, maqbulligi, ishonchliligi, ahamiyatliligi va yetarliligi to'g'risidagi jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlashning ilg'or tajribasini o'rganish hamda tahlil qilish vazifasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan foydalanishning asosiy sababi, jinoyat belgilari to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni aniqlash va tekshirish, qiyosiy tekshirish uchun namunalar to'plash, jinoiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan, jinoyat sodir etishda ishtirok etayotgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniqlash va qayd etish, jinoyat sodir etishda ishtirok etgan shaxslarni aniqlash va jinoyat ustida qo'lga olish hisoblanadi.

Bugungi kunda tezkor-qidiruv faoliyati amaliyotining guvohlik berishicha, jinoyatlarni oldini olish, aniqlash, bartaraf etish va fosh etish maqsadida o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari nafaqat puxta tayyorlanishi, balki qonunda nazarda tutilgan shartlarga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini taqozo etadi. [6]

Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi Qonunining 16-moddasida tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish shartlari va huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, bu – qonunda belgilangan tezkor tadbirlarning qonuniyligi va samaradorligini ta'minlovchi qoidalarning huquqiy asoslarini o'zida aks ettiradi. [7]

Tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishning shartlari va huquqiy asoslari quyidagilardir, ya'ni: a) tezkor-qidiruv tadbirlari muayyan davlatning chegaraviy hududida o'tkazilishi; b) barcha fuqarolarga nisbatan; v) faqat tezkor-qidiruv faoliyati maqsad va vazifalarini hal etish uchun; g) fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki va atrof-muhit xavfsizligiga zarar yetkazmaydigan vositalarni qo'llashdan iboratdir. [8]

Bir qator tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida qo'lga kiritilgan jinoyat sodir etgan shaxslar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash va tekshirishga qaratilgan kelgusi tergov harakatlarini to'g'ri tanlashga yordam beruvchi yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan jinoyat ishlari bo'yicha dalil sifatida foydalanish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi, chunki tezkor-qidiruv tadbirining yashirin xarakterini saqlagan holda uning natijalarini izohlash hamda tezkor axborotni dalilga aylantirish usullarini topish kerak bo'ladi.

Bu borada, o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan yoki to'plangan narsa(buyum) va hujjatlarning protsessual qoidalarga muvofiqligi va talablarga mosligi aniqlanishi lozim.

Tezkor-qidiruv faoliyatining natijalaridan foydalanish muammosi ko'p jihatli bo'lganligi sababli, ushbu atamani tahlil qilmasdan uni hal etishning iloji yo'q. "Natija" bu – qandaydir faoliyatning, ishning pirovard yakuni, ya'ni tezkor-qidiruv faoliyatining yakuni deganda mazkur faoliyat vazifalarini hal qilish tushuniladi. [9]

Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini qonuniyligini ta'minlash quyidagilarga erishishga xizmat qiladi: *birinchidan,* qonun buzilishining barvaqt oldi olinishiga; *ikkinchidan,* tezkor-qidiruv tadbiri natijasi bo'yicha to'plangan hujjatlarni nomaqbul dalil sifatida topilishining oldi olinishiga; *uchinchidan,* ba'zi narsa-buyumlarning noqonuniy muomalaga yoki iste'molga kirishining barvaqt oldi olinishiga; *to'rtinchidan,* huquqbuzarlikka olib keluvchi sabab va omillarning o'z joyida aniqlanib, ularning kelib chiqishiga yaratilayotgan shart-sharoitlarning o'z vaqtida oldi olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены виды оперативно-розыскной деятельности, осуществление оперативно-розыскной деятельности и основные задачи оперативно-розыскной деятельности и меры по обеспечению законности результатов деятельности, законности доказательств, собранных в ходе оперативно-розыскной деятельности, даны научно-теоретические и практические рекомендации по основам использования этих доказательств в качестве основных средств при расследовании преступлений, а также при доказательстве вины на судебном заседании. Вместе с тем проанализированы мнения и рассуждения ученых-теоретиков, опытных сотрудников.

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, вид мероприятия оперативный эксперимент, прокурорский надзор.

Abstract. This article examines the types of operational investigative activities, the implementation of operational investigative activities and the main tasks of operational investigative activities and measures to ensure the legality of the results of activities, the legality of evidence collected during operational investigative activities, and provides scientific, theoretical and practical recommendations on the basics using this evidence as the main means in the investigation of crimes, as well as in proving guilt at a court hearing. At the same time, the opinions and reasoning of theoretical scientists and experienced employees were analyzed.

Key words: operational investigative activity, type of event, operational experiment, prosecutorial supervision.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Е.А.Доля Использование в доказывании результатов оперативно-розыскной деятельноси. –Москва. "Норма". 18.12.2004 й. 74-75-б.
2. Б.А.Филимонов Основы теории доказательств в германском процессе. – Москва."Спарк".21.05.2001й. 107-б.
3. А.С.Барабаш Сущност уголовного процесса и его роль в формировнии ответственности правонарушитель. – Кроансноярск. "Юрид". 02.07.2007 й. 131-132-б.
4. А.А.Хакбердиев Тезкор-қидирув фаолияти: Ўқув қўлланма. – Тошкент. "ТДЮУ". 02.06.2017 й. 105-106-б.
5. З.З.Зинатуллин Уголовно-процессуальное доказиваные. Учебное пособие.– Ижевск. "Юрид" 04.09.2001й. 147-148-б.
6. Б.А.Азизходжаев Оценка докозательств в уголовном процессе. –Тошкент. "Узбекистан". 06.04.1999й. Б.98-99-б.
7. В.И.Зажицкий Закон об оперативно–розыскной деятельности уголовного - процессе. – Москва. "Норма". 08.04.2001й. 58-59-б.
8. Ш.Х.Иномжонов Далиллар назарияси муаммолари. Ўқув қўлланма. –Тошкент. "ТДЮИ" 06.09.2006й. 77-78-б.
9. А.В.Каримов Тезкор-қидирув фаолияти: Ўқув қўлланма. – Тошкент. "ТДЮУ" 02.06.2020. Б.111-112.

AXBOROT URUSHLARI - TEZKOR KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARI SIFATIDA

QUDRATXO‘JA Sherzodxon Tojiddinxon o‘g‘li,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Bugungi globallashuv sharoitida axborot urushlari davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning muhim vositasiga aylanmoqda. Bu jarayonda tezkor kommunikatsiya kanallari orqali keng ommaga ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy ongni boshqarish va ma’lumotlar oqimini nazorat qilish asosiy strategik maqsadlarga aylangan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida urushlar endi nafaqat qurol bilan, balki virtual platformalarda ham olib borilmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn OAV va mobil ilovalar orqali tezkor tarzda ma’lumot tarqatish imkoniyati axborot urushlarining samaradorligini oshirmoqda. Shuning uchun ham axborot urushlarini zamonaviy tezkor kommunikatsiya jarayonlarining ajralmas komponenti sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: axborot urushi, sovuq urush, kommunikatsiya, kapitalizm, sobiq ittifoq, psixologik operatsiya, elektron urush, dezinformatsiya, Smart TV, ekstremizm.

Hozirgi globallashuv va raqobat ostida rivojlanayotgan dunyoda axborot nafaqat jamiyat taraqqiyotining muhim omili, balki siyosiy, iqtisodiy va harbiy tuzilmalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab axborot urushlari insoniyat hayotida tobora muhim o‘rin egallay boshladi. «Sovuq urush» davrida axborot urushlari asosan ideologik frontlarda, kapitalistik va sotsialistik lagerlar o‘rtasida kechgan bo‘lsa, bugungi kunda ular barcha qit’alarda, turli davlatlar va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarda namoyon bo‘lmoqda. Axborot urushlarining tabiati shundan iboratki, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy to‘qnashuvlarsiz ham jamiyat ongiga ta’sir etish, davlatning ichki barqarorligini izdan chiqarish, yoki uning tashqi siyosatiga ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi. Bu esa axborot va kommunikatsiya vositalarini nafaqat xabar tarqatish, balki jamiyatni boshqarishdagi strategik qurol sifatida qo‘llashga zamin yaratmoqda.

Ta’kidlash lozimki, mazkur holat faqatgina texnologiyaning o‘ziga bog‘liq emas. Biroq axborot bilan qanday muomala qilishimiz, uni qanchalik tez va samarali tarzda qayta ishlab, tarqata olishimiz — bu, shubhasiz, zamonaviy kommunikativ texnologiyalarning mavjudligi va rivojlanganligiga bog‘liqdir. Shu bois, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining vazifalari va ularning mohiyatini chuqur anglash zaruriyati tug‘iladi. Chunki bu funksiyalar — axborotni qabul qilish, uzatish, saqlash hamda qayta ishlash bilan bog‘liq barcha faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi.

Hozirgi davrda axborot urushlari nazariyasining ildizlarini so‘nggi yuz yillik mobaynida faol rivojlanib kelayotgan amaliy tajriba va nazariy yondashuvlar asosida ko‘rish mumkin. Axborot urushlarining g‘oyaviy asoslari, ayniqsa, ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladigan targ‘ibot jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Bu sohadagi ilk ilmiy tadqiqotlardan biri AQShlik siyosatshunos va kommunikatsiya muhaqqiqi G. Lassuel tomonidan olib borilgan. U o‘z ishlarida Birinchi jahon urushi paytida qo‘llanilgan targ‘ibot texnologiyalari misolida ommaviy axborot vositalarining jamiyatga bo‘lgan ta’sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan edi [1].

G. Lassuel o‘z tahlillarida «atomistik kommunikativ yondashuv»ni ilgari suradi. Bu yondashuv ommaviy kommunikatsiyani tahlil qilishda omma ichidagi alohida individlarni inobatga olishga asoslanadi. Uning ta’rificha, omma — bu umumiy aqliy idroksiz, tarqoq va uyushmagan odamlar to‘plami bo‘lib, ularning faoliyati asosan umumiy (primitiv) instinktlar bilan boshqariladi” [2]. Psixoanaliz asoschisi Freydning izlanishlariga tayanadigan Lassuel, insonning ichki instinktlari turli bo‘lgani bois, ommaviy ongni nazorat qilish mushkulligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, harbiy muammolar

davrida targ'ibot tezda dolzarblashadi va ommani harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Lassuelning xulosalariga ko'ra, ommaviy targ'ibot zamonaviy dunyoda yangi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. U bunday targ'ibotni shunday ta'riflaydi: "Millionlab insoniy mavjudotlar yagona psixik mexanizm vositasida qayta ishlangan axborotlar orqali umumiy nafrat, iroda va umidlar atrofida birlashadi" [3]. Uning fikricha, targ'ibotning asosiy vazifasi — "ijtimoiy timsollar orqali jamoatchilik fikrini nazorat qilish"dir. Bu esa odamlarni umumiy dushmanga qarshi yagona maqsad sari birlashtirish va safarbar etishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ommaviy kommunikatsiya ta'siri "sehrli o'q" nazariyasi orqali izohlanadi [4]. Bu nazariyaga ko'ra, turli individuallar ayni bir axborot ta'siri ostida o'xshash instinktlar va xulqiy munosabatlarga ega bo'lib, o'xshash reaksiyalar ko'rsatadi. Bunday jarayonda jamiyatning har bir a'zosi o'z ulushini his etadi va bu natijada yagona ijtimoiy ta'sir to'lqinlari paydo bo'ladi. Umuman olganda, Lassuelning xulosasiga ko'ra, "targ'ibot — **bu siyosat va qurolning bir turidir"** [5].

Konseptual nuqtai nazardan qaralganda, har qanday davlat o'z strategik maqsadlariga erishish, manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish uchun axborotga ega bo'lishga intiladi. Axborotdan bunday foydalanish va uni muhofaza qilish jarayonlari, asosan, iqtisodiy, siyosiy va harbiy sohalarda amalga oshiriladi.

Davlatning raqib yoki dushman to'g'risidagi axborotga ega bo'lishi uning qudratini oshirish, raqib tomonning salohiyatini susaytirish yoki unga qarshi samarali choralar ko'rish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, bunday axborotlar davlatning milliy qadriyatlari, axborot xavfsizligi va strategik manfaatlarini himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Axborot quroli muayyan davlatning dushmani egallagan axborotga hamda uning axborot funksiyalariga qarshi ta'sir o'tkazishga qaratilgan. Shu bilan birga, bu davlatning o'ziga xos axborot funksiyalari himoyalanadi, natijada dushman irodasi zaiflashadi yoki unga qarshi kurashish imkoniyatlari kamayadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot urushiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: bu — bir davlatning dushmanga tegishli axborot va axborot funksiyalaridan foydalanishini buzish, soxtalashtirish va shu kabi harakatlar orqali o'z axborot resurslari hamda shaxsiy harbiy axborot funksiyalarini himoya qilishga qaratilgan har qanday faoliyatdir.

Bu ta'rifdan esa quyidagi xulosa chiqarish mumkin: axborot urushi - axborot funksiyalariga qarshi har qanday vositadan foydalanish asosidagi har qanday hujumdir. Axborot urushi - har qanday vositalardan foydalangan holdagi biron-bir davlatning o'z shaxsiy axborot funksiyalarini himoya qilish maqsadlaridagi xatti-harakatlardir. Shuningdek, axborot urushi - oxirgi maqsad emas, balki bir vositadir [6].

Hozirgi davrga kelib axborot urushining quyidagi tarkibiy qismlari aniqlangan:

1. Psixologik operatsiyalar – dushman jamiyati ongiga ta'sir ko'rsatish orqali uning ruhiy barqarorligini izdan chiqarish, norozilik kayfiyatini uyg'otish va aholini o'z hukumatidan yuz o'girishga undash.

2. Elektron urush – dushman axborot infratuzilmasini izdan chiqarish, radioelektron qurilmalar, aloqa tizimlari va raqamli tarmoqlarga xalaqit berish yoki ularni nazorat qilish.

3. Dezinformatsiya (yolg'on axborot tarqatish) – o'z maqsadlarini yashirish, raqibning harakatlariga xalaqit berish, yolg'on ma'lumotlar orqali uning xatoli qarorlar qabul qilishga undash.

4. Jismoniy buzish – axborot tizimlarining texnik elementlariga qarshi qilingan hujumlar: serverlarni izdan chiqarish, aloqa kanallarini o'chirish, internet markazlarini faoliyatsiz holga keltirish kabi harakatlar.

5. Axborot xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari – o'z axborot tizimlarini himoya qilish, raqib niyatlarini fosh etish va profilaktik harakatlar orqali raqibning axborot ta'sirini cheklash.

6. Axborot hujumlari – axborot tarmoqlari orqali buzilgan, tahrirlangan yoki maxsus tarzda tuzilgan ma'lumotlarni raqib jamiyatiga yetkazish orqali uning fikrlash tarzini o'zgartirish.

Bularning barchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladi. Xususan, internet, televideniye, radio, mobil aloqa va ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonlarda asosiy qurol sifatida xizmat qilmoqda.

Hozirgi davrda axborot urushlarining asosan uchta maqsadi mavjud:

-biron-bir davlatning foydalana olishi, harbiy axborot funksiyalarini dushmandan himoyalash maqsadlarida axborot makonlarini nazorat qilish;

-dushmanga axborot hujumini amalga

oshirish uchun axborot ustidan nazorat qilishdan foydalanish;

-harbiy axborot funksiyalaridan har tomonlama foydalanish yordamida o‘z qudrati va qurolli kuchlarining umumiy samaradorligini oshirish.

O‘tgan asrning o‘rtalarigacha asosiy kommunikatsiya sifatda radio axborot urushining qudratli quroli bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib bu sohada TV yetakchilik qilmoqda. Buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

-tomoshabin tomonidan olinayotgan axborot obrazli xarakter kasb etadi va barcha xonadonlargacha kirib bora oladi;

-teleko‘rsatuvlar tomoshabinlar qabul qilishi uchun oddiy ko‘rinishda bo‘lishi (buning uchun savodli bo‘lish ham shart emas);

-axborotning aksariyat qismini tomoshabin ko‘zi bilan ko‘rib qabul qiladi [7].

Hozirgi davrda axborot urushlarini olib borishda axborot kommunikatsiya biznesi nihoyatda katta qudrat va salohiyatga egalik qilmoqda. Keyingi bir asrda bu sohani monopoliya qilish jarayonlari kuchaydi. Ular quyidagilardan iborat:

-xalqaro axborot televizion agentliklar;

-OAV sohasidagi magnatlar.

Axborot kommunikatsiyalarini tarqatuvchi Xalqaro axborot agentliklari hozirgi davrga kelib transnatsional strukturalarga ega bo‘lib, axborot to‘plash, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha yirik tashkilotlarga aylandi. Bular jumlasiga “Reyter”, “Assoshieyted Press”, “Cable News Network” (CNN) kabi xalqaro axborot agentliklarini kiritish mumkin.

“Axborot portlashi” tranzistor radio qabul qiluvchilar va Yerning sun’iy yo‘ldoshi kashf qilinishi, xalqaro tele ko‘rsatuvlar boshlanishi bilan boshlandi. 2020-yilga kelib Internetga ulangan tedevizorlar soni jahonda 876 mln.ga yetdi (2015-yilda 415 mln.ta edi). Smart TV qnday ulanish usulidan qat’iy nazar har qanday videoni tamosha qilishning universal vositasiga aylandi [8].

M.Maklyuen aytganidek, dunyo “global qishloq”qa aylanib bormoqda. Ted Terner tomonidan 45 yil ilgari tuzilgan CNN teledasturini bir vaqtning o‘zida barcha mamlakatlarda yuz millionlab odamlar ko‘rib, dunyodagi barcha voqea va hodisalardan bir necha soat ichida xabardor bo‘lmoqda.

Shuningdek, axborot kommunikatsiyasining globallashuvi jarayonlari milliy madaniyatlarni tekislab, milliy chegalarni buzish xavfini ham keltirib chiqarmoqda. Zararli axborotlarni tarqatish, pulga sig‘inish, kuch ishlatish, tashkillashgan jinoyatchilik, narkobiznes kabilarni ko‘payishiga ham axborot kommunikatsiyasining globallashuvi sabab bo‘lmoqda. Lekin, bir narsa aniqki, XXI asr globallashuv asri bo‘lib, hayotning barcha sohalarida - iqtisodda, savdoda, fan va texnikada axborot inqilobi mazkur sohalarni rivojlantirishning muhim va asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib qoladi.

Axborot-kommunikatsiya makonlarining paydo bo‘lishi oqibatida bu kengliklarni bo‘lib olish, nazorat qilish, undagi jarayonlarni boshqarish uchun kuchli raqobatchilikni ham keltirib chiqardi. Ana shu maqsadlarda axborot kommunikatsiyasi qurolidan foydalanish avj olmoqda va u asosan axborot o‘g‘irlash, buzib ko‘rsatish, yo‘qotib tashlash, himoyalash tizimlarini cheklash, qonuniy axborotdan foydalanuvchilar imkoniyatini cheklash, texnika vositalari va kompter tizimi ishini izdan chiqarish vositasiga aylandi.

Hujumkor axborot kommunikatsiyasi qurollariga quyidagilar kiradi:

-kompyuter viruslari;

-logik bombalar (dasturiy qo‘yilmalar);

-telekommunikatsiya shoxobchalaridagi axborot almashuv vositalarini yo‘qotib tashlash, davlat va harbiy boshqaruv kanallaridagi axborotlarni soxtalashtirish yoki buzib ko‘rsatish;

-test dasturlarini neytrallash vositasi;

-obyektni dasturiy ta’minlashga ataylab turli xatoliklarni kiritish.

Axborot kommunikatsiyasi quroli – bu axborotdan foydalanishning o‘zi va harbiy va fuqaroviy kibernetik tizimlarga ta’sir qilish uchun yaratilgan axborot texnologiyalaridir. Axborot qurolining ustunligi shundaki, u boshqa qurollar turlariga nisbatan ancha arzondir. Axborot qurolini qo‘llash vazifasi shundaki, u dushmanga o‘z axborot vositalarini, jumladan, texnikaviy vositalarni ham o‘ziga qarshi qaratishiga yordamlashishdir.

S. Lem o‘zining “Fiasko” nomli romanida axborot kommunikatsiyalari urushining rivojlanish jarayonini quyidagicha tasvirlaydi:

1. Noma’lum bir sayyorada qurol-yarog‘ vositalarining rivojlanishi shunday holatga olib keladiki, urush arsenallarining qo‘llanilishi butun biosferani halokatga uchratishi mumkin

bo‘ladi. Bunday sharoitda o‘zaro adovatda bo‘lgan tomonlar uchun raqobatni davom ettirish aqlsizlikdan boshqa narsa emas.

2. Kuch ishlatish o‘rniga, dushman tomonning aloqa va boshqaruv tizimlari ustidan nazorat o‘rnatish muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

3. Dushmanni kuch ishlatish imkoniyatidan mahrum etish — uni vaziyatni samarali boshqarish va o‘z vaqtida qaror qabul qilish imkoniyatidan ham mahrum etish demakdir.

S. Lem shunday xulosa qiladi:

“Hech kim o‘zini o‘zidan ajratib, qo‘mondonlik qilishdan voz kechmaydi. Bu — “oyna samarasi” deb ataladigan hodisadan kelib chiqadi. Agar ikki dushman tomon bir-biri bilan aloqasini uzishga intiladigan bo‘lsa, natijada ularning har biri o‘zini ham xuddi shunday jazolaydi. Ballistik snaryadlarning aniqligi va quvvati bo‘yicha musobaqa o‘rniga, endi aloqani saqlab qolish uchun kurash boshlanadi. Avval boshda vayron qilish vositalari orqali qo‘rqitish usuli ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichda haqiqiy kommunikatsiyalar urushi yuzaga chiqadi. Aloqani yo‘q qilish yoki saqlab qolish uchun kechadigan bu to‘qnashuvlarda, harchand qurolli to‘qnashuvlar va qonli qurbonlar bo‘lmasada, jangning o‘zi aniq voqelikka aylanadi. Asta-sekin dushman tomonlar radiokanallarni shovqin va g‘ovg‘alar bilan to‘ldirish orqali nafaqat dushman, balki o‘z qurol-yarog‘lari va harbiy tayyorgarligi ustidan ham nazoratni yo‘qotadilar” [9].

Hodisalarning bunday rivojlanishi qurollarni shaxsiy intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Agar ular masofadan turib boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, boshqacha yo‘l tutishi mumkinmi?»Yaqin durang» holatini oldindan sezib turgan har bir tomon shunday qurollar yaratishga kirishadiki, ular dastlab avtonom taktik xususiyatga ega bo‘ladi, keyin esa strategik qurollar vujudga keladi.Natijada harbiy vositalar o‘z ishlab chiqaruvchilari, operatorlari va qo‘mondonlik markazlaridan mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Ammo, yangi turdagi qurollarni qo‘llash, baribir, global xavf tug‘diradi. Shu bois, ularni nisbatan xavfsiz tarzda ishlatish uchun bu qurollarning maqsadi, shakli va mazmunini qaytadan ko‘rib chiqish, ya’ni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi.»Agar bunday qurolning asosiy vazifasi dushmanning o‘xshash qurolini yo‘q qilishdan iborat bo‘lsa, har qanday soha yoki maydondagi to‘qnashuv cho‘ldagi yong‘in singari keng yoyilib ketadigan urushga sabab bo‘lishi mumkin. Bu esa ulkan kuchlar o‘rtasida global zarbalar almashinuviga olib kelib, halokat bilan yakunlanadi. Shu sababli bunday qurollar o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnashmasligi lozim. Ular faqat bir-biriga tahdid qilib, po‘pisa sifatida xizmat qilishi mumkin. Agar bir-birini yo‘q qilsalar, bu hujum an’anaviy bomba kabi emas, balki mikroblar singari vahshiy, yashirin usulda amalga oshiriladi. Bunday qurollarning “mashinaviy aqli” dushman qurolini “dasturiy mikroviruslar” deb ataluvchi vositalar orqali bo‘ysundirishga intiladi [10].

Albatta, axborot kommunikatsiyalari urushiga doir yuqorida keltirilgan tahlillar rivojlangan mamlakatlar olimlarining nazariy qarashlari hosilasidir. Boshqacha aytganda, g‘arbdagi axborotga doir tadqiqot olib borayotgan olimlarning o‘zi ham axborot urushlarining “kirdikorlari”ni, ulardagi hiyla-nayranglarni har tomonlama ochib tashladilar.

Axborot qurolining ustunligi shundaki, u boshqa qurollar turlariga nisbatan ancha arzondir. Axborot qurolini qo‘llash vazifasi shundaki, u dushmanga o‘z axborot vositalarini, jumladan, texnikaviy vositalarni ham o‘ziga qarshi qaratishiga yordamlashishdir.

Keyingi yillarda O‘zbekiston davlatining tashqi siyosat sohasidagi faoliyati, “demokratiyani eksport qilish”ga nisbatan tanqidiy yondashuvi, ba’zi “hukmbardor” davlatlarni mamlakat ichki ishlariga aralashishiga yo‘l qo‘ymaganligi, MDH va Osiyodagi davlatlar bilan yaqinlashish jarayonlari g‘arb davlatlari va AQShdagi ba’zi siyosiy kuchlarning bizga qarshi axborot xurujlarini kuchaytirishlariga sabab bo‘ldi. Albatta, bu jarayonlarda ular o‘zlarining strategik va milliy maqsadlaridan kelib chiqmoqda. Masalan, AQSH siyosatshunosi Zbignev Bjezinskiy fikri bilan aytganda, “AQSH Markaziy Osiyoda o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishi uchun boshqa kuchli davlatlar va bu masalada o‘ziga qarshi davlatlar bilan raqobatga kirishmoqda” [11]. Buyuk Britaniya davlatidagi ba’zi siyosatdonlar AQShning bu sohadagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlamoqda. Shuningdek, g‘arbdagi ba’zi siyosiy kuchlar ham Markaziy Osiyoda O‘zbekiston davlatining muhim geosiyosiy mavqega egaligi, shuningdek, bu mintaqadagi o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, bizning shimol va sharqdagi davlatlar bilan yaqinlashish jarayonlariga nisbatan axborot

urushlarini kuchaytirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat hokimiyati tepasiga kelganidan keyin O‘zbekiston davlati tashqi siyosatining faol jarayonlari butun jahonga o‘zining tinchlikni saqlashga, siyosiy barqarorlikka intilayotganligini namoyish qilmoqda. O‘zbekiston tashqi dunyoga ochildi. O‘zbekiston davlat rahbari mintaqada birinchi bo‘lib terrorizm va ekstremizm tahdidi haqida ogohlikka da’vat qilgan edi. Mamlakat rahbariyati bir necha marta BMT doirasida, g‘arb mamlakatlari, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda terrorizm va ekstremizm tahdidga qarshi izchillik bilan kurash olib borish tashabbusi bilan chiqdi. Keyingi yillarda O‘zbekiston davlati tashabbusi bilan terrorizm va ekstremizmga qarshi ko‘plab hamkorlik shartnomalari va bu terrorizm tahdidlariga qarshi kurash markazlari tuzildi.

O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, vijdon erkinligiga doir huquqiy asoslar yildan-yilga takomillashib bormoqda. Dunyoviy davlat qurish, fuqarolik jamiyati qurish mamlakatning asosiy strategik pirovard maqsadi bo‘lib, bu sohadagi islohotlar taboro chuqurlashib bormoqda. Boshqa davlatlar bilan hamkorlikda xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash faoliyatida O‘zbekiston davlati eng oldingi o‘rinlarda bormoqda.

2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” davlat deb belgilab qo‘yilgan. Demak, endi biz dunyoviy davlatda yashamoqdamiz.

Ekstremizm va terrorchilik aktlari o‘tkazishdan manfaatdor kuchlardan biri, bu xalqaro qurol-yarog‘ biznesi bilan shug‘ullanuvchi turli kriminal guruhlardir. Shuning uchun ham ular Markaziy Osiyo hududida doimo ziddiyatlar va axborot urushlari uyushtirib turishga urinadi. Chunki, birinchidan, qurol-yarog‘lar chegaralardan yashirin ravishda o‘tkazilishi lozim, ikkinchidan esa, qurol-yarog‘ xaridorlarining katta qismini ekstremistlar va terrorchilar tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zining kuchli kommunikatsiya vositalariga ega bo‘lgan davlatlar o‘zlarining tashqi siyosatida, dunyoni o‘z ta’sir doiralariga bo‘lib olish uchun avvalambor, axborot urushlarini avj oldiradilar. Garvard universiteti professori Dj.Nay tomonidan ta’riflangan “harbiy kuch – qudratning asosiy vositasi” [12], qoidasidagi “harbiy kuch” so‘zi yoniga “kuchli va mukammal axborot kommunikatsiyasi” degan jumlani ham qo‘shib qo‘yishga zaruriyat sezilmoqda. Keyingi yarim asr ichida axborot kommunikatsiyalari davlatlar ichki siyosati jarayonlarining bir qismi sifatida rivojlanish bosqichidan keyingi bosqichga – ya’ni, davlatlarning tashqi siyosati jarayonlarining faol ishtirokchisi bo‘lish darajalarini egalladi. Shuning uchun ham o‘z o‘tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish, mustaqillikni mustahkamlash, xalqni vatanparvarlik va faollik ruhida yuksaltirish vazifalarini bajarishda axborot kommunikatsiyalari muhim o‘rin tutadi. Kuchli axborot kommunikatsiyalari tomonidan olib borilayotgan axborotlar urushiga dosh berolmaslik yoki ularga munosib tarzda javob berolmaslik davlat milliy xavfsizligi tahdid solishi turgan gap. Shuning uchun ham har bir davlatning zamonaviy va rivojlangan axborot kommunikatsiyalariga ega bo‘lishi mamlakat mudofaa qobiliyatining mustahkamligini ifodalovchi omillardan biriga aylandi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi davrga kelib axborot urushlar axborot kommunikatsiyasi sifatida nihoyatda kuchaydi. Axborot urushlari qonli urushlarda hal etilmagan natijalarga erishishga qodir ekanligini ko‘rsatmoqda. Axborot urushlaridan asosan o‘tish davrini o‘z boshidan kechirayotgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar aziyat chekmoqda. Chunki, bu mamlakatlar axborot urushi olib borish yoki undan himoyalanish uchun zamonaviy va takomillashgan AKT hamda uning infratuzilmalariga ega emas, ko‘p sonli va malakali jurnalistlar korpusini moliyalashtirish salohiyatiga ega emas. Shuning uchun axborot urushlari sharoitida bu kabi mamlakatlar uchun betaraflik siyosatini olib borishdan boshqa yo‘l yo‘q.

Аннотация. В условиях современной глобализации информационные войны становятся важным инструментом геополитического соперничества между государствами. В этом процессе стратегическими целями выступают воздействие на широкие массы через быстрые коммуникационные каналы, управление общественным сознанием и контроль над потоками информации. В результате развития информационных технологий войны

ведутся не только с применением оружия, но и на виртуальных платформах. Особенно возможность стремительного распространения данных через социальные сети, онлайн-СМИ и мобильные приложения повышает эффективность информационных войн. Поэтому изучение информационных войн как неотъемлемого компонента современных процессов быстрой коммуникации приобретает актуальное значение.

Ключевые слова: информационная война, холодная война, коммуникация, капитализм, бывший союз, психологическая операция, электронная война, дезинформация, Smart TV, экстремизм.

Annotation. In the context of today's globalization, information wars are becoming an important tool of geopolitical competition between states. In this process, influence on the general public through fast communication channels, control of social consciousness and control of data flow have become the main strategic goals. As a result of the development of information technology, wars are now being fought not only with weapons, but also on virtual platforms. In particular, the ability to quickly disseminate information through social networks, online media and mobile applications is increasing the effectiveness of information wars. Therefore, the study of information wars as an integral component of modern rapid communication processes is of urgent importance.

Key words: information war, Cold War, communication, capitalism, former alliance, psychological operation, electronic warfare, disinformation, Smart TV, extremism.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Klapper J. The effects of mass communication.-N.Y.:Free press,1960.-P.33.
2. Лассуэлл Г. Техника пропаганды в мировой войне. М.; Л.: Изд-во военной полит. лит., 1929.// https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_008479520/.
3. Бакулев Г.П. Теории пропаганды: классики // Ученые записки Российского государственного социального университета. 2013.Т.2. № 3. -С.18–19.
4. Лассуэлл Г. Техника пропаганды в мировой войне. М.; Л.: Изд-во военной полит. лит., 1929.// https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_008479520/.
5. Вирен Г. Современные медиа. Приемы информационных войн.-М.:Аспект Пресс, 2013.-С.110.
6. Қаранг: Казеннов В. Основы ведения информационной войны.// kvn@win.wplus.net_21.
7. Расторгуев С.П. Очень краткая лекция по теории информационной войны.//http://pms.orthodoxy.ru /abort/mr /books /history/library/infowar.htm._11.
8. Лизан И. Экономика голубого экрана// https://www.sonar2050.org/publications/ekonomika-golubogo-ekrana/
9. Лем С. Фиаско.Роман.-М.,1986.-Б.181-182.
10. Ўша жойда.-Б.183-184.
11. Қаранг: Бжезинский З.Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. -М.: Мждунар. отношения, 1999.-Б.168 ва 178.
12. Қаранг: Фельдман Д.М. Конфликты в мировой политике. -М.: Междунар.Университет Бизнеса и Управления, 2007. -Б.62.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТЬЮ МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Тен Виктор Робертович,
Сотрудник секретариата Совета безопасности при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы совершенствования нормативно-правовой базы в передовых странах Западной Европы и Республике Узбекистан, степень и анализ проблематики в существующих законодательных актах, регламентирующих безопасность массовых мероприятий, полемические взгляды на перспективу обновления документов с учетов развития цифровизации в обществе.

Ключевые слова: изменения и дополнения в некоторые нормативно-правовые акты, научные исследования зарубежных экспертов, реформы, зарубежный опыт, форма и способы решения, проблематика существующего законодательства, новые стандарты и подходы к совершенствованию правовых основ при организации массовых мероприятий.

В последние десятилетия массовые мероприятия стали неотъемлемой частью культурной, политической и социальной жизни многих стран. Они способствуют укреплению общественной солидарности, развитию демократических институтов и формированию национальной идентичности. Вместе с тем, массовые мероприятия представляют собой источник потенциальных угроз безопасности, что делает необходимым разработку, обновление и совершенствование нормативно-правовой базы, регулирующей их организацию и проведение. В условиях глобализации, технологической трансформации и роста общественной активности вопросы юридического обеспечения безопасности массовых мероприятий приобретают особую значимость как на национальном, так и на международном уровнях [1].

В современном мире нормативно-правовая база выступает фундаментом для обеспечения правомерного, безопасного и прозрачного процесса проведения массовых мероприятий. В условиях интенсивных реформ в социальной и экономической сферах, а также стремительного внедрения новых технологий, существующие правовые нормы зачастую не успевают адаптироваться к вызовам современности. Это приводит к пробелам в регулировании, недостаточной защите участников и снижению эффективности управления рисками [2].

Мировые эксперты в области правового обеспечения безопасности массовых мероприятий подчеркивают необходимость системного подхода и совершенствования законодательства.

В данном контексте, профессор права университета «Хайдельберга» К. Мюллер отмечает, что отсутствие единых правовых стандартов в странах Евросоюза создает препятствия для трансграничной координации мероприятий и затрудняет защиту участников в случае чрезвычайных ситуаций [3]. Американский исследователь Р. Тэйлор подчеркивает, что в США, несмотря на развитую практику организации крупных событий, отсутствует федеральный стандарт по управлению массовыми мероприятиями, что приводит к разночтениям в правоприменении [4]. В свою очередь, представители ООН и ОБСЕ настаивают на необходимости учитывать права человека как основу при создании любых правовых механизмов, направленных на безопасность публичных собраний [5].

Современные массовые мероприятия сопровождаются рядом новых рисков. Это, прежде всего, применение беспилотных летательных аппаратов, систем видеонаблюдения с элементами искусственного интеллекта, цифровых средств идентификации и управления потоками людей. Также в условиях пандемий и других эпидемических угроз возникают требования к правовому регулированию санитарных норм и ограничительных мер. Эти процессы требуют постоянного обновления правовых механизмов и их соответствия стандартам [6].

Массовые мероприятия, в особенности

Annotation. This article will examine the scientific theoretical aspects of the concept of unmanned aerial vehicles, the practice of their use, the application of today's developed countries in the field of ensuring security, including public security, the study of the experience of foreign countries in the use and application of unmanned aerial vehicles in the provision of Public Safety and public order..

Key words. Drones, public order and public safety, public disorder, drone targeting, winged drones, intelligence drones, hybrid drones, intelligence and surveillance

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Смирнов В.М., Ковалева Д.А. Использование беспилотных летательных аппаратов для обеспечения безопасности на объектах транспорта. // Использование беспилотных летательных аппаратов для обеспечения безопасности на объектах транспорта – тема научной статьи по праву читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка

2. Шарапиддинов Б.Б. Учувчисиз учиш аппаратларини терроризмга қарши курашда қўлланилиш тенденцияси (хориж тажрибаси АҚШ) //“Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасида юзага келаётган муаммолар ва уларнинг ечимлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами.

3. Ўзбекистон Республикасида учувчисиз учадиган аппаратлардан фойдаланишни тартибга солиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги Вазирлар махкамаси Қарори. 2022 йил 15 ноябрдаги 658-сонли.

4. Акимов А.Б. Жамоат хавфсизлигини таъминлашда техника воситаларини қўллашнинг ўзига хос жиҳатлари. Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.723.

5. Зажицкий В.И. О направлениях совершенствования Уголовно процессуального кодекса Российской Федерации //Государство и право.-2004.№6, -С.28-35.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INSON-JAMIYAT-DAVLAT MANFAATLARI UYG‘UNLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

ZULFIQOROV Sherzod Xurramovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada konstitutsiyaviy rivojlanish tarixi, yangi konstitutsiyaviy islohotlar, huquqiy davlatning muhim belgilari, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, parlament rolini kuchaytirish, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatini erkinlashtirish, advokatlik instituti rolini oshirish kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, huquq, majburiyat, jamiyat, davlat, vakolat,modernizatsiya, qonun, budjet.

Har bir mamlakatda fuqarolar olib borilayotgan konstitutsiyaviy huquqiy islohotlarga o‘z qarashlarini, fikr va mulohazalarini erkin bildirishlari tabiiy. Qayd etish lozimki, konstitutsiyaviy yangilanishlarga hamma ham birdayin munosabatda bo‘lishmaydi, ba’zilar xayrixoh, ba’zilar esa e’tirozli fikrlarini ilgari surishmoqchi bo‘lishadi. Darhaqiqat, har kimning zikri, fikri o‘zgacha. Hozirgi kunning dolzarb masalasi ham yangi tahrirdagi konstitutsiyaning kelgusidagi amalda ijrosi qanday bo‘lar ekan, degan turli fikrlar maydoni bilan boyigan desak yangilishmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya nima uchun kerak, tabiiy savol tug‘iladi?- Konstitutsiya orqali davlat o‘z boshqaruvini yengillashtiradi, ya’niki inson, jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlar umumlashadi hamda huquqiy tartibga solinadi.

Nazarimizda, Konstitutsiya doimiy o‘zgarishda, yangilanishda bo‘lishi lozim. Agarda u hayotiy munosabatlardan ortda qoladigan bo‘lsa, o‘zining yuridik kuchi va ta’sirini ham yo‘qotadi. Darhaqiqat, har bir fuqaromiz bilishi lozimki konstitutsiya uning hayotida to‘siq bo‘ladigan muammolarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri hal qiladigan, uning huquq va erkinliklarini ta’minlab beradigan, uning haqiqiy ma’noda huquqiy himoyachisi bo‘ladigan Asosiy qonun ekanligini anglashlari lozim. Konstitutsiyadan eng avvalo, har bir fuqaroning o‘zi bevosita manfaatdor ekanligi, uning har bir qoidasini bilishi va tushunishi kelajakda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlarni yengib chiqishida asosiy ko‘makchi bo‘lishini his qilishlari lozim.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, dunyo Konstitutsiyalari doimiy yangilanishlar mavjida rivojlanib boradi, muhim hayotiy munosabatlarni, insonlarning yangi huquq va majburiyatlar tizginini tartib solib boradi. Shu o‘rinda, AQSH Mustaqillik deklaratsiyasi asoschilaridan biri Tomas Djeffersonning qiziq bir mulohazasi diqqatimizni e’tiborga tortadi, ya’ni uning taxminicha har 19 yilda konstitutsiyalar o‘zgarishi kerak, negaki shu vaqt orasida qariyb aholining yarim qismi yangilanadi va amaldagi konstitutsiya uning qiziqishlarini to‘liq qamrab ololmaydi. Nima deya baholaysiz, xulosa chiqarish o‘zingizdan!

Ta’kidlash lozimki, yigirma birinchi asrda Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston, Misr, Venesuela, Rossiya, Boliviya kabi bir qancha davlatlarda ham yangi konstitutsiyalar, ham tegishli amaldagi konstitutsiyalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Ta’kidlash joizki, Konstitutsiyamiz 1992 yilda qabul qilinganidan buyon unga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarning qariyb barchasi asosan **davlat va jamiyat qurilishi,** jumladan Parlament, Prezident, Hukumat faoliyati, saylov tizimi, mahalliy boshqaruv, sud va boshqa organlar faoliyatiga taalluqli bo‘lgan.

Qayd etish lozimki, joriy yilning 30 aprel sanasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekiston tarixida ilk bora referendum yo‘li bilan qabul qilindi. Ya’niki, demokratiyaning eng yuqori ko‘rinishi bo‘lmish referendumda xalq o‘z xohish irodasini o‘zining ovozini berish orqali namoyon etdi. Darhaqiqat, Konstitutsiyaning moddalari amaldagi 128 tadan 155 taga ko‘payib, normalari 275 tadan 434 taga oshgani, ya’ni, Asosiy qonunimizning 65 foiz matni xalqimiz takliflari asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qilinganligini ham alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb o‘ylayman.

O‘z navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan **normalarning yarmidan ko‘pi insonning huquq va**

erkinliklarini himoya qilishning kafolatlarini kuchaytirish va mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilganligini, davlatning xalqimiz oldidagi majburiyati 3 barobarga oshganligini e’tirof etish zarur hisoblanadi.

Davlatning asosiy o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlaridan biri ham huquqiy mohiyatni maqsadga singdirishdir!

Alohida ta’kidlash lozimki, inson huquqlari va erkinliklari ishonchli himoyasining eng muhim kafolatlari sifatida **Konstitutsiya** va qonun **ustuvorligini** ta’minlashning **konstitutsiyaviy mexanizmlari** sezilarli darajada **mustahkamlandi.**

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **1-moddasida,** davlatning asosiy maqsadi yo‘nalishini ko‘rsatib beradigan norma keltirildi, ya’ni davlatning **huquqiy davlat** ekanligi[1]. **Huquqiy davlat** degani bu – Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan davlatdir. Huquqiy davlatda mansabdor shaxslar hokimiyatni xohlaganicha o‘zlashtira olmaydi, o‘zi bilganicha qarorlar qabul qila olmaydi. Bunda barcha davlat organlari faqat qonunda belgilangan vakolatlardan kelib chiqib harakatlanadi.

Huquqiy davlatda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qati nazar, qonun oldida tengligi ta’minlanadi. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat tushunchasining bevosita mustahkamlanganini kuzatishimiz mumkin. **Xususan, Rossiya, Ozarbayjon, Portugaliya, Qozog‘iston, Fransiya, Turkiya** kabi davlatlar konstitutsiyalarida huquqiy davlat, qonun ustuvorligiga rioya etish kabi qoidalar bevosita mustahkamlangan.

Huquqiy davlatning shakllanganini quyidagi belgilar bilan izohlashimiz mumkin:

birinchidan, konstitutsiya va qonunning ustunligi;

ikkinchidan, inson huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilish va ta’minlash;

uchinchidan, fuqaro va davlatning o‘zaro mas’ulligi;

to‘rtinchidan, amalda hokimiyatlar bo‘linish prinsipining ta’minlanishi;

beshinchidan, sudlarning mustaqilligi;

oltinchidan, huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajada ekani va boshqa belgilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Bizning nazarimizda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilangan, Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi va mamlakatning butun hududida qo‘llanilishi normasi huquqiy davlatning muhim va asosiy ko‘rinishlaridan biri desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlashi masalasi konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim va dolzarb vazifasi hisoblanadi. Negaki, konstitutsiyada mavjud bo‘lgan normalar jamiyatdagi muhim muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solsagina, inson manfaatlariga xizmat qilsagina, uning yuridik kuchi, ta’siri seziladi va e’tirof etiladi. Konstitutsiyaviy islohotlarning eng muhim maqsadlaridan biri ham xalqning konstitutsiyaga bo‘lgan ishonchini kuchaytirish hamda konstitutsiyaviy yo‘l bilan ularning hayotiy masala va muammolarini hal etishdir.

Konstitutsiyaning mamlakat hayotida bevosita amal qilishini uchta xususiyatga qarab baholashimiz mumkin.

birinchidan, fuqaroning konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklaridan to‘g‘ridan - to‘g‘ri foydalanishi;

ikkinchidan, barcha subyektlarning konstitutsiyada belgilangan talab va majburiyatlarga rioya qilishi;

uchinchidan, vakolatli davlat organlarining konstitutsiyaviy normalarini qo‘llashi va ijrosini ta’minlashi lozim, ayniqsa sud organlarining roli keskin kuchayishi lozim.

Bu esa, fuqarolarimiz uchun o‘z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; sudlar inson huquqlarini himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganda Konstitutsiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi; barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huquqlariga bevosita amal qilishi qoidasiga rioya qilish shartligi mas’uliyatini his qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida, fuqaro va davlat o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, insonning huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi, huquqiy ta’sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi, qonunchilikdagi noaniqlar inson foydasiga hal etilishi kabi muhim qoidalar tizimlashtirilgan holda belgilandi. Bu nihoyatda muhim qoidalar hisoblanadi, ya’ni inson huquq va erkinliklarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi, davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlari, mansabdorlar shaxslar tomonidan o‘z faoliyatida inson huquq va erkinliklarga rioya qilish va uni himoya qilish oliy maqsadga ko‘chayotganligi, so‘zimizning ayni isboti bo‘layotganligidan dalolat beradi.

Misol tariqasida, ***Germaniya Konstitutsiyasining 1-moddasida*** aytiladiki, quyida, ya’ni keyingi moddalarda sanab o‘tiladigan asosiy huquqlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati uchun bevosita amal qiladigan huquq sifatida majburiydir, deb belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, fuqarolarning asosiy shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarini nazarda tutadi[2].

Mazkur moddaga yangi normalar davlat organlari, mansabdor shaxslar qarorlari va faoliyatida qo‘llanilgan huquqiy ta’sir choralari ko‘zlangan qonuniy maqsadga erishish uchun mos va yetarli bo‘lishi hamda manfaatdor shaxslarga imkon qadar qiyinchilik tug‘dirmasligi, kimgadir ortiqcha majburiyat yoki xarajat yuklashi mumkin emasligi, insonlarga moddiy va ma’naviy ziyon yetkazilmasligini oldini olishga xizmat qiladi

Huquqiy davlatda barcha munosabatlar aniq qoidalar bilan tartibga solingan bo‘lishi kerak. Ammo hayotda shunday vaziyatlar yoki holatlar vujudga kelishi mumkinki, davlat va inson o‘rtasidagi ayrim munosabatlarning yechimi qonunchilikda ko‘rsatilmagan yoki noaniqliklarga sabab bo‘lishi aniq. Mana shunday holatlarda muammo kimning foydasiga va qanday tartibda hal etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday holatda yangi **tahrirdagi Konstitutsiyaning 20-moddasida** belgilanganidek, “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinadi”.

Deylik, Soliq kodeksining o‘zida muayyan bir masala yuzasidan turlicha norma belgilangan bo‘lishi yoki tadbirkorlikka oid bitta qonunda boshqa norma, ikkinchi qonunda boshqacha norma belgilangan bo‘lishi mumkin. Bunday nomuvofiqlikni, tabiiyki, soliq organi davlat foydasiga, fuqaro esa o‘z foydasiga talqin qilinishini xohlaydi. Konstitutsiyaga kiritilayotgan norma esa shunday nomuvofiqliklar davlat emas, inson foydasiga hal etiladi, degan qati normani aniq-ravshan mustahkamlamoqda.

Ilgarigi tahrirdagi Konstitutsiyamiz normalariga e’tiborimizni qaratsak, ko‘p qoidalar umumiy tarzda ifodalanganligini ko‘ramiz. Ya’ni, fuqarolarning o‘z huquqlarini amalga oshirishda, himoyalashda aniq belgilangan qoidalarni kamroq uchratish mumkin. Shu maqsadda ham, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga tegishli normalarni kiritishning hayotiy zarurati paydo bo‘ldi. Misol tariqasida, O‘zbekistonda o‘lim jazosini taqiqlash; “Miranda qoidasi”ni qo‘llash, ya’ni, shaxsni ushlash chog‘ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirilishi shartligi; shaxs sudning qaroriga qadar ko‘pi bilan qirq sakkiz soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi; inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi; mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish kabi yangi normalarni ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu normalar so‘zsiz, fuqaroning kunlik hayotida duch keladigan muammolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga qaratilgandir. Shu maqsadda ham mazkur muammolarning yechimini konstitutsiya darajada mustahkamlab qo‘yilishi, nihoyatda dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda sudlanganlik fakti nafaqat unga, balki uning oila a’zolari, qarindoshlari hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatish holatlari ba’zan uchrab kelmoqda edi. Hech bir holatda inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob berishi mantiqan oqlab bo‘lmaydigan holatdir! Shu maqsadda ham mazkur salbiy illatning oldini olish maqsadida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 28-moddasida, shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lmasligi kerakligi, qati belgilab qo‘yildi.

Yoki bo‘lmasa, ilgari propiska deganda ko‘pchiligimizning yodimizga ish topa olmagan va chet elga ketgan minglab malakali kadrlar, o‘z uylarini boshqa odamlarning nomlariga rasmiylashtirgan fuqarolar, propiska uchun tuzilgan soxta nikohlar, qonunni chetlab o‘tish bilan bog‘liq korrupsiya hodisalari keladi. Buning orqasida qanchadan qancha iqtidorli kadrlar o‘z qobiliyatini ko‘rsatolmay, o‘z kasbiy xohish istagidan chetda qolib ketgan. Shu maqsadda ham mazkur illatlar umuman bo‘lmasligini kafolatlash maqsadida ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy asoslarda bo‘lib turgan har bir shaxs respublika hududi bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash huquqiga egaligi belgilab qo‘yildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 47-moddasi ikkinchi qismi bilan uy-joy mulkdorlariga nisbatan 2 turdagi muhim

konstitutsiyaviy kafolat belgilandi: sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda teng qiymatda kompensatsiya olish kafolati. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi. Teng qiymatda kompensatsiya olish deganda mulkdorga olib qo‘yilgan mol-mulkka teng qiymatli mol-mulk berilishi va uning ko‘rgan boshqa zararlari to‘lanishi yoki mulk huquqi bekor qilinishi bilan yetkazilgan zarar to‘la hajmda qoplanishini tushunishimiz zarur. Demak, endi davlat istalgan tadbirkor yoki fuqaroning mulkini “snos” bahonasida buzishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat ehtiyoji uchun olinishi ko‘zda tutilgan hududlar esa mulk egasi rozi bo‘lgan va kompensatsiya to‘liq qoplab berilgandan keyingina buzilishi belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning beshinchi bo‘limida ham yangi normalar bilan uyg‘unlashgan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda:

Ta’kidlash lozimki, inson huquq va erkinliklari bilan ko‘plab normalar mustahkamlash mumkindir, ammo mazkur huquqlarni ta’minlash hamda kafolatlash albatta davlat organlarining zimmasiga katta mas’uliyat va javobgarlikni yuklaydi. Shu maqsadda, shunga mos tarzda davlat organlarining vakolat va funksiyalarini muvofiqlashtirish, kengaytirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu o‘zgarishlarni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’muriy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, parlamentning yuqori palatasi – **Senat modernizatsiya** qilindi, shuningdek parlamentning quyi palatasi – **Qonunchilik palatasining** vakolatlari kuchaytirildi. Ta’kidlash lozimki, bu normalar, Qonunchilik palatasi va Senatining mas’uliyati sohalarini ajratish, ularning faoliyatidagi parallellikni va bir-birini takrorlashni istisno etish maqsadida kiritildi. Ilgarigi tahrirdagi Konstitutsiyada Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari **5** ta vakolatdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, yangi tahrirdagi o‘zgarishlarga ko‘ra ularning soni **12** taga oshdi. Senatning mutlaq vakolatlari amaldagi **14** tadan **18** taga ko‘paydi. Mazkur o‘zgarishlarni quyidagi ba’zi bir misollarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va ma’qullash Qonunchilik palatasining mutlaq vakolati sifatida mustahkamlandi; Davlat budjeti ijrosini nazorat qilish; Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma’ruzasini eshitish; Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish to‘g‘risidagi hisobotini eshitish va boshqa vakolatlar **Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari** sifatida belgilandi. **Senatning huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, maxsus xizmatlar faoliyati ustidan** nazorat funksiyasi kuchaytirildi. Xususan, Bosh prokuror va Hisob palatasi raisi **Senat ma’qullaganidan keyin,** Davlat xavfsizlik xizmati raisi esa, **Senat bilan maslahatlashilgandan keyingina** Prezident tomonidan tayinlanish tartibi belgilandi.

Senat a’zolari soni 100 nafardan **65** nafargacha optimallashtirilib, ular **14** ta **hududdan** teng miqdorda **4 nafardan** Jo‘qorg‘i Kengesi va mahalliy Kengashlar majlislarida deputatlar orasidan saylanadi, Senatning **9 ta a’zosi** bevosita **Prezident tomonidan** tayinlanishi **va** boshqa yangi qoidalar shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, Hukumatning **Oliy Majlis va Prezident** oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish hisobiga Vazirlar Mahkamasining mas’uliyat va javobgarligi sezilarli darajada kuchaytirildi, Hukumatning maqomi o‘zgardi, parlament quyi palatasining Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki faoliyati kengaydi. Yangi tahrirdagi konstitutsiya normalariga ko‘ra, endilikda **Bosh vazir nomzodi** Prezident ko‘rib chiqishi uchun parlamentga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma bekor qilindi hamda mazkur qoida o‘rniga ilg‘or xorijiy amaliyotni inobatga olgan holda, Bosh vazir va Hukumat a’zolarini Qonunchilik palatasi ma’qullaganidan keyin Prezident tomonidan tayinlash tartibi o‘rnatildi.

Misol tariqasida, joriy yilning 31 iyul kuni Prezident farmoni bilan E’zozxon Karimova Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri etib tayinlandi. Farmon chiqqunga qadar, Prezident tomonidan nomzodi kiritilgan vazirlikka nomzod Qonunchilik palatasi deputatlari chig‘irig‘idan o‘tib, ma’qullangandan keyin Davlat rahbari farmoni bilan vazir etib tayinlandi.

Bu yerda, Bosh vazir nomzodi Prezident tomonidan quyi palatadagi barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng taklif etilishi belgilandi. Shuningdek, Hukumat zimmasiga **ijro etuvchi hokimiyat organlari** ishida **ochiqlik** va **shaffoflikni,** qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, davlat xizmatlarining sifati va qulayligini oshirish, aholini, shu jumladan

nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash vazifalari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlandi.

Alohida ta’kidlash lozimki, Konstitutsiyaviy islohotlarda muhim bir konseptual o‘zgarishga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, endilikda **viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari mahalliy Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi** to‘g‘risidagi norma qati belgilab qo‘yildi. Endilikda, mahalliy hududlarda ikkita alohida mustaqil tuzilmaga bitta shaxsning rahbarlik qilishiga konstitutsiyaviy jihatdan chek qo‘yilmoqda. Xabaringiz bor, 2024-yil oktabr oyida Mahalliy kengashlarga bo‘lib o‘tgan saylov yakunlaridan so‘ng, Toshkent shahar va viloyatlar Kengashlariga raislik qilish vakolati, deputatlar orasidan saylanadigan deputat raislik qila boshladi. Demak, 12 ta viloyat va Toshkent shahriga bu tartib yangi amaliyot sifatida qo‘llanila boshlandi.

Alohida e’tibor qaratish lozimki, 2023-yil 1-mayda qabul qilingan **“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 6-moddasiga ko‘ra,** tuman hamda shahar vakillik va ijro etuvchi davlat hokimiyati organlariga nisbatan mazkur tartib 2026-yil 1-yanvardan e’tiboran amalga kiritilishi belgilab qo‘yildi[3].

Uchinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 136-moddasida, sudyalar mustaqilligi, odil sudlov tizimini demokratlashtirishning konstitutsiyaviy asoslari Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim shartlari sifatida sezilarli darajada **mustahkamlandi.** Sudyalar daxlsiz va muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi, davlat sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligi ta’minlanishi belgilandi.

Alohida qayd etish lozimki, sudlarning faoliyatini moliyalashtirish faqat davlat **budjetidan amalga oshirilishi** hamda u odil sudlovni to‘liq va mustaqil amalga oshirish imkoniyatini ta’minlashi kerakligi to‘g‘risidagi norma mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudga **referendumga chiqarilayotgan masalalarning** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berishi vakolati belgilandi. Bu albatta, Konstitutsiyaviy sud faoliyatidagi mas’uliyatning oshayotganligidan dalolat beradi.

To‘rtinchidan, Ta’kidlash zarurki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga - **advokatura institutiga** bag‘ishlangan va **advokatlar faoliyatining kafolatlarini** mustahkamlovchi alohida ***XXIV bob*** bob kiritildi. Bu esa, kelgusida advokatlar faoliyatini mustaqil va erkin tarzda faoliyat olib borishini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qolaversa, advokat o‘z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning **faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi;** advokatga o‘z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta’minlanishi; advokat, uning sha’ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo‘ladi va qonun bilan muhofaza qilinishi kabi muhim qoidalar mustahkamlab qo‘yildi. Albatta, mazkur yangi kafolatlovchi normalar advokatlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi desak, yangilishmagan bo‘lamiz. Hozirgi kunda O‘zbekistonda **yetti mingdan ortiq advokatlar faoliyat olib bormoqda.**

Shuni alohida qayd etishimiz lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmonida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning barcha vazirlik va idoralar faoliyatida so‘zsiz ijrosini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi[4].

Bu Farmon asosida, davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash uchun shaxsan javobgarligi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llanishi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etish qatian taqiqlanishi belgilab qo‘yildi. Albatta mazkur vazifa va talablarning qo‘yilishi Konstitutsiyaning bevosita siyosiy, huquqiy, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Misol tariqasida, 2023-yil 23-iyundagi “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 16-son O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining qarorini alohida ko‘rsatib

o‘tish mumkin. Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan, 2024-yilda konstitutsiyaviy nazorat tartibida **70 ta qonun** va **218 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning** Konstitutsiyaga muvofiqligi o‘rganilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu konstitutsiyaviy o‘zgarishlar olib borilayotgan islohotlarning boshlanishi, eng muhimi bu yangi qoidalar inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tartibga solishda o‘z kuchi va salmog‘ini ko‘rsatishi lozim bo‘ladi. Qolaversa, xalqimizning konstitutsiyaviy islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada orttirib borish zarur. Demakki, konstitutsiyamizning tegishli normalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi, bu konstitutsiyamizning majoziy ma’noda kuchsizlanishiga emas, aksincha, konstitutsiyamizning yanada takomillashuviga, xalq manfaatlarining kafolatlanishiga hamda insonlarning hayotiy zarurati aks etishiga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются такие вопросы, как история конституционного развития, новые конституционные реформы, важные черты правового государства, гарантирование прав и свобод человека, усиление роли парламента, либерализация деятельности исполнительной власти, повышение роли института адвокатуры.

Ключевые слова: Конституция, закон, обязанность, общество, государство, власть, модернизация, закон, бюджет.

Abstract. The article examines such issues as the history of constitutional development, new constitutional reforms, important features of the rule of law, guaranteeing human rights and freedoms, strengthening the role of parliament, liberalizing the activities of the executive branch, and enhancing the role of the institution of advocacy.

Key words: Constitution, law, duty, society, state, power, modernization, law, budget.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 й. – Б.4.

2. Германия Конституцияси.https:// legalans.com> конституция – германии.

3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.05.2023 й., 06/23/67/0269 -сон.

SHARTNOMALAR KONSTRUKSIYALARIDA NEUSTOYKANING FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK SHAKLI SIFATIDA NAMOYON BO‘LISHI

Odinayev Adham Sa’dulloyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘ining o‘rinbosari v.b.,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganligi uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida neustoykani qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy va amaliy jihatlari, sohaga oid xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va xalqaro hujjatlar tahlil qilinib, shartnomalar konstruksiyalarida fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida maqsadi, funksiyalari, prinsiplarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalitso‘zlar: majburiyat, javobgarlik, neustoyka, shartnoma, tovar, tijorat, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, zarar, jarima, mahsulot yetkazib berish, natura.

Majburiyat bajarilishini ta’minlash hamda javobgarlik chorasi sifatida neustoykani qo‘llash, shuningdek, kreditor huquqlarini himoya qilishning maqbul, samarali, ta’sirchan hamda mutanosib usullari va vositalarini takomillashtirish bo‘yicha dunyo mamlakatlarida yangicha yondashuvlar kuzatilmoqda.

Shartnoma erkinligini ta’minlash, tovarlar, xizmatlar va kapitallarning butun dunyo bo‘ylab erkin harakatiga to‘sqinlik qilmaslik, shartnoma taraflarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xalqaro standartlar, shartnomalar prinsiplari to‘g‘risidagi hujjatlar, xususan, UNIDRUA Xalqaro tijorat shartnomalari prinsiplariga milliy qonunchilikni moslashtirish, qonun hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyoti bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini topish muhimdir.

Mamlakatimizda neustoyka bilan bog‘liq masalalar qishloq xo‘jaligiga doir shartnomaviy munosabatlar rakursida, davlat ishtirokidagi shartnoma majburiyatlariga oid fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash masalasida, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asoslari va shakllari doirasida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy shakli hamda majburiyatlar bajarilishini ta’minlash usuli sifatida o‘rganilgan.

Zarar va neustoykaning o‘zaro nisbati, fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida neustoyka qo‘llashning taktik va strategik yechimlari doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan qarzdorga nisbatan neustoyka qo‘llash qoidalari har bir mamlakatning milliy qonunchilik tizimlariga, shu jumladan fuqarolik va savdo huquqiga qat’iy bog‘liq bo‘lib, ularning tatbiqi va nazorati milliy sudlar va arbitraj organlari tomonidan amalga oshiriladi. Huquqiy tizimlarda neustoykalarni qo‘llashga bo‘lgan yondashuvlar farq qiladi, shartnoma buzilishi holatlarida haqiqiy zararni to‘lash yoki sanksiyalarni joriy qilish masalalari turlicha hal etiladi.

Kontinental huquqi tizimi, masalan Vengriya qonunchiligida neustoyka qo‘llashdan asosiy maqsad – shartnomadagi buzilishlarni oldini olish va taraflarning mas’uliyatini rag‘batlantirishdir.

Angliyada neustoyka shartnomalari odatda jazo maqsadida emas, zararni kompensatsiyalash uchun ishlatiladi. Fransiya va Germaniyada sudlar neustoykani zararga nisbatan muvofiqlashtirishga harakat qiladilar.

Amerikada neustoykaga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashilib, neustoyka zararga nisbatan ortiqcha bo‘lsa, u bekor qilinishi mumkin.

Neustoyka mohiyatan ikkiyoqlama bo‘lib, bir paytning o‘zida ham majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash usuli, ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik zararni qoplash, neustoyka, undirish, musodara xususiyatiga ega bo‘lgan choralar hamda ayrim notipik javobgarlik choralari ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin.

Neustoyka undirishda zarar va sababiy bog‘lanish to‘g‘risida isbot shart emas, qonunga xilof harakat va qarzdorning aybi yetarli bo‘ladi.

Zararni qoplash mulkiy javobgarlikning umumiy shakli hisoblanib, agar qonunda yoki shartnomaning o‘zida boshqacha ko‘rsatma bo‘lmasa, shartnomaning har qanday buzilishida qo‘llanilishi mumkin.

Zararni qoplash bilan neustoykaning farqi

shuki, zararni qoplash javobgarlikning umumiy shakli, neustoyka to‘lash esa maxsus choradir.

Ayrim shartnomalarda taraflarga zararni faqat haqiqiy zarar miqdorida qoplashni talab qilish huquqi beriladi. Masalan, pul majburiyatini bajarishni kechiktirganlik uchun qonuniy neustoyka hisobga o‘tkaziladigan xususiyat kasb etadi, boshqa bir qismi esa jarima xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘rilgan zararlardan qat’i nazar undiriladi.

Bizni aynan jarimaviy neustoyka ko‘proq qiziqtiradi, zero u zarar bilan bevosita bog‘liq emas. Qonun bilan belgilangan jarimaviy neustoyka bu mulkiy sanksiyadir.

Hisobga o‘tkaziladigan, mutlaq va muqobil neustoyka kreditorning zararini soddalashtirilgan tartibda qoplashga xizmat qilsa, jarimaviy neustoyka fuqarolik javobgarlikning mustaqil shaklidir.

Javobgarlik chorasi sifatida jarimaviy yoki mutlaq neustoyka qo‘llanilayotgan bo‘lsa, majburiyat buzilishining ko‘ngilsiz oqibatlari mavjudligi talab etilmaydi. FKning 333-moddasi umumiy qoidasiga binoan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan tarafda aybning yo‘qligi tadbirkorni javobgarlikka tortishga monelik qilmaydi.

Shu o‘rinda olimlarning “Agar zarar yetkazilmagan bo‘lsa, javobgarlikni qo‘llash uchun asos sifatida g‘ayriqonuniy harakat (majburiyat buzilganligi) va bunday harakatda shartnoma taraflaridan birining aybi borligi hisobga olinadi. Sud faoliyatida bunday qoidaga qat’iy amal qilinishi kerak”, huquqiy oqibatlar kelib chiqishi aybga bog‘liq bo‘lsa, huquqbuzarning aybsizligi isbot qilinmagan bo‘lsa, uning aybi bor deb taxmin qilinadi, degan fikrlariga to‘liq qo‘shilamiz.

Mulkiy javobgarlik chorasi sifatida neustoykaning zararni qoplash bilan bir qatorda qo‘llanilishi neustoyka to‘lash va zararni qoplashning o‘zaro nisbati muammosini keltirib chiqaradi, zero ularning bir-biridan alohida-alohida qo‘llanilishi kompensatsion fuqarolik javobgarlik prinsipining buzilishiga olib keladi.

Amalda neustoyka turlaridan bittasinigina qo‘llash mumkin bo‘lsada, aksariyat shartnomalarda ba’zan bir paytning o‘zida ham jarimaviy, ham hisobga o‘tkaziladigan neustoykalar to‘g‘risida kelishuv tuziladi.

Bugungi kunda savdo, xizmat ko‘rsatish va ish bajarish sohalarida mahsulot yetkazib berish shartnomalarida keng foydalanilyapti. Mahsulot yetkazib berishga oid shartnomalar bo‘yicha javobgarlik O‘z.R.FKning 324-339-moddalari talablariga muvofiq belgilanadi. Mahsulot yetkazib berish shartnomalari shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar qonun yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, javobgarlik qarzdorning aybi bo‘lsagina qo‘llaniladi. Qarzdor majburiyatni bajarish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan hamma choralarni ko‘rganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin.

Taraflar shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 24-32-moddalariga muvofiq javob beradilar.

Plenum qarorlariga ko‘ra, agar xo‘jalik shartnomasida shartnoma intizomini buzish bilan bog‘liq holatlar uchun javobgarlik belgilangan bo‘lsa, taraflarning javobgarligi shartnomaga asosan qo‘llaniladi.

Shartnomaviy javobgarlik ko‘proq buzilgan majburiyatni bajarishning davlat majburlov shakli bo‘lib, huquqbuzarga asosan mulkiy tusdagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha javobgarlikning neustoyka va zararni qoplash kabi ikkita asosiy shakli qo‘llanilib, bu yerda neustoyka majburiyatni buzgan shaxsga nisbatan sanksiyadir.

Ayrim olimlar neustoyka qo‘llashda quyidagi tamoyillarni ko‘rsatishadi:

- avvalo, undiriladigan neustoyka umumlashtirilishi lozim. Masalan, sifatsiz mahsulot yetkazib berilganligi yoki o‘z muddatida yetkazib berilmaganligi uchun belgilangan neustoyka umumlashtirilishi kerak;
- neustoykani o‘rnatish usuli va asoslari aniq belgilanishi kerak;
- taraflar neustoykaning miqdorini belgilashda uni qonunda belgilangan miqdordan kam qilib belgilamasliklari zarur;
- neustoyka natura shaklida emas, pul to‘lash orqali undirilishi kerak. Hech qanday moddiy qimmatliklarni unga qo‘shmaslik lozim. Chunki, bu yerda tovar-pul munosabatlaridan foydalanish tabiiy holdir.

Bu yerda oxirgi tamoyil neustoyka mazmuni va maqsadini amalga oshirishga muayyan darajada to‘sqinlik qiladi. Bizningcha, qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatining tez va oson ta’minlanishi uchun majburiyat bajarilishini ta’minlash vosita sifatida amal qiluvchi neustoykaning har qanday turi (jarima yoki penya) belgilangan

miqdordagi pul summasi ko'rinishida yoki bo'lmasa, shu belgilangan summaga teng bo'lgan natura shaklidagi mol-mulkni (tovarni) kreditor hisobiga o'tkazish yo'li bilan to'lanishi lozim.

Chunki, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy nochor korxonalar yoki moliyaviy ahvoli yomon bo'lgan fuqarolar neustoykani aynan pul (muayyan valuta) shaklida to'lay olish qobiliyatiga ega bo'lmasliklari mumkin. Agar natura shaklida neustoyka to'lanishi ta'minlansa, sudlarning neustoykani undirish bilan bog'liq hal qiluv qarorlari ijrosi yanada samarali bo'ladi.

Masalan, Angliya huquqida oldindan baholanadigan zarar ham pulda, ham mol-mulk sifatida ifodalanishi mumkin.

Rim huquqida pul ham, mol-mulk ko'rinishidagi boylik ham neustoyka sifatida amal qilishi mumkin bo'lgan.

Hozirgi vaqtda Germaniya Fuqarolik qonunchiligida neustoykaga kreditorga raqamda ifodalash mumkin bo'lmagan yoki umuman o'z mohiyatiga ko'ra nomoddiy bo'lgan salbiy holatlardan himoyalanish imkoniyati sifatida qaraladi. GFTning 342-paragrafiga muvofiq, neustoyka pul summasi ko'rinishidagina emas, balki o'zgacha mol-mulk ko'rinishida ham ifodalanadi.

Shu o'rinda D.B.Rahimovning "tovar neustoykasi" tushunchasini joriy etish bo'yicha bergan fikrlari alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat pul shaklidagi neustoykani undirish uchun sudga murojaat qilish o'rniga tovar shaklidagi neustoykani olgani afzal. Chunki, pul shaklidagi neustoykani sud tartibida undirish bilan bog'liq butun bir jarayonni bosib o'tgan kreditor oxir-oqibat "yutqazish" ehtimoli yuqori. Bu jarayon quyidagicha kechadi:

birinchidan, sud tomonidan kreditorning neustoykani undirish haqidagi talabi ko'rilishi jarayonida sud xarajatlari (3.5%) (bundan tashqari, advokat xizmatlari uchun to'lov - 15%) va undiruv ijroga qaratilganidan keyin esa, 2% ijro yig'ini (jami: 20.5%) to'lashi;

ikkinchidan, kreditor tomonidan so'ralgan neustoykani sud 1-50 foizigacha undirish haqida hal qiluv qarori qabul qilishi, rad etilgan qismi bo'yicha davlat boji kreditor zimmasiga tushishi;

uchinchidan, sud instansiyalarida ishni ko'rish va ijro harakatlarini amalga oshirish uchun oylab vaqt sarflanishi,

to'rtinchidan, ba'zan qarzdor iqtisodiy nochor bo'lib qolishi yoki tugatilishi natijasida neustoykaning undirilmasdan qolishi (yoki qoplangan deb hisoblanishi) kreditorning manfaatiga zarar va ziyon yetkazadi.

Xorijiy sud amaliyotida "natura ko'rinishdagi neustoykani" undirish, "ashyoviy neustoykaning qonunga zid kelmasligi hisobga olingan.

O'zbekiston Respublikasida ham sudlar neustoyka (penya, jarima) miqdorini aniqlashda shartnomaning qaysi bandi talablari qanchalik darajada buzilganligi, taraflar taqdim etayotgan hisob-kitoblarda qaysi davr uchun va qancha miqdorda javobgarlik ko'zda tutilayotganligini, u qaysi qonun yoki shartnomaning bandiga asosan belgilanganligini asoslantirishlari, zarur hollarda neustoykaning hisob-kitobini qayta hisoblab chiqishlari, taraflarning talabi bilan mutaxassislarni hisob-kitoblarni aniqlash uchun jalb etishlari, ekspertiza tayinlashlari lozimligi qayd etilgan.

Sudlar mahsulot yetkazib berish shartnomasi bo'yicha majburiyat buzilganlik oqibatida taraflarga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash choralarini ko'rishlari, zarur hollarda taraflarning iltimosnomalari bilan sud ekspertizasi tayinlashlari va natijalari bo'yicha yetkazilgan zarar va neustoykaning mutanosibligidan kelib chiqqan holda neustoyka miqdorini aniqlash va qo'llash masalasini hal etishlari kerak.

FKning 326-moddasiga binoan agar to'lanishi lozim bo'lgan neustoyka kreditorning majburiyatini buzish oqibatlariga nomutanosibligi ko'rinib tursa, sud neustoykani kamaytirishga haqli. Bunda qarzdor majburiyatni qay darajada bajarganligi, majburiyatda ishtirok etayotgan taraflarning mulkiy ahvoli, shuningdek kreditorning manfaatlari e'tiborga olinishi kerak. Sud alohida hollarda qarzdor va kreditorning manfaatlarini hisobga olib, kreditorga to'lanishi lozim bo'lgan neustoykani kamaytirish huquqiga ega.

Mahsulot yetkazib berish bilan bog'liq amaliyotdagi nizoli holatlarga e'tibor bersak, majburiyatlar bajarilmaganligi uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakllarini qo'llashda sudlar tomonidan shartnoma bandlarining har bir elementar holatlari to'liq tekshirilmasdan qaror chiqarilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, da'vogar – "A" MCHJ sudga murojaat qilib, javobgar – "B" AJdan 770 mln. so'm asosiy qarz, 386 105 760 so'm penya va 1 105 760 so'm zararni undirishni so'ragan.

Sud qarori bilan da'vo qisman qanoatlantirilib, da'vogarga javobgardan 770 mln. so'm asosiy qarz va 115 mln. so'm penya undirilgan, da'voning qolgan qismi rad etilgan.

Kassatsiya instansiyasi sudining qaroribilan hal qiluv qarori o'zgartirilib, da'vogarga undiriladigan penya 94 973 871 so'm miqdorida belgilangan.

Protestda sud qarorlarini qisman bekor qilib, ishning penya va zarar undirish qismini yangidan ko'rish uchun uni birinchi instansiya sudiga yuborish masalasi qo'yilgan. Rayosat quyidagilarga asosan protestni qanoatlantirishni lozim deb topgan.

Ish hujjatlaridan aniqlanishicha, 2018 yil 21 aprelda "A" MCHJ bilan "B" AJ o'rtasida 800 tonna don mahsuloti yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzilgan. Shartnomaga asosan da'vogar javobgarga 2018 yil avgust oyidan 2018 yil oktabr oyiga qadar jami 823 987 263 so'mlik don mahsulotini yetkazib bergan. Javobgar yetkazib berilgan don mahsuloti uchun 2019 yil 24 mayda 23 987 263 so'm va 2019 yil 26 mayda 30 mln. so'm haq to'lagan.

Javobgar 770 mln. so'm qarzini to'lamaganligi sababli da'vogar sudga murojaat qilib, javobgardan asosiy qarz va asosiy qarzning 50 foizi miqdorida, ya'ni 385 000 000 so'm penya, 958 752 so'm boshqa tashkilotlarga sudning qarori asosida undirilgan penya, sud xarajatlari ko'rinishidagi zararni undirishni so'rab, penyani talab qilishda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 32-moddasining 2-qismiga asoslangan.

Ushbu Qonunning 32-moddasida yetkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaq-tida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'lashi belgilangan.

Kassatsiya instansiyasi sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2002 yil 4 martdagi 103-son qarorining 10-bandiga muvofiq, da'vogarning penya undirish to'g'risidagi talabini asosli deb hisoblagan. Bunda kassatsiya instansiyasi sudi mazkur Plenum qarori 10-bandining faqat ikkinchi qismiga havola qilgan. Vaholanki, ushbu bandning birinchi qismida umumiy qoidaga ko'ra, qonun hujjatlari va shartnomada boshqacha tartibda javobgarlik nazarda tutilmagan bo'lsa, shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik (shartnoma intizomini buzganlik) uchun Qonunning 25-32-moddalariga asosan javobgarlik qo'llanilishi belgilangan.

Shartnomaning 8.4.-bandiga asosan shartnoma shartlari buzilganda taraflar yetkazib berilgan mahsulot qiymatining 0,1 foizi miqdorida jarima to'lashi belgilangan. Sudlar tomonidan shartnomaning qaysi shartlari buzilganda taraflar jarima to'lashlari lozimligi aniqlanmagan. Bundan tashqari, da'vogar boshqa korxonalarga sudning hal qiluv qarorlari asosida undirilgan penya va sud xarajatlari ko'rinishidagi 1 105 760 so'm zarar summasini undirishni so'ragan. Birinchi instansiya sudi da'vo talabining ushbu qismini rad qilgan. Ammo bu talabni rad qilish asoslarini keltirmagan. IPKning 179-moddasi beshinchi qismiga ko'ra, hal qiluv qarorining asoslantiruvchi qismida: ishning sud tomonidan aniqlangan haqiqiy holatlari; sudning ish holatlari to'g'risidagi xulosalari asoslangan dalillar; sudning u yoki bu dalillarni rad qilganligining, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning vajlarini qabul qilganligining yoki rad etganligining asoslari; hal qiluv qarorini qabul qilishda sud amal qilgan qonun hujjatlari hamda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar asos qilib keltirgan qonun hujjatlarini qo'llamaganligining asoslari ko'rsatilishi kerak.

Sudlar tomonidan ishni ko'rishda ish uchun ahamiyatli holatlar to'liq o'rganilmasdan, moddiy va protsessual huquq normalari buzilgan holda da'vo talablarining penya va zarar undirish qismi bo'yicha barvaqt xulosaga kelingan.

Da'voning asosiy qarz summasini undirish talabi bo'yicha qarzdorlik ish hujjatlari bilan tasdiqlanganligi va javobgar tomonidan ham tan olinganligi sababli nizo to'g'ri hal etilgan.

Bunday holda Rayosat ish bo'yicha qabul qilingan sud qarorlarini qisman bekor qilib, da'vo talablarining penya va zararni undirish qismini yangidan ko'rish uchun yuborishni lozim, deb topgan.

Ya'na bir e'tiborli tomoni shuki, mahsulot yetkazib berishga oid nizolarda, agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarishi mumkin bo'lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli.

Yuqoridagi tahlillar va sud amaliyotidan kelib chiqib, shartnoma konstruksiyalarida neustoykaning fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida qo'llash borasidagi quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tamiz:

neustoyka, bir tomondan, majburiyat bajarilishini ta'minlash usuli, boshqa tomondan esa, fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida amal qiladi;

neustoyka shartnoma tuzish va uni bajarish

bosqichida rag‘batlantiruvchi, signalizatsion hamda buzilishi mumkin bo‘lgan mulkiy huquqlarni tiklash funksiyalarini bajaradi;

majburiyatning buzilish bosqichida neustoyka o‘ziga xos javobgarlik shakliga aylanib, kompensatsion, jazolash, tarbiyaviy funksiyani bajaradi;

neustoykaning mohiyati va vazifasidagi ikkiyoqlamalikda ustuvorlik neustoykaning undirilish bosqichiga beriladi va bu bosqich fuqarolik-huquqiy javobgarlik qo‘llanilganda vujudga kelib, dastlab majburiyat bajarilishini ta’minlash usuli, shartnoma buzilganida esa javobgarlik chorasi sifatida namoyon bo‘ladi;

qarzdor shartnomani bajarmagan taqdirda neustoyka to‘lashi shart bo‘lsa, kreditor shartnomani bajarish o‘rniga neustoyka to‘lashni talab qilishi mumkin, bunda, kreditor qarzdordan neustoyka to‘lashni talab qilgan bo‘lsa, majburiyatni bajarish talabining qo‘yilishi mumkin emas;

agar neustoyka majburiyat lozim darajada bajarilmagan, bajarish muddati kechiktirilgan, belgilangan talablar asosida bajarilmagan holda to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, kreditor majburiyatni bajarish bilan bir qatorda zararni qoplash va neustoyka to‘lashni ham talab qilishga haqli;

zararni qoplash bilan bir qatorda javobgarlik chorasi sifatida jarimali neustoykani qo‘llash neustoyka to‘lash va zararni qoplashning o‘zaro nisbati muammosini keltirib chiqaradi, ularni bir-biridan alohida qo‘llash (muqobil neustoyka) esa, kompensatsion fuqarolik-huquqiy javobgarlik prinsipining buzilishiga olib keladi;

huquqni qo‘llash amaliyotida shartnomalar tuzish taktikasi va strategiyasini mustahkamlash maqsadida, shartnomalar konstruksiyalarida neustoykaning hisobga o‘tkaziladigan turini keng joriy etish lozim.

Аннотация. В статье анализируются особенности применения неустойки как формы гражданско-правовой ответственности за неисполнение обязательств, а также теоретические и практические аспекты этого вопроса. Рассматриваются законодательство зарубежных стран и международные документы, связанные с данной темой. В статье представлены предложения по совершенствованию целей, функций и принципов неустойки как формы гражданско-правовой ответственности в конструкциях контрактов.

Ключевые слова: обязательство, ответственность, неустойка, контракт, товар, коммерция, гражданско-правовая ответственность, ущерб, штраф, поставка продукции, натура.

Annatation. The article discusses the unique features, theoretical and practical aspects of applying a penalty as a form of civil liability for non-fulfillment of contractual obligations. The paper analyzes the legislation of foreign countries and international documents related to the subject. Suggestions are provided for improving the goals, functions, and principles of penalty as a form of civil liability in contract constructions.

Key words: obligation, liability, penalty, contract, goods, commerce, civil liability, damage, fine, product delivery, nature.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Международный институт унификации частного права, сокращённо УНИДРУА (фр. UNIDROIT); Источник – https://ru.wikipedia.org
2. https://queritius.com/liquidated-damages-and-penalty-clauses-in-continental-and-common-law-valid-here-invalid-over-there/?utm_source=chatgpt.com
3. Doug Jones ўзининг Navigating Penalties and Liquidated Damages Across Common Law and Civil Law Jurisdictions мақ https://dougjones.info/content/uploads/2023/03/Doug-Jones-Navigating-Penalties-and-Liquidated-Damages-Across-Common-Law-and-Civil-Law-Jurisdictions.pdf?utm_source=chatgpt.com
4. Ignacio Marín García. https://ejls.eui.eu/wp-content/uploads/sites/32/pdfs/Spring_Summer2012/ENFORCEMENT_OF_PENALTY_CLAUSES_IN_CIVIL_%20AND_COMMON_LAW_.pdf?utm_source=chatgpt.com
5. Рахманкулов Х. Договорные отношения в агропромышленном комплексе. –Тошкент:

Фан, 1989. –С. 208.

6. Гражданское право России / Под ред. О.Н. Садикова. –М., 2001. –С. 671.

7. Шодманов Ф.Ю. Бозор иқтисодиёти шароитида шартнома мажбуриятларини бузганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари: Юрид. фан. докт. дисс. Автореферати. – Тошкент: 2002. –Б. 9.

8. Аҳмонов Н., Синдоров К. Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги шартномаларни бузганлик учун жавобгарлик. –Тошкент: Хўжалик ва ҳуқуқ, 2003. – Б. 27.

9. https://lex.uz/ru/docs/1643248

10. Ғуломов А., Кушатов С. Моддий техника мажбурияти бўйича ундириладиган неустойка // Олий хўжалик суди Ахборотномаси, 2007 йил, 2-сон, –Б. 31-33.

11. Раҳимов Д.Б. Товар неустойкаси: цивилистик тафаккур ва қонунчилик тараққиёти // Юрист ахборотномаси. 2020. №4 –Б. 85.

12. Постановление Федерального арбитражного суда Поволжского округа от 18 сентября 2001г. №3559/01-2. Доступизсправ. Правовойсистемы "КонсультантПлюс". (Resolution of the Federal Arbitration Court of the Volga Region dated September 18, 2001. No. 3559 / 01-2. Accessfromref. Legalsystem «ConsultantPlus».)

13. Постановление Федерального арбитражного суда Северо-Кавказского округа от 12 апреля 2002г. №Ф08-1203/02. Доступизсправ. Правовой системы "КонсультантПлюс". (Resolution of the Federal Arbitration Court of the North Caucasian District of April 12, 2002 No. F08-1203 / 02. Access from ref. Legal system «Consultant Plus».)

14. https://lex.uz/ru/docs/1643248

15. Маҳсулот етказиб бериш шартномаси билан боғлиқ низолар // Ахборотнома. Р 101-сон қарор. 2018 йил 4 август (кўчирма). 2018 йил. 4-сон. –Б. 27-28.

MUSTAQILLIK YO‘LIDA: JADIDCHILIK VA KRIMINOLOGIK QARASHLAR

Muxitdinov Faxritdin Muxitdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professori

Axrarov Baxrom Djabbarovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professori

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati vakillarining jinoyat va jazo masalalariga oid qarashlari tahlil qilinadi. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat va Avloniy kabi jadidchilarning kriminologik g‘oyalarining o‘rganilishi orqali ularning jinoyatchilikni ijtimoiy hodisa sifatida tushunishi, jazo tizimini isloh qilish borasidagi tashabbuslari va ma’rifat orqali jinoyatchilikning oldini olish konsepsiyalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot jadidchilarning insonparvar va progressiv yondashuvini hamda ularning zamonaviy kriminologiyaga qo‘shgan hissasini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, kriminologiya, jinoyat, jazo, Markaziy Osiyo, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Avloniy, islohotlar, ma’rifat, insonparvarlik, adolat, profilaktika.

Jadidchilik harakati vakillarining jinoyat va jazo masalalariga oid qarashlari mamlakatimiz kriminologik ta’limotining rivojlanishiga muayyan xissa qo‘shgan. Bu mavzuni o‘rganish orqali biz XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan muhim ijtimoiy-ma’naviy sohalardagi o‘zgarishlarni chuqurroq tushunishimiz mumkin. Jadidchilar an’anaviy islom qadriyatlari bilan G‘arbning zamonaviy ilmiy g‘oyalarini uyg‘unlashtirishga harakat qildilar. Bu ularning kriminologik ta’limotlarga oid qarashlarida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Masalan, ular jinoyatchilikning ildizlari haqida fikr yuritganda, faqat diniy yoki axloqiy tushunchalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni ham inobatga olishga uringandilar. Bu esa bugungi zamonaviy kriminologiyaning asosiy g‘oyalariga ham juda mos keladi.

Jadidchilarning mazkur qarashlarini o‘rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki bu bizga zamonaviy jamiyatda yuzaga kelayotgan huquqiy va axloqiy muammolarni hal qilishda ham yordam berishi mumkin. Ayniqsa, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy huquqiy tamoyillar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash masalasida ularning tajribasi juda qimmatlidir.

Ta’kidlab o‘tilganidek, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati vakillari ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, shu jumladan huquqiy tizimni ham isloh qilish g‘oyalarini ilgari surdilar. Shu bois, ularning jinoyatchilik va uning oldini olish borasidagi qarashlari o‘ziga xos ahamiyatga ega. Ularning vakillari tomonidan ilgari surilgan ko‘pgina g‘oyalar o‘z davri uchun inqilobiy bo‘lsa-da, ular Markaziy Osiyo xalqlari hayotida jinoyat va jazo tushunchasiga munosabatni shakllantirishga hamda odil sudlov faoliyati mohiyatini anglashga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Shubhasiz, bunday tarixiy ildizlarni tushunish bizga jinoyat va jazo tizimlarining hozirgi holatini yaxshiroq baholashga va ularning yanada adolatli va samarali rivojlanishiga yo‘naltirishga yordam beradi.

Jadidchilar harakati – millat uchun juda murakkab va og‘ir davrda xalqning orasidan uning og‘ir ijtimoiy hayotini yorib chiqqan va yorug‘likka, yuksak ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan jamiyatni barpo etish g‘oyasini ilgari surgan millatparvar, adolatparvar ilg‘or kishilar harakati sifatida mamlakat tarixidan o‘rin oldi.

Ushbu harakatning mazmunini anglash uchun avvalambor “jadid” so‘zining etimologiyasiga murojaat qilish zarur. “Jadid” so‘zi arabcha «جديد» so‘zidan olingan bo‘lib, u “yangi”, “zamonaviy”, “islohotchi” ma’nolarini anglatadi. Shunday qilib, “jadidchilik” tushunchasi – bu yangilikka, islohotlarga, zamonaviy g‘oyalarga intilish harakati

degan ma’nolarni ifodalaydi.

Jadidchilik – bu XIX-asr oxiri va XX-asrning boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibiga kuch bilan qo‘shib olingan musulmon xalqlari orasida, xususan Markaziy Osiyoda tarqalgan ma’rifiy-islohotchi ziyolilar harakatidir. Ular jamiyatning turli sohalarini, jumladan huquq va jazo tizimini isloh qilishga intilishgan. Ushbu harakatning asosiy maqsadi – a) an’anaviy diniy ta’limga muayyan o‘zgarishlarni kiritish; b) Yevropa usulidagi zamonaviy maktablarni yaratish orqali milliy ziyolilarning madaniy va intellektual rivojlanishiga ko‘mak berish; v) jamiyatda yangi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash kabi g‘oyalardan iborat edi.

Jadidchilikni shakllantirishda ko‘plab millat ziyolilari faol qatnashgan edi. Jamiyatni o‘rtaasrchilik illatlari, madaniy qoloqlik va mustamlaka zulmidan, xurofotdan ozod qilish, xalqni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlatchilik asoslarini bunyod etish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Turkistondagi jadidchilik harakatiga Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» tashkiloti rahbarlari boshchilik qilishgan. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi – usuli jadid maktabi edi. Zero, «yangi» ma’noni beruvchi «jadid» istilohi kirib kelishining o‘zi aynan yangi usuldagi maktablar bilan bog‘liq. 1895–1910 yillar orasida Turkistonning Toshkent, Samarqand, Qo‘qon kabi barcha yirik shaharlarida, qishloqlarida Buxoro amirligi va Xiva xonliklarida o‘nlab «usuli saviya» maktablari ochildi. 1903 yillardan jadidchilik matbuoti uchun maxsus darsliklar tuzila boshlandi. Jadidlar maslagining amalga oshishida maktablardan keyingi asosiy o‘rinni matbuot egalladi. «Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi» maqolasida Abdulla Avloniy 1905–1917 yillar davomida o‘zbek tilida 23 ta gazeta va 8ta jurnal chop etilgani haqida ma’lumot beradi. «Taraqqiy» (1906 yil, muharriri Ismoil Obidiy), «Xurshid» (1906 yil, muharriri Munavvar qori), «Shuhrat» (1907 yil, muharriri Abdulla Avloniy), «Osiyo» (1908 yil, muharriri Ahmadjon Bektemirov), «Samarqand» (1913 yil, muharriri Maxmudxo‘ja Behbudiy), «Sadoyi Turkiston» (1914 yil, muharriri Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘ja o‘g‘li), «Sadoi Farg‘ona» (1914 yil, muharriri Obidjon Mahmudov) kabi qator gazetalar hamda «Oyina» (1913–1915 yillar, muharriri Maxmudxo‘ja Behbudiy), «Al-isloh» (1915–1918 yillar) kabi jurnallar shular jumlasidandir [1].

Shuningdek, jadidchilar – islohotchilar va ma’rifatparvarlar sifatida, jinoyat va jazo masalalarida adolat, insonparvarlik va zamonaviylik tamoyillariga asoslangan qarashlarni ham ilgari surganlar. Ular jinoyatlarni ijtimoiy va ta’limga oid omillar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqib, ular uchun jinoyat nafaqat qonunni buzish holati, balki jamiyatning chuqurroq muammolarining belgisi ham edi.

Jumladan, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo‘lgan **Ismoilbek Gaspirali[2]** (1851-1914 y.), jinoiy xulq-atvorning shakllanishida jaholatning roli yuqori ekanligini ta’kidlagan edi. U ko‘plab jinoyatlar ta’lim va axloqiy me’yorlarni tushunmaslik tufayli sodir etiladi deb hisoblab, shunday deb yozgandi: “Aql *va qalbni ma’rifatli qilish – bu illatlar va jinoyatlardan haqiqiy davodir”.*

Milliy jadidchi **Mahmudxo‘ja Behbudiy** (1875 - 1919 y.) yuqoridagi fikrni yanada rivojlantirishga harakat qildi. U jinoyatni ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy tengsizlikning natijasi sifatida ko‘rib, a’zolarining farovonligi haqida qayg‘urmaydigan jamiyatning o‘zi jinoyatchilik uchun sharoit yaratadi, deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Bundan tashqari, Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidlar harakatining yetakchi namoyandalaridan biri sifatida jamiyatdagi salbiy holatlarni milliy davlatchilikning yo‘qotilishi bilan bog‘lagandi. Uning fikricha, mustamlakachilik tizimi Turkiston xalqlarini o‘zlari bilmagan imperiyacha qonunlar asosida yashashga majbur qilgan, bu esa shubhasiz jamiyatda adolatsizlikning keng quloch yoyishiga olib kelgan. Behbudiy savodli mutaxassislar, xususan huquqshunoslar orqali millat manfaatlarini himoya qilish mumkinligini e’tirof etdi.

Shu bilan birga, Mahmudxo‘ja Behbudiy bevosita jinoyatchilikning ijtimoiy xususiyatlariga oid fikrlarni bildirmagan bo‘lsa-da, lekin uning umumiy siyosiy qarashlaridan jinoyatlarga bo‘lgan uning munosabatlarini anglab olish mumkin. Shu asosda Behbudiy kishilarning ma’rifatsizligini aynan jaholatga tortuvchi muhim ijtimoiy omil sifatida ko‘rib, uni jamiyatda jinoyatchilikning asosiy sababi sifatida e’tirof etishga turtki beradi.

Maxmudxo‘ja Behbudiyning davlat va jamiyat haqidagi fikrlaridan jinoyat uchun jazo qo‘llash masalasiga bo‘lgan munosabatlarini ham tushunib olish mumkin. Ammo ushbu masala, jadidchiga ko‘ra bevosita qozilik sudini isloh qilish, dunyoviy sudlov yurituvi prinsiplari – aybsizlik prezumpsiyasi, taraflar tortishuvi, ayblanuvchiga himoyalanish huquqining taqdim etilishi asosida amalga oshirilishi lozim edi. Zotan Maxmudxo‘ja Behbudiy jinoyat uchun jazo faqat adolatli sud tomonidan qo‘llanishi mumkinligini ta’kidlagandi. Shu asosda jazoning maqsadi, jadidchiga muvofiq,

jinoyatchini tuzatishga monand ravishda bo‘lishi zarur.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931yy) ham jadidchilar harakatining faol a’zosi bo‘lib, o‘zining qarashlarida ta’lim va ma’rifat orqali jamiyatni isloh qilishga urg‘u bergan. Uning fikricha, jamiyatdagi jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri savodsizlik va ma’rifatsizlik bo‘lib, shu bois uning oldini olish uchun aynan aholining huquqiy savodxonligini oshirish zarur edi. Shuning uchun Munavvarqori Abdurashidxonov yangi usuldagi maktablar ochish va zamonaviy ta’limni joriy etish asnosida aholining bilimini oshirish va shu orqali jamiyatdagi jinoyatchilikni kamaytirish mumkinligini ta’kidladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, jadidchi 1901 yilda Toshkentda ilk “Usuli jadid” maktabini ochib, unda “Adibi avval”, “Adibi soniy” kabi alifbo va xrestomatiyalar, “Tavjid al-Qur’on” (“Qur’on qiroati”), “Er yuzi” (“Geografiya”) singari qo‘llanmalarni tuzib, nashr etgan. Bu darsliklar o‘sha kezlarda yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasida muhim o‘rin tutgan edi.

Shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonov jinoyatchilikni oldini olish faoliyatini faol amalga oshirish jamiyatdagi ushbu ijtimoiy salbiy illatning o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordam berishi mumkinligi haqidagi fikrda edi. Uningcha, jinoyatchilikni oldini olishda aholini ma’rifat va savodxonligini oshirishning ahamiyati ham yuqori natija berishi mumkin bo‘lgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Munavvarqori Abdurashidxonov voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalalariga katta e’tibor qaratib keldi. Uning ta’kidlashicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi asosiy sabablari sifatida: ta’lim-tarbiyaning yetishmasligi, oila muhitining salbiy ta’siri (o‘sha kezlarda ko‘pchilik oilalarning o‘z farzandlarini o‘qitishga imkonlar yo‘q edi) hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, ya’ni oilalar daromadining pastligi, ishsizlik, tibbiy yordamga muhtojlik va boshqa holatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatishini e’tirof etdi.

Xulosa qilib aytganda, Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z faoliyati davomida pedagogik, matbuotchilik, muharrirlik, adiblik bilan cheklanmay, jiddiy siyosiy faoliyat ham olib borgan. U vijdon erkinligini inkor etmagan dunyoviy demokratik davlat tarafdori edi. Shu sababli Qo‘qon shahrida tashkil topgan Turkiston muxtoriyatini (1917 y.) qo‘llab-quvvatladi. Zero uning dunyoqarashiga ko‘ra “islomiy *ma’naviyat hamda erkinlik va tenglikka asoslangan jamiyat, uning oldida vujudga keladigan, xususan jinoyatchilikni yengib o‘tishga qodir bo‘ladi”*.

Yana bir ko‘zga ko‘ringan milliy jadidchi **Abdurauf Fitrat** (1886 – 1938 y.) ham o‘z qarash va g‘oyalarida ma’naviy va ma’rifiy yuksak jamiyat qurish maqsadlarini ifoda etib, bu yo‘lda jinoyat va jazo masalasiga munosabat bildirgan inson sifatida mamlakat tarixida qolgan. Abdurauf Fitrat jinoyat va jazo masalalarida islohotlarning zarurligini ta’kidlab, uning fikricha, jamiyatdagi jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri ta’limsizlik va ma’naviy tanazzul bilan bog‘liq. Shu asosda Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida jamiyatni ma’rifat orqali yuksaltirish va shu yo‘l bilan jinoyatchilikni kamaytirish g‘oyasini ilgari surdi.

Bundan tashqari, Abdurauf Fitratning jinoyat va jazo haqidagi qarashlari jamiyatni ma’rifat va ta’lim orqali yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish va sud-huquq tizimini isloh qilishga qaratilib, ular insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan jamiyat qurishni maqsad qilgan edi.

Shuningdek Abdurauf Fitrat sud-huquq tizimini isloh qilishni taklif etib, bu qozilik sudlarini zamonaviylashtirish, adolatli va shaffof sud tizimini yaratish orqali jamiyatda adolatni ta’minlash mumkinligini ta’kidlab o‘tgan. Bu borada Abdurauf Fitrat Rossiya imperiyasidagi islohotlar tajribasini o‘rganib, uni Turkiston sharoitiga moslashtirishga harakat qilgan.

Abdurauf Fitrat jazo masalasida ham o‘ziga xos qarashni ilgari surgan. Uning fikricha, jazoning asosiy maqsadi jinoyat sodir etgan shaxslarni tuzatish bilan bog‘liq bo‘lib, shuning uchun jazo

Jadidchilik harakati namoyandalarining jazo masalasiga bo‘lgan munosabatlari
Behbudiy: jazo jinoyatga mutanosib bo‘lishi va uning sodir etilish holatlarini hisobga olishi kerak. **Fitrat:** islom huquqi elementlarini zamonaviy penitensiar amaliyotlar bilan birlashtiradigan jazo tizimini joriy etish zarur, chunki qamoq jazosi ta’lim dasturlari va mehnat imkoniyatlari bilan birga olib borilish maqsadga muvofiq, toki bu jinoyatchini jamiyatga qaytishga tayyorlasin.

insonparvarlik tamoyiliga monand bo‘lishi lozim. Zero uning ta’kidlashicha, aynan adolatli jazolar jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatishga xizmat qilishi kerak.

XIX asr oxiri, XX-asrning boshlarida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakatining yana bir taniqli namoyandasi ma’rifatparvar va islohotchi **Abdulla Avloniy** (1878-1934 y.) jinoyatchilikni jaholat va to‘g‘ri tarbiya yo‘qligi bilan bog‘liq ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqqan edi. U o‘z asarlarida jinoyatchilik tabiati va uni oldini olish usullari doirasida o‘z yondashuvlarini shakllantirgandi [3].

Abdulla Avloniyning jinoyat va jazo masalalariga bo‘lgan qarashlari asosida “tarbiya” konsepsiyasi yotadi. Unga ko‘ra, jinoiy xulq-atvor shaxsning axloqiy va aqliy rivojlanishidagi kamchiliklar natijasi sifatida ko‘riladi. Shu bois, Abdulla Avloniy jinoyatchilikni yosh avlodni ma’rifatli qilish va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali oldini olish mumkin, deb hisoblagan edi.

Shuningdek, Abdulla Avloniy jinoyat uchun jazoning ta’minlanishi jinoyatchilikni oldini olishda muhim o‘rin tutishini ta’kidlagan. Jumladan jazo masalasida Abdulla Avloniy boshqa jadidchilarga ko‘ra ilg‘or qarashlarga ega bo‘lib, u jazo choralari tarbiyaviy ta’sir bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Ayniqsa, yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishga ta’lim va zamonaviy asosda diniy qadriyatlarni singdirish orqali ta’sir ko‘rsatish mumkinligi masalasiga alohida e’tibor qaratgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, jinoyatchilikka qarshi kurash uch asosiy tamoyilga asoslanishi zarur edi:

1. *Profilaktik choralarda ta’limning ustuvorligi;*

2. *Aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;*

3. *Jinoyat sodir etgan shaxslarni tuzatishga qaratilgan adolatli sud [4].*

Abdulla Avloniy an’anaviy jazo tizimini isloh qilish muhimligini ta’kidlab, jazolarni insonparvarlashtirish zarur ekanligini yoqlab chiqdi. Uning fikricha, haddan tashqari qattiq jazolar jinoyatchining tuzalishiga yordam bermasligi va u tomonidan qayta jinoyat sodir etilishiga olib kelishi mumkinligini ta’kidladi.

Zamonaviy yondashuvda Abdulla Avloniy jinoyatchilikning ijtimoiy tabiati va uni oldini olishga kompleks yondashuv zarurligi haqidagi g‘oyalari bugunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Uning jinoyatchilikning oldini olishda ta’lim va tarbiyaning roli haqidagi qarashlari Markaziy Osiyo kriminologiyasida profilaktik yo‘nalishning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ko‘rib chiqilgan davrdagi kriminologik ta’limotning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi jadidchilarning asarlarini tahlil qilgan holda, ularning jinoyat va jazo masalalariga oid yondashuvlarining bir necha asosiy tamoyillarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. *Insonparvarlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish prinsipi.* Jadidchilar hatto jinoyatchi ham o‘z insoniy qadr-qimmatini saqlab qoladi va hurmatli munosabatga haqli bo‘ladi, deb hisoblaganlar. Masalan, Ismoyilbek Gaspirali shunday deb yozgan edi: “Jinoyat *insonni uning insoniyligidan mahrum qilmaydi. Biz qilmishni jazolashimiz kerak, ammo shaxsni kamsitmaslik lozim”.*

2. *Ta’lim va jinoyatlarning oldini olishning ustuvorligi prinsipi.* Jadidchilar ta’limning jinoyatchilikning oldini olish vositasi sifatidagi kuchiga ishonganlar. Bu borada Mahmudxo‘ja Behbudiy shunday deb ta’kidlagan edi: “Biz *tashkil qilayotgan har bir maktab – bu kelajakda qurilmaydigan bitta qamoqxonadir”.*

3. *Odil sudlov tizimini isloh qilish zarurligi.* Jadidchilar sud tizimini isloh qilish, tergov va sud ishlarini yuritishning zamonaviy usullarini joriy etish tarafdori bo‘lganlar. Jumladan Abdurauf Fitrat “qonunga *asoslangan, o‘zboshimchalikka emas, adolatli va xolis sudlov ishlarini yuritishni yaratish zarur”* deb yozgan edi [7].

4. *Islom an’analari va zamonaviy huquqiy konsepsiyalar o‘rtasidagi muvozanat prinsipi.* Jadidchilar faoliyatlari davomida islom huquqi bilan zamonaviy yuridik tamoyillar o‘rtasida muvozanatni topishga intildilar. Ular islom huquqiy normalarini taraqqiyotga zid kelmaydigan hamda zamonaviy voqelikka muvofiq ravishda talqin qilinishi mumkin, deb hisoblaganlar.

5. *Ijtimoiy mas’uliyat prinsipi.* Jadidchilar uchun jinoyatchilik faqat shaxsning individual muammosi emas, balki ijtimoiy sharoitlarning natijasi hamdir. Shu bois ular jamiyatni jinoyatchilikka to‘sqinlik qiladigan sharoitlar yaratish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga chaqirganlar. Ushbu prinsip ko‘p jihatdan o‘sha davrdagi kriminologiya nazariyasida shakllanib ulgurgan sotsiologik nazariyaning asosiy g‘oyalariga monand kelardi.

6. *Reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv prinsipi.* Jadidchilar yondashuvidagi muhim tamoyil jinoyatchilarni qayta tarbiyalab, ularni jamiyatga qaytarishga intilish edi. Ular jazo tizimi gunohkor insonni tuzatish va yangi hayot uchun imkoniyat berishi kerak deb hisoblaganlar.

Mazkur tamoyillar jadidchilarning jinoyat

va jazo masalalariga progressiv va insonparvar yondashuvini aks ettiradi. Ular islom qadriyatlarini zamonaviy huquqiy konsepsiyalar bilan uyg‘unlashtirishga intildilar, bu esa Markaziy Osiyoda huquqiy tizimni isloh qilish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan noyob sintezni yaratgan. Aynan jadidchilar o‘z davrida sobiq ittifoq hududida birinchilardan bo‘lib, jinoyatchilarga tavba qilish va tuzalish imkoniyatini berish muhimligini ta’kidlab o‘tgandilar.

Shuni ham ta’kidlash muhimki, jadidchilarning huquqiy g‘oyalari, jumladan jinoyat va jazo masalalariga oid qarashlari ko‘pincha o‘z davrini ortda qoldirgan bo‘lsa-da, ammo ular ham mahalliy konservativ, ham mustamlaka hokimiyatining qarshiligiga duch keldilar. Shunga qaramay, ularning ko‘plab g‘oyalari kelajakka qaratilgan bo‘lib, bu fikrlar zamonaviy kriminologik nazariyalar va amaliyotlarda o‘z aksini topa oldi.

Xulosa qilib aytish lozimki, jadidchilarning jinoyat va jazo masalalariga oid yondashuvlarini o‘rganar ekanmiz, ular adolat va rahm-shafqat, jazo va tarbiyalash o‘rtasidagi abadiy ziddiyatni qanday hal qilishga uringanlarini ko‘rishimiz mumkin. Ularning g‘oyalari an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy jamiyat talablari o‘rtasidagi muvozanatni izlash nuqtai nazaridan zamonaviy kriminologlar va huquqshunoslar uchun qimmatli ilhom manbai bo‘lishi mumkin.

Аннотация. В статье анализируются взгляды представителей джадидского движения конца XIX – начала XX веков в Центральной Азии на вопросы преступности и наказания. Через изучение криминологических идей джадидов – Бехбуди, Мунаввар-кары, Фитрата и Авлони – рассматривается их понимание преступности как социального явления, инициативы по реформированию системы наказаний и концепции предупреждения преступности через просвещение. Исследование раскрывает гуманистический и прогрессивный подход джадидов, а также их вклад в развитие современной криминологии.

Ключевые слова: джадидизм, криминология, преступность, наказание, Центральная Азия, Бехбуди, Мунаввар-кары, Фитрат, Авлони, реформы, просвещение, гуманизм, справедливость, профилактика.

Abstract. The article analyzes the views of representatives of the Jadid movement of the late 19th – early 20th centuries in Central Asia on issues of crime and punishment. Through studying the criminological ideas of Jadids – Behbudi, Munavvar-qari, Fitrat, and Avloni – their understanding of crime as a social phenomenon, initiatives for reforming the punishment system, and concepts of crime prevention through education are examined. The research reveals the humanistic and progressive approach of the Jadids and their contribution to the development of modern criminology.

Keywords: Jadidism, criminology, crime, punishment, Central Asia, Behbudi, Munavvar-qari, Fitrat, Avloni, reforms, enlightenment, humanism, justice, prevention.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia](https://uz.wikipedia.org/wiki/Жадидчилик
2. Исмоилбек Гаспирали жадидчилар ҳаракатининг руҳоний етакчиси ҳамда ушбу ҳаракатнинг асосчиларидан бири бўлиб, унинг қарашлари Туркистон жадидларига ҳам катта таъсир кўрсатган. Унинг “Тилда, дилда ва ишда бирлик” шиори жадидлар ҳаракатининг илк мафкуравий асосларидан бири бўлди. Гаспирали саводхонлик ва таълим орқали миллий маърифатни юксалтириш мумкинлигини таъкидлаб, мусулмон халқлари учун умумий мактаб дастурларини ишлаб чиқди. Унинг таълимга бўлган эътибори жамиятдаги ижтимоий муаммоларнинг ечими сифатида қаралган (Гаспирали И. Тилда, дилда, ишда бирлик. Таржимон, 1907).
3. www.academia.edu
4. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. 1913.
5. library.ziyonet.uz
6. ехбудий М. Қози ва бийлик тартиблари. 1907; яна: Беҳбудий, М. Жамият ва қонунчилик: Туркистондаги ҳуқуқий ислоҳотлар. Шўрои Уламо, 1914.
7. Фитрат А. Раҳбари нажот. 1915.

MUSTAQILLIK ISLOHOTLARI: INSON MANFAATLARINI TA’MINLASHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat va huquq nazariyasi kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada mustaqillikning 34 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan huquqiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar tahlil qilinadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, yoshlar siyosati, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mahalla instituti hamda madaniyat va turizm sohalaridagi o‘zgarishlar inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatida muhim ahamiyat kasb etayotgani ko‘rsatiladi. Maqolada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurilishida inson qadri ustuvor qiymat sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, yangi KONSTITUTSIYA, inson manfaati, yoshlar siyosati, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ta’lim islohotlari, mahalla, milliy qadriyatlar.

Mustaqillik: adolat va inson qadri ustuvor bo‘lgan istiqlol yo‘li

2025 yil 20 iyul kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori — mamlakat mustaqilligining 34 yilligini munosib qarshi olish va nishonlash bo‘yicha muhim huquqiy, siyosiy va ma’naviy hujjatdir. U nafaqat tarixiy xotira, balki istiqbolga qaratilgan yuksak maqsadlarni belgilab beruvchi manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda jamiyatdagi barcha tuzilmalar, xususan, davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, ilm-fan va ta’lim muassasalari zimmasiga muhim vazifalar yuklanadi. Ular orasida huquqshunos olimlar, ayniqsa, siyosiy va huquqiy islohotlarni tahlil qilish, jamoatchilikni xolis axborot bilan ta’minlash hamda mustahkam huquqiy ongni shakllantirishda katta mas’uliyatni his etishlari lozim.

2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi KONSTITUTSIYA davlat va jamiyat munosabatlarini tubdan yangilashga qaratilgan. Bu hujjat huquqiy davlat va faol fuqarolik jamiyati barpo etish, inson qadrini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, adolat, qonun ustuvorligi va davlatchilikning isloh qilingan modelini yaratishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning siyosiy faolligi oshgan, parlament va mahalliy kengashlar ta’siri kuchaygan, ijtimoiy adolat prinsiplari keng joriy etilgan bu yangi konstitutsiyaviy tartib huquqshunos olimlar uchun tahlil qilish, nazariy xulosalar chiqarish va huquqiy ta’limda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Mustaqillik — faqat siyosiy emas, huquqiy jarayon sifatida ham ko‘rilishi kerak. U o‘z taqdirini o‘zi belgilash, ichki va tashqi siyosatda suveren qarorlar qabul qilish, huquqiy tizimini shakllantirish va takomillashtirishga asos bo‘ldi. O‘tgan 34 yil mobaynida O‘zbekistonda yuzlab huquqiy hujjatlar, konstitutsiyaviy islohotlar, kodekslar, xalqaro shartnomalarga asoslangan huquqiy baza yaratildi. Bu jarayonda parlament va uning fraksiyalari faol ishtirok etdi, qonun ijodkorligi sohasi sifatida shakllandi.

Deputat sifatida men ta’kidlamoqchiman: har bir huquqiy islohot ortida fuqaro manfaati, jamiyatning barqarorligi va kelajak taraqqiyoti yotadi. Mustaqillikning har bir yili — yangi qonun, yangi institut, yangi huquqiy g‘oya bilan to‘ldi.

Yangi O‘zbekiston g‘oyasi — bu endi faqat davlat siyosatining yo‘nalishi emas, balki fuqarolik dunyoqarashi, shaxsiy mas’uliyat va huquqiy ongning ifodasidir. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “har bir inson, har bir fuqaro uchun” tamoyili asosida davlat islohotlarini amalga oshirish — huquqshunoslarning ham ilmiy va amaliy mas’uliyatiga aylanmoqda. Mustaqillikni munosib kutib olish va nishonlashda, albatta, fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, tarixiy qadriyatlar va huquqiy merosni chuqur anglash ham muhim o‘rin tutadi. Bu vazifalarni ado etishda, xususan, ta’lim muassasalari, akademiyalar, qonunchilikni targ‘ib qiluvchi faollar ishtirokini yanada kuchaytirish zarur. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yillik bayrami arafasida yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida yoshlarning o‘rni va ishtiroki bundan-da katta ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning 2025

yil 1 iyulidagi qarorida ta’kidlanganidek, istiqlol g‘oyasi – Yangi O‘zbekistonni barpo etish g‘oyasi bilan uyg‘unlashib ketmoqda. Bu yo‘lda eng katta tayanch – bilimli, vatanparvar va tashabbuskor yoshlardir. Barchamizga ma’lumki, 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvi tarixiy voqelik sifatida jamiyatning eng muhim salohiyat manbasi – yosh avlodga yuksak ishonch bildirish aktidir. Ushbu uchrashuvda Prezident tomonidan faol yoshlarga davlat mukofotlari topshirildi, ularning tashabbuslari, yutuqlari va muammolari yuzasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot bo‘lib o‘tgan edi. Bu muloqot – rasmiy nutqdan ko‘ra, insoniy hamdardlik va fidokorlikni ulug‘lagan, ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishi sifatida yoshlar siyosatini belgilab berdi. Aynan mazkur qarorda ham ta’lim sohasidagi islohotlar ilgari tariximizda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib kelgani, “Yoshlar – Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni, IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban o‘g‘il-qizlarimiz turli sohalarda dastlabki quvonchli yutuqlarga erishishi uchun yaratilgan sharoitlar ham qayd etilgan. Jumladan, yoshlar siyosati – Yangi O‘zbekistondagi strategik ustuvor vazifa bo‘lib, prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Har qanday davlat, har qanday xalq bizga havas qilsa arziydi – chunki bizda ilmli, g‘ayratli, aql-zakovatli yoshlar bor!”. Bu so‘zlar faqat so‘z emas – amaldagi milliy strategiya asosidir. Buni quyidagi yo‘nalishlar orqali ko‘rish mumkin: Birinchi galda e’tibor bersak, yangi O‘zbekistonda ilm va ta’lim – asosiy sarmoya sifatida e’tirof etilgani “Top-10” universitetlarda 30 nafar, “Top-100” universitetlarda 500 nafar, “Top-300” talikda 1500 nafardan ortiq yoshlarimiz tahsil olayotganida ko‘rish mumkin. Bu ko‘rsatkichlar – mamlakatimizdagi ta’lim islohotlarining real natijasidir. Ayniqsa, “El-yurt umidi” jamg‘armasi, davlat grantlari va chet eldagi stajirovkalar sonining ortishi yoshlar uchun yangi dunyo eshiklarini ochmoqda. Ikkinchidan, innovatsiya va biznes uchun ham keng imkoniyatlar kengaygan davr desak, ayni haqiqat bo‘ladi. E’tibor bering, 145 million dollarlik venchur mablag‘lar, “Mohirlik va biznes soati”, 100 milliard so‘mlik grantlar, Yangi ish o‘rinlari – 292 mingtaga yetganining o‘zi amaliy isbotdir. Bu faktlar – Prezident qarorida nazarda tutilgan yangi istiqlol tafakkurini hayotga joriy etishga xizmat qilmoqda. Startap madaniyati va tadbirkorlik ruhini tarbiyalash – milliy iqtisodiyotimizning yoshlar orqali yangilanishi demakdir. Quvonarli jihati, “Kelajak liderlari” dasturi orqali har yili 100 nafar iqtidorli yosh yigit-qiz davlat boshqaruvi, parlament, hokimliklar va xalqaro maydonda stajirovkadan o‘tib, rahbarlikka tayyorlanadi. Bu – davlat xizmatidagi shijoat va shaffoflik tamoyilining amaliy namunasidir. Milliy qadriyatlarimiz uyg‘unligida amalga oshirilayotgan islohotlarda “Birorta bolani yo‘qotmaslik kerak” degan da’vat mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati uchun yo‘l xaritasiga aylandi. 9 mingdan ortiq yoshlar yetakchilari, mahallalardagi “Yoshlar daftari” va “Har bir yoshga – e’tibor” dasturlari haqiqiy jonli muammolarga jonli yechimlar taklif qilmoqda. Zero, bugungi yosh – kelajak rahbari, olimi, tadbirkori, himoyachisi va islohotchisi ekanini unutmasligimiz kerak. O‘zbekiston BMTning “Youth – 2030” strategiyasini samarali amalga oshirayotgan 10 davlat qatorida. Buxoro va Toshkent shaharlarining xalqaro yoshlar poytaxti sifatida tan olinishi esa yurtimizning yoshlar siyosati samaradorligini namoyon etmoqda. Darhaqiqat, 34 yil muqaddam mustaqillik bayrog‘i ko‘tarilganida xalqimiz tarixiy imkoniyat eshigini ochgan edi. Bugun esa mazkur istiqlolni mustahkamlaydigan, uni ertangi avlodga o‘tadigan asosiy kuch – bilimli va yurtsevar yoshlardir.

Mustaqillikning 34 yilligi — nafaqat davlatimizning erkin taraqqiyot yo‘lidagi tarixiy bosqichi, balki mahallaning xalq xizmatchisi sifatida qayta jonlanishini anglatadi. Har bir mahalla tinch va xavfsiz bo‘lsa, har bir xonadon farovon bo‘lsa — bayram xalqning qalbida, hayotida bo‘ladi. Mahalla institutini zamonaviy boshqaruv, raqamli xizmatlar, profilaktika va tahlilga asoslangan tizim bilan boyitish – bu istiqlolning yangi bosqichdagi samarasi, fuqarolar manfaatlari ustuvor bo‘lgan davlat qurish sari tashlangan yana bir muhim qadamdir. Quvonarli tomoni, mahalla tizimidagi bunday yangicha tizim joriy yilda BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida tashkil etilgan “Mahalla instituti – aholi bilan davlat o‘rtasidagi muhim ijtimoiy ko‘prik” mavzusidagi nufuzli xalqaro anjumanda O‘zbekiston tajribasi katta qiziqish uyg‘otdi. Mazkur anjumanda UNDP, UNICEF, UNFPA, KOICA kabi xalqaro tashkilotlar vakillari mahalla tizimi orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoshlar va

ayollar manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda erishilayotgan natijalarni yuqori baholandi. O‘zbekiston yil sayin nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, balki madaniy hayotda ham xalqaro sahnaga faol qadam tashlamoqda. Turli hududlarda o‘tkaziladigan milliy va xalqaro darajadagi festivallar, musobaqalar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mamlakatimizning boy madaniy merosi va zamonaviy salohiyatini jahonga namoyon etmoqda. 2025 yil — O‘zbekistondagi madaniy hayot qaynoq pallaga chiqdi. Davlat siyosatidagi ma’naviy yuksalish, turizm salohiyatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘z mevasini bermoqda. Buni respublikamizdagi festivallar statistikasi ham yaqqol tasdiqlamoqda. 2025 yil — Farg‘ona viloyatida “Kitobxonlik yili” deb e’lon qilindi. Bu tashabbus viloyat hokimligining ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirayotgan islohotlarining muhim yo‘nalishidir. 2025 yil aprel oyidagi “Farg‘ona bahori” xalqaro gulchilik festivalida Turkiya, Niderlandiya va Xitoydan gulchilik kompaniyalari qatnashgan bo‘lsa, Andijonning Xonobod shahrida o‘tkaziladigan “Dunyo sadolari” xalqaro festivali — bu nafaqat madaniy hodisa, balki mustaqil O‘zbekistonning dunyoga yuz tutgan, ochiq, bag‘rikeng va madaniyatlar muloqotini qo‘llab-quvvatlovchi siyosati samarasidir. Navoiy viloyati Xatirchi tumanida har yili o‘tkaziladigan “Sahro baxshilari” festivali — xalq og‘zaki ijodi va baxshichilik san’atini asrab-avaylashga qaratilgan muhim tadbirlardan biri. U Xatirchining Oltinsoy mahallasidagi Po‘lkan shoir xiyobonida o‘tkaziladi — bu joyning o‘zi xalq qo‘shiqlari va afsonalarining go‘yoki beshigi hisoblanadi. Ushbu festival YUNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan baxshichilik san’ati bilan tanishishni xohlaganlar uchun benazir imkoniyatdir. Baxshilarning na’rasi, dutor va qashqar rubobining sadosi sahroda yangrab, milliy ruhni uyg‘otmoqda. YUNESKO tomonidan baxshichilik va og‘zaki meros insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida tan olingani — bizning xalqimiz uchun iftixordir. Buxoro shahrida har yili an’anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Ipak va ziravorlar” xalqaro festivali nafaqat rang-barang tadbirlar, balki yurtimizning sayyohlik salohiyatini keng namoyon etuvchi muhim voqealik sifatida ham yuksak baholanmoqda. FESTIVAL “Ming bir kecha” ertaklarini eslatuvchi an’anaviy bozor muhitini yaratib, Arkdan “Labi hovuz”gacha bo‘lgan tarixiy hududni hunarmandchilik, gastronomiya, musiqa va xalq uslubidagi ko‘ngilochar tadbirlar bilan to‘ldirayotgani yil sayin xorijlik mehmonlar safini kengaytirmoqda.

Bu kabi xalqaro miqyosli anjumanlar tashqi va ichki turizmning yuksalishiga xizmat qilishi tabiiy. Shu bois, havo va temir yo‘l aloqalarining yanada rivojlanishi juda muhim. Ayniqsa, “Afrosiyob” va “Sharq” kabi zamonaviy tezyurar poyezdlar faoliyati bu boradagi yuqori standartlarni ta’minlamoqda.

Ayni paytda, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘zbekiston Mustaqilligining 34 yilligi arafasida temir yo‘l sohasida amalga oshirilayotgan yangilanishlar buning yorqin ifodasidir. “Sharq” tezyurar poyezdida joriy etilgan zamonaviy vagonlar nafaqat texnik jihatdan qulay, balki ma’naviy-ma’rifiy muhit yaratish borasida ham alohida ahamiyatga ega.

Bu nafaqat transport tizimidagi yutuq, balki umummilliy ma’naviy yuksalishning, Vatanga muhabbat va mehnatga sadoqat ruhining namoyonidir. E’tibor beringa,

u poyezddagi har bir shart-sharoit — xalq uchun, millat uchun, Vatan uchun xizmat qilish shioriga hamohang tarzda tashkil etilgan. Yo‘lovchilarni qarshi oluvchi vagon ichidagi zamonaviy dizayn, tozalik, qulayliklar bilan bir qatorda, davlat ramzlarimiz, tarixiy buyuk siymolarning so‘zlari, “Vatan uchun — fidoyilik, millat uchun — sadoqat, xalq uchun — xizmat” kabi ma’naviy shiorlarning mavjudligi diqqatga sazovordir. Ayniqsa, “Sharq” tezyurar poyezdidagi zamonaviy vagonlar nafaqat texnik jihatdan, balki ma’naviy-ma’rifiy ruhda ham yuksak ahamiyat kasb etmoqda. “Sharq” tezyurar poyezdi — O‘zbekiston temir yo‘llarining yuz tuzi, yuksak qulaylik va zamonaviy xizmat turlari bilan farqlanadigan yo‘lovchi poyezdi hisoblanadi. Unga so‘nggi yillarda yangi, konditsionerlar bilan jihozlangan zamonaviy vagonlar qo‘shildi. Bu vagonlar to‘xtaganda ham havo almashinuvini ta’minlaydigan tizimga ega bo‘lib, yo‘lovchilar uchun harorat muvozanati saqlanadi. Poyezdda VIP, biznes, ekonom, restoran va oddiy vagonlarim mavjud. Yo‘lovchilarga yaratib berilayotgan sharoitlar yurtimizdagi ulkan o‘zgarishlar va inson qadriga berilgan e’tiborning yorqin namunasidir. Har bir yo‘lovchi — ehtirom va e’tibor markazida. Odamlar o‘zida bir ehtirom, bir g‘amxo‘rlikni his qiladi.

Har bir qilinayotgan harakat, har bir

qurilayotgan yo‘l, har bir yaratilayotgan qulaylik – inson uchun, xalqimiz uchun. Shu sababdan ham: Xalq rozi bo‘lsa, jamiyatda barqarorlik bo‘lib, davlat mustahkam, istiqbol porloq bo‘ladi!

Shuningdek, O‘zbekiston Konstitutsiyasining 25-moddasiga asosan, inson hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati daxlsiz va oliy qadriyat hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasiga katta e’tibor qaratildi. Jumladan, «Inson qadri uchun» tamoyili asosida 2022–2026 yillarda sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Yangilangan «Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida»gi qonun (2023) asosida tibbiyot muassasalari faoliyati shaffoflashtirildi. Tumanlardagi markaziy poliklinikalar rekonstruksiya qilinmoqda, yangi yuqori texnologiyali shifoxonalar qurilmoqda. Ayniqsa bolalar, onalar, nogironligi bor shaxslar uchun maxsus tibbiy xizmatlar ko‘lami kengaymoqda. Bolalar uchun bepul emlanish va tibbiy ko‘riklarning hamda ayollar uchun perinatal markazlar, “Oila poliklinikasi” loyihalarining yangi tizimlari xalqimiz uchun yaratilgan qula sharoit va imkoniyatlardir. Onlayn tibbiyot (telemeditsina), raqamlashtirish va elektron tarixlar joriy qilindi. Xalq uchun qulaylik va shaffoflik yaratildiki, sog‘liqni saqlash sohasida «Inson manfaati – bosh maqsad» tamoyilini hayotga tatbiq etish natijasida bemorlarning huquqlari himoya qilinmoqda. Tibbiy xizmatlar sifatini baholashda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari faol ishtirok etmoqda. Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida bu haqda norma bo‘lib, unda: “Davlat faoliyati inson va jamiyat farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash – davlatning oliy majburiyatidir.”-deyilgan. Bu norma davlat organlari, hokimiyat va rahbariyatning har bir qarorini inson manfaati nuqtayi nazaridan baholashini talab etadi. Kam ta’minlangan qatlam uchun uy-joy, subsidiya, ish o‘rinlarining yaratilayotganligi, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun infratuzilmani moslashtirilayotganligi, mahalla yettiligining faoliyati hamda pensionerlar va keksa insonlarga yo‘naltirilgan davlat kafolatlari shular jumlasidandir.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar markazida – inson sha’ni, qadr-qimmati turganini O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Inson qadri uchun” tamoyili biz uchun asosiy yo‘nalish bo‘lib qoladi. Har bir sohada — ta’lim, sog‘liqni saqlash, fuqarolik xizmatlari, sud-huquq, bandlik va boshqalarda inson markaziy subyekt sifatida qaralmoqda. Davlat qabul qilinayotgan qonunlar orqali jumladan, “Davlat xizmati to‘g‘risida”, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”, “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi qonunlar inson huquqlarini ta’minlashning qonuniy mexanizmlarini belgilab bergan. Inson huquqlarini himoya qilish uchun esa, nazorat organlarimiz faoliyat yuritmoqdaki ya’ni, Ombudsman, Inson huquqlari milliy markazi, Sudlar, Prokuratura, mahalliy kengashlar va jamoatchilik nazorati organlari faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan. Har bir inson murojaatini ko‘rib chiqish majburiyati uchun ham alohida tizim yaratilgan. Jumladan, (Prezident virtual qabulxonasi, Ombudsman.uz, 1146 va h.k...

Eng asosiysi, inson manfaati har narsadan ustunligi ta’minlashga doir Davlat dasturlari e’lon qilinishi, aniq vazifalar asosida muammolarning o‘rganilishi va hal etilishining o‘zi mustaqillik bergan oliy ne’matdir. “Ijtimoiy soha 2022–2026”, “Huquqiy ong va madaniyatni oshirish”, “Sog‘lom avlod”, “Yangi O‘zbekiston – inson qadri” kabi davlat dasturlari orqali inson manfaatlarini himoyalash tizimli tus olgan. Har bir inson manfaati davlat nazoratida degan g‘oya bugungi O‘zbekistonning bosh g‘oyasiga aylangan. Bu har bir normativ-huquqiy hujjat, davlat dasturi va amaldagi qarorlarda o‘z ifodasini topgan amaliy siyosatdir. Yangi O‘zbekistonni qurish – hech qanday tasodif emas, balki inson kapitalini yuksaltirishga qaratilgan aniq, maqsadli siyosatdir. Bu siyosatning markazida – yoshlar turibdi”, deyiladi Prezident qarorida. Shu sababdan ham, yoshlar endi faqat “muammo obyekti” emas, **davlat siyosatining faol subyekti** sifatida maydonda. Ular o‘z orzusini yurtining maqsadlari bilan uyg‘unlashtirgan avloddir. Ularning imkoniyati – bu millatning kelajagidir. 34 yil muqaddam qo‘lga kiritilgan istiqlol — bu jo‘shqin hissiyot emas, balki qat’iy huquqiy asos, ma’naviy mas’uliyat va kelajak avlodga bo‘lgan ta’limiy majburiyatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya esa ushbu istiqlol g‘oyalarini mustahkamlovchi va huquqiy shaklda ifodalovchi asosiy hujjat sifatida tarixga kiradi. 34 yillik mustaqil taraqqiyot — bu shunchaki yillar qatori emas, balki inson qadrini yuksaltirish, tinchlikni asrash va milliy o‘zlikni qayta kashf etishga qaratilgan islohotlar sinovidir. Yangi O‘zbekiston davrida qabul qilingan Konstitutsiya xalq irodasini va manfaatlarini ifoda etuvchi, huquqiy davlatning poydevori bo‘lib xizmat

qilmoqda. Unda “inson uchun davlat” tamoyili nafaqat nazariy, balki amaliy voqelikka aylandi.

Huquqshunos olima sifatida ishonch bilan ayta olaman: bugungi O‘zbekiston o‘zining huquqiy va siyosiy tajribasini xalqaro maydonda namoyon etishga, inson huquqlari, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini nafaqat rivojlantirish, balki amalga oshirishga tayyor. Mustaqillik — bu imkoniyat, Konstitutsiya — bu kafolat, xalq — bu asosiy bag‘rikeng kuchdir.

Аннотация. В статье анализируются правовые, политические и социальные реформы, осуществляемые в Узбекистане в честь 34-летия независимости. Особое внимание уделено роли новой редакции Конституции, молодежной политики, реформ в сферах образования, здравоохранения, института махалли, культуры и туризма в реализации государственной политики, ориентированной на интересы человека. Работа подчеркивает приоритет человеческого достоинства в построении правового государства и гражданского общества.

Ключевые слова: независимость, новая Конституция, интересы человека, молодежная политика, правовое государство, гражданское общество, образовательные реформы, махалля, национальные ценности.

Annotation. This article analyzes the legal, political, and social reforms carried out in Uzbekistan on the occasion of the 34th anniversary of independence. Particular attention is paid to the role of the newly revised Constitution, youth policy, education and healthcare reforms, the institution of mahalla, as well as cultural and tourism development. The author emphasizes the importance of human dignity and interests as the cornerstone of modern state policy, legal reforms, and civil society in the New Uzbekistan.

Key words: Independence, New Constitution, human interests, youth policy, rule of law, civil society, educational reforms, mahalla, national values.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедов, А. А. Конституционное развитие Узбекистана в условиях модернизации общества. – Ташкент: Юридическая литература, 2022. – 214 с.
2. Мирзиёев, Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022. – 432 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Адолат”, 2023.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 22 июлидаги қарори – www.lex.uz
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 ноябрдаги қарори – www.lex.uz
6. Қурбонов, А. И., Ҳамидов, Б. Ж. Инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари: миллий ва халқаро ҳимоя воситалари. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 198 б.
7. Саидов, А. Х. Ўзбекистон – ҳуқуқий демократик давлат: конституциявий ислоҳотлар ва халқаро амалиёт. – Тошкент: ИҚТИСОД-МОЛИЯ, 2023. – 256 б.
8. Хўжаева, Ф. М. Фуқаролик жамияти ва инсон манфаати: назария ва амалиёт. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2022. – 160 б.
9. Human Rights Watch. World Report 2024: Uzbekistan. – New York: HRW, 2024.
10. United Nations Development Programme (UNDP). Youth Strategy 2030: Global Progress Report. – New York: UNDP, 2024.

O‘ZBEKISTONDA ICHKI ISHLAR ORGANLAR RUXSAT BERISH TIZIMINING ZARURATI: MUAMMOLAR VA ISLOHOTLAR TAHLILI

Ismailov Isamiddin,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universtiteti professori, yuridik fanlar doktori, professor

Kasimov Davron,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi Departamenti Jamoat tartibini saqlash xizmati bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, huquqiy asoslari hamda sohadagi islohotlar tahlil qilinib, uning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlari tadqiq etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, nazorat-litsenziyalash faoliyati, jamoat xavfsizligi, davlat nazorati, huquqiy islohotlar, qurol muomalasi, ruxsat berish tizimi, litsenziyalash, ma’muriy huquq, xavfli faoliyat turlari, ichki ishlar tizimi.

Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash tizimi davlat boshqaruvining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanib, xavfli faoliyat turlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirishda tashkiliy-huquqiy mexanizm sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur institutning shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishini huquqiy hamda tarixiy nuqtai nazardan uning tashkiliy-huquqiy bazasini har tomonlama o‘rganish, shuningdek, amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg‘un holda chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining barcha tarixiy rivojlanish bosqichlarida qurol va portlovchi moddalar muomalasini tartibga solish hamda ushbu faoliyatni nazorat qilishda ruxsat berish choralarini qo‘llash huquqni muhofaza qilish sohasidagi samarali davlat ta’sir choralaridan biri sifatida xizmat qilgan va jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Bu jarayonda ruxsat berish chora-tadbirlarining amaliyotga joriy etilishi davlat tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tizimining shakllanishiga huquqiy asos va amaliy zarurat sifatida xizmat qilgan.

Litsenziyalash va ruxsat berish tizimi — belgilangan qonunchilik asosida tartibga solinadigan, faqat tegishli litsenziyalar va ruxsatnomalar orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlarini davlat nazorati ostida yuritishga qaratilgan kompleks tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni o‘zi ichiga oladi. Ushbu tizim foydalanish, saqlash yoki muomalasiga maxsus tartib belgilangan predmet va moddalar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ talablar, huquqiy standartlar va ma’muriy shartlar, shuningdek ularga rioya etilishini ta’minlovchi institutsional tuzilmalar majmuidan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda mustaqillikka erishgach, davlat suverenitetining mustahkamlanishi, iqtisodiy va ma’naviy tiklanish hamda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar ichki ishlar organlari faoliyatida ham o‘z aksini topdi. Jumladan, iqtisodiy munosabatlardagi tub o‘zgarishlar, xilma-xil mulkchilik shakllarining yuzaga kelishi va texnik taraqqiyot yangi turdagi jinoyatlar sodir etilishini taqozo etuvchi omillarning ko‘payishiga olib keldi. Bu esa, o‘z navbatida, huquqbuzarliklar va jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini kuchaytirish, ichki ishlar organlarining tashkiliy-huquqiy tuzilishi va faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularning vazifalarini zamonaviy talablar asosida aniq belgilash va faoliyatini yagona vertikal boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Bu sohada islohotlarni amalga oshirish maqsadida 1991-yil 25-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 270-sonli qaroriga [10] muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi Nizom hamda uning markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Shuningdek, jamoat tartibini ta’minlash bo‘yicha maxsus vakolatli tuzilma — Jamoat tartibini saqlash xizmati tashkil etildi va uning tarkibida

Ruxsat berish tizimi bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu qaror bilan, ichki ishlar organlari ruxsat berish tizimiga: *birinchidan,* qonunchilikka muvofiq o‘t ochish va sovuq qurollar, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, kuchli ta’sir etuvchi zaharli, narkotik va radiaktiv moddalarni sotib olish, saqlash va tashishni, o‘q otish tirlari va otishma joylarini, qurol-yarog‘larini tuzatish va pirotexnika korxonalari, ov va sport qurollari bilan savdo qiluvchi do‘konlarni ochishni va ularning ishlarini nazorat qilib borish; *ikkinchidan,* belgilangan tartibda poligrafiya hamda shtempel-gravyura korxonalarini ochish va ularning ishini, shuningdek, poligrafiya asbob-uskunalarini sotib olish hamda muhr va shtamplarni tayyorlashni nazorat qilib borish vazifalari yuklatildi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘sha vaqtda matbaa uskunalarini hisobga olish va ulardan foydalanishni nazorat qilish, xavfsizlik talablariga rioya qilish va matbaa korxonalari xodimlarini tekshirish tartibi sobiq Ittifoq davlati 1978-yil 13-fevraldagi 34-son buyrug‘i [11] asosida amalga oshirilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, iqtisodiyotni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan sobiq ittifoqdan saqlanib kelayotgan bir qator ruxsat berish tartiblari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 25-avgustdagi PQ-1604-son qaroriga [7] muvofiq bekor qilingan. Mazkur qarorga asosan 2011-yil 1-sentabrdan boshlab Ichki ishlar vazirligi tomonidan quyidagi amalga oshiriladigan ruxsat berish tartibotlari bekor qilindi:

poligrafiya korxonasi ochish va faoliyat yuritishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 41-bandi];

tamg‘a-o‘ymakorlik ustaxonalari ochish va faoliyat yuritishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 42-bandi];

poligrafiya asbob-uskunalari xarid qilishga ruxsatnoma [qarorga 1-ilovaning 43-bandi].

Respublikamiz o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish, dunyo hamjamiyati bilan uyg‘un rivojlanish tamoyillari asosida ichki ishlar organlari tizimida ham tub islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda. Ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziya tizimi sohasida amalga oshirilgan islohotlarni bir necha bosqichga ajratgan holda tadqiq etishga harakat qilamiz.

Islohotlarning *birinchi bosqichi* 1999–2001 yillarni o‘z ichiga olib, bu bosqichdagi islohotlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12 apreldagi “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlash konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori boshlab berdi va 2001-yilning 27-martida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [13; 81, 87-b.] bilan Poytaxtda o‘tkazilgan islohotlarning ijobiy tajribalari respublikaning barcha hududlaridagi ichki ishlar organlari faoliyatiga ham tatbiq etilgan.

Mazkur farmon doirasida islohotlarning *ikkinchi bosqichi* boshlanib, uning talablarini amaliyotga joriy etish borasida ichki ishlar organlarining yetakchi sohaviy xizmatlaridan biri bo‘lgan Jamoat tartibini saqlash xizmatini qayta tashkil etish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasining 2001-yildagi qarori [13; 84-87-b.] qabul qilinishining huquqiy asoslarini yaratib bergan.

Ushbu qarorga muvofiq ichki ishlar organlarining Patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmatlari fuqarolar xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, jinoyatni va huquqbuzarlikni oldini olish tizimida yetakchi o‘rin tutishi belgilanib, Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi - Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Jamoat tartibini saqlash boshqarmasining *ruxsat berish tizimi bo‘limiga – Saf* bo‘linmalarini hududiy muvofiqlashtirish, jamoat tartibini ta’minlash va nazorat-litsenziyalash tizimi faoliyatini tashkil etish boshqarmasining *nazorat – litsenziyalash faoliyatini tashkil etish bo‘limi* maqomi berildi.

Nazorat-litsenziyalash faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan sobiq Ittifoq Ichki ishlar vazirligining 1987-yildagi buyrug‘i bilan tasdiqlangan yo‘riqnoma bekor qilinib, bu sohadagi faoliyatni tartibga soluvchi O‘zbeksiton Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001-yildagi buyrug‘i qabul qilindi.

Bundan tashqari, o‘qotar qurol va o‘q-dorilar muomalasini nazorat qilish sohasini tartibga solib kelgan sobiq Ittifoq davlati Ichki ishlar vazirligining buyrug‘i o‘rniga, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining buyrug‘i [12] qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirish, aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatish, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat

qilish”ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi islohotlar *uchinchi bosqichini* boshlab berdi.

2016-yilda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor qonun [1] qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalishlari va tamoyillari belgilab berildi. Xususan, qonunning 4-moddasiga muvofiq nazorat-litsenziyalash faoliyati bilan bog‘liq quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilandi:

fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o‘q-dorilarining, sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarning, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish sohasini nazorat qilish;

litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarini berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilishi.

Shuni alohida qayd etish joizki, tahlil qilinayotgan davrda keng ko‘lamli islohotlarning huquqiy asosi sifatida tizim samaradorligini oshirish bo‘yicha 6 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 dan ziyod farmon, qaror va farmoyishlari hamda 150 dan ortiq Hukumat va idoraviy huquqiy hujjatlari qabul qilindi [14]. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmonida [3] keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari belgilab berildi. Farmon bilan “Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi” ham tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi qarori [9] bilan Ichki ishlar vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi hamda unda nazorat-litsenziyalash faoliyati bilan bog‘liq asosiy vazifalar va funksiyalar belgilandi.

Shuni alohida e’tirof etish joizki, ichki ishlar organlari nazorat-litsenziyalash faoliyati bo‘linmalarning tashkiliy-huquqiy ta’minlashni ham nazarda tutgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi PQ-2940-son qarori [8] qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasining tarkibiy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligi belgilangan Nizom tasdiqlangan(hozirgi kunda o‘z kuchini yo‘qotgan).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash, ortiqcha byurokratik jarayonlarni tubdan qisqartirish, xususiy mulkning daxlsizligini himoya qilish va kafolatlashning bozor hamda huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash maqsadida islohotlarning mazkur bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 11-apreldagi PF-5409-son Farmoni [4] qabul qilinib, unga asosan 2018 yil 1 iyundan boshlab Ichki ishlar vazirligi *Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi Nazorat-litsenziyalash faoliyati bo‘linmalari* tomonidan beriladigan litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarning quyidagi turlari bekor qilindi:

- narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarni tashishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 17-band]

- fuqarolarni narkotik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar aylanishi bilan bog‘liq ishlar bilan shug‘ullanishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 19-band]

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga aluminiy kukunlari va tangachasimon plastinalar (TIF TN kodlari 76 0310 0007 6032 0000)ni olib kirishga ruxsatnoma; [qarorga 1-ilova, 20-band]

- muhr va shtamplarni tayyorlashga ruxsatnoma va yo‘q qilish to‘g‘risidagi kvitansiya (O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan muhrlar bundan mustasno) [1-ilova, 34, 35-band].

Bundan tashqari, ushbu Farmon bilan 2018-yil 1-iyundan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pirotexnika buyumlari (harbiy ahamiyatdagi mahsulotlardan tashqari) ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, foydalanish, yo‘q qilish va utilizatsiya qilish” faoliyatini litsenziyalash bo‘yicha funksiyalarni Ichki ishlar vazirligiga o‘tkazildi [qarorga 4-ilova, 2-band].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tahlil qilinayotgan davrda, qurol muomalasini tartibga solgan normativ-huquqiy hujjatlarda sohaga oid ko‘pgina huquqiy qoidalar tarqoq holda belgilanganligi, huquqiy bo‘shliqlarning mavjudligi, ularni tatbiq etish borasida jiddiy to‘sqinliklarga sabab bo‘lib, ularni yagona tamoyil asosida birlashtirish zaruratini vujudga keltirdi.

Bundan tashqari “qurol”, “qurol turlari”,

“qurolning tarkibiy qismlari” kabi muhim tushunchalar qonunchilikda aks ettirilmaganligi o‘z navbatida ma’lum qurol turlarini saqlash va olib yurish holatlariga to‘g‘ri huquqiy baho berish va huquqni qo‘llash amaliyotida qiyinchiliklarni tug‘dirib kelganligi sababli, 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasining “Qurol to‘g‘risida”gi qonuni [2] qabul qilindi.

Ushbu qonunga asosan, fuqaroviy va xizmat qurolini hamda uning o‘q-dorilarini, o‘qotar qurolning asosiy qismlarini ishlab chiqarish, ta’mirlash, realizatsiya qilish, olish, hisobga olish, saqlash, olib yurish, tashish, kolleksiyalash, ko‘rgazmaga qo‘yish, ulardan foydalanish, ularni olib qo‘yish, yo‘q qilish, O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va O‘zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish, shuningdek ularni O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilishga doir ruxsatnoma olish tartib-taomillari belgilandi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, islohotlarning mazkur bosqichida sanoat uchun mo‘ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarning, ular analoglarining, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalasi bilan bog‘liq davlat nazorati qonunchilik hujjatlari bilan ichki ishlar organlari nazorat-litsenziyalash faoliyati tizimida saqlanib qolingan holda, qonunchilik hujjatlariga muvofiq 2019-yil 1-martdan boshlab shaxsiy va idoraviy o‘qotar qurol va uning o‘q-dorilari muomalasi sohasida litsenziyalash va ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishini nazorat qilish bo‘yicha vazifalar ichki ishlar organlaridan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tizimiga o‘tkazish, amaliyotda bir qator tizimli muammolarni keltirib chiqardi.

Birinchidan, qurol muomalasini nazorat qilish, profilaktika tadbirlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek ushbu yo‘nalishdagi noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan yagona boshqaruv tizimi yo‘qoldi.

Ikkinchidan, olib qo‘yilgan, ixtiyoriy ravishda topshirilgan yoki topilgan qurollar va ularning o‘q-dorilarini qabul qilish, saqlash, hisobga olish, yo‘q qilish hamda realizatsiya qilish jarayonlarini huquqiy tartibga soluvchi amaldagi mexanizmning samarali faoliyati izdan chiqqanligi kuzatildi.

Sohada vujudga kelgan mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida, 2020 yil 8 apreldagi alohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq fuqaroviy va xizmat quroli hamda uning o‘q-dorilari muomalasi sohasini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish Ichki ishlar vazirligining vakolatlari doirasiga qaytadan o‘tkazildi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Farmoni [5] qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probatsiya xizmatini o‘z ichiga oladigan Jamoat xavfsizligi departamenti tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni [6] bilan Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi – Jamoat tartibini saqlash xizmati sifatida qayta tashkil etildi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishining barcha tarixiy bosqichlarida ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash faoliyati huquqni muhofaza qilish sohasidagi ta’sirchan va samarali mexanizmlardan iborat institut sifatida shakllangan bo‘lib, u jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, hozirgi vaqtda qonunchilik hujjatlariga kiritilayotgan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar mamlakatda litsenziyalash va ruxsat berish tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mazkur sohadagi davlat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka muvofiq, litsenziyalash va ruxsat berish jarayonlarini samarali tashkil etish hamda ichki idoraviy nazoratni amalga oshirishga oid huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan.

Uchinchidan, ichki ishlar organlarining nazorat-litsenziyalash faoliyati tizimi Ichki ishlar vazirligi tuzilmasining ajralmas va funksional jihatdan mustaqil bo‘g‘ini sifatida jamoat tartibini ta’minlash, xavfli faoliyat turlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish kabi vazifalarni samarali bajarib kelmoqda.

Mamlakatimizda maxsus ma’muriy-huquqiy tartib o‘rnatilgan predmetlar va moddalar muomalasi sohalariga oid ruxsat berish tizimining tarixiy tajribasini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, mazkur yo‘nalishlar jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta’minlash bilan

chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, doimo davlatning alohida va qat’iy nazoratida bo‘lishini talab etgan. Mazkur sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar esa mazkur tizimning tashkilish-huquqiy asoslarini jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tezkor, xolis va zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatini yaratib berayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, nazorat-litsenziyalash tizimi davlat nazoratining ajralmas tarkibiy qismi sifatida, jinoyatchilikning oldini olish, xavfli faoliyat turlari ustidan tizimli monitoring o‘rnatish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashning eng samarali vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, kelgusida nazorat-litsenziyalash tizimining tashkiliy va huquqiy asoslarni takomillashtirish, xususan, amaldagi qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish hamda ichki ishlar organlari vakolatlarini aniqlashtirish bo‘yicha islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития контрольно-лицензионной системы органов внутренних дел Республики Узбекистан, правовые основы и осуществляемые реформы, а также исследуется роль данной системы в обеспечении общественной безопасности и перспективные направления её дальнейшего развития.

Крючевые слова: контрольно-лицензионная деятельность, органы внутренних дел, милиция, независимость, правовая реформы, оборот оружия, государственный контроль, лицензирования, система внутренних дел.

Annotation. This article analyzes the stages of formation and development of the control and licensing system of the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan, the legal framework and reforms in the field and examines its role in ensuring public safety and further development directions.

Key words: internal affairs bodies, control-licensing activities, public security, state control, legal reforms, arms circulation, authorization system, licensing, Administrative Law, dangerous activities, Internal Affairs system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги ЎРҚ-407-сон Қонуни https://lex.uz/docs/3027843;

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 июлдаги “Қурол тўғрисида”ги ЎРҚ-550-сон Қонуни https://lex.uz/docs/4445288;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги “Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5005-сон Фармони, https://lex.uz/docs/3159827;

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 11 апрелдаги “Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги лицензиялаш ва рухсат бериш тартиб-таомилларини янада қисқартириш ва соддалаштириш, шунингдек, бизнес юритиш шарт-шароитларини яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5409-сон Фармони, 1-илова, 17, 19, 20, 34 ва 35-позициялари, 4-илова, 2-позицияси, https://lex.uz/docs/3676955;

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6196-сон Фармони, https://lex.uz/docs/5344118;

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-27-сон Фармони, https://lex.uz/docs/5749291;

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 25 августдаги "Бюрократик тўсиқларни бартараф этиш ва тадбиркорлик фаолияти эркинлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-1604-сон Қарори, 1-илованинг 41, 42 ва 43-позициялари, https://lex.uz/docs/1861867;

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 майдаги "Ички ишлар органларининг жамоат тартибини сақлаш ва жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-2940-сон Қарори, https://lex.uz/docs/3202965;

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги "Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида" ПҚ-2883-сон Қарори https://lex.uz/docs/3165013;

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 25 октябрдаги "Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳақида" 270-сон қарори, https://lex.uz/docs/1033174;

11. Приказ МВД бывшего СССР от 13 февраля 1978 года № 34 «Об утверждении Инструкции о порядке открытия штемпельно-граверных предприятий (мастерских) изготовления печатей и штампов» [Электрон манба] https://bookchain.ai/read/dokumenty-1976-1980/1978-02-13-ob-utverdenii-instrukcii-o-poryadke-otkrytiya-shtempelno-gravernyh-predpriyatiy-masterskih-izgotovleniya-pechatey-i-shtampov/1 (мурожаат этилган вақт 30.03.2025 й.);

12. Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 2001 йил 20 августдаги "Ўқотар қурол ва ўқ-дориларни сотиб олиш, ташиш, сақлаш, ҳисобга олиш ва улардан фойдаланиш, совуқ тиғли қуролни тайёрлаш, ўқотар нишонхона, ўқотар-ов стендлари, қурол таъмирлаш устахоналарини очиш, ўқотар қурол ва ўқ-дорилар билан савдо қилиш тўғрисидаги муваққат йўриқномани тасдиқлаш ҳақида"ги 226-сонли буйруғи;

13. И. Исмаилов, Ў.Х. Мухамедов, М.З. Зиёдуллаев, Ж.С. Мухтаров, Б.Э. Закиров, Д.М. Миразов, А.А. Пардиев, А.А. Матчанов, Н.Т. Исмоилов "Ички ишлар идораларидаги ислоҳотлар – тинчлик ва осойишталик гарови: Монография / Масъул муҳаррир Ш.Т. Икрамов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – 81, 84-87 б.;

14. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг тарихи, [Электрон манба] https://www.qriiv.uz/uz/menu/iiv-tarihi (мурожаат этилган вақт 30.03.2025 й.).

KITOB DIPLOMATIYASI – YANGI O‘ZBEKISTON MADANIY DIPLOMATIYASINING MUHIM YO‘NALISHI SIFATIDA

Mirzayev G‘ulom Rizoqulovich ,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedra boshlig‘i o‘rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining muhim yo‘nalishi hisoblangan kitob diplomatiyasi haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan madaniy hamkorlikni shakllanishi va yo‘lga qo‘yilishida kitob diplomatiyasining tutgan o‘rni, roli va ahamiyati tahlil etilgan. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan madaniy hamkorlikni zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimiga mos yangicha ruhda rivojlantirishi va istiqboli masalalari qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganilgan. Kitob diplomatiyasining davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va do‘stlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlaganligi va Shavkat Mirziyoyev tomonidan yangi bosqichga ko‘tarilganligi tadqiq etilgan. Jumladan, O‘zbekistonning xalqaro maydonda milliy madaniyatni targ‘ib qilish, turli xalqlar o‘rtasida madaniy muloqotni kuchaytirish, o‘zaro ishonch va do‘stlik muhitini yaratish hamda tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib etish jihatlari izohlab berilgan. O‘zbekiston misolida kitob diplomatiyasi geosiyosiy muvozanatda madaniyat orqali ta’sir o‘tkazish imkoni va kitob diplomatiyasining bugungi globallashgan dunyoda tinchlik va madaniy muloqot qurilishida muhim rol o‘ynayotganligi hamda madaniy diplomatiyani yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilayotganligi dalillar bilan yoritilgan. Mazkur sohada hamkorlikni rivojlantirishga doir muallifning bir qator takliflari ilgari surilgan va xulosalari berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, kitob diplomatiyasi, “madaniy diplomatiya”, “soft kuch”, “kitob almashinuvi”, milliy adabiyot markazlari, xalqaro kitob ko‘rgazmalari, milliy madaniyat.

Kirish. “Kitob diplomatiyasi” (book diplomacy) atamasi tashqi siyosat maqsadlariga erishish uchun kitoblardan foydalanish va nashriyot faoliyati sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu madaniy diplomatiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, kitoblar va adabiyotlar mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, muayyan g‘oyalarni ilgari surish yoki mamlakatning ijobiy imidjini shakllantirish vositasiga aylanadi [9.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori [2.] ga ko‘ra, Yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro‘-e’tibori va nufuzi qanday yuksalib borishida madaniy diplomatiya, xususan uning tarkibiy qismi Kitob diplomatiyasi muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, kitob diplomatiyasi – davlatlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va do‘stlikni rivojlantirishda kitoblar va adabiyot orqali amalga oshiriladigan diplomatik vosita hisoblanadi. Bu tushuncha “madaniy diplomatiya” yoki “soft kuch” (soft power) tushunchasining bir ko‘rinishi hisoblanadi [10.].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Muammoning o‘rganilganlik darajasini tahlil etar ekanmiz, mazkur masalaga bag‘ishlab mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda kamroq ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligining guvohi bo‘lamiz. Jumladan, ilmiy va publististik maqolalar sifatida ijtimoiy tarmoqlar va saytlardagi ishlarini keltirib o‘tish mumkin. Jumladan, Y.M.Astaxov [5.], Star Frederik [14.], S.N.Gavrov [6.], Y.V.Vasilenko [7.], I.V.Kovalevo [12.], T.V.Kashirina [11.] kabi olimlarning izlanishlarida o‘rganilganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, bularda kitob diplomatiaysi alohida tadqiqot obyekti sifatida chuqur o‘rganilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil usullari. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, content analysis, qiyosiy-tarixiy tahlil, kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Kitob diplomatiyasi haqida tadqiqot olib borar ekanmiz, dastavval ushbu diplomatiyaning quyidagi asosiy maqsadlarini keltirib o‘tish joiz: xalqaro maydonda milliy madaniyatni targ‘ib qilish; turli xalqlar o‘rtasida madaniy muloqotni kuchaytirish; o‘zaro ishonch va do‘stlik muhitini yaratish; tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik g‘oyalarini tarqatishdan iborat.

Madaniyat iqtisodiy, siyosiy, harbiy resurslar bilan bir qatorda tashqi siyosatning eng muhim quroli bo‘lib, ulardan farqli o‘laroq, u mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi, shu bilan birga jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy qarorlar qabul qilish, mamlakatning dunyoda obro‘sini modellashtirishga katta ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini beradi [11.].

So‘nggi o‘n yilliklarda ro‘y bergan o‘zgarishlar zamonaviy davlatlardan tashqi siyosiy faoliyatning ilgari belgilangan strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni, qo‘llanilayotgan tashqi siyosat vositalarini modernizatsiya qilishni, tashqi siyosat muammolarini hal etishning yangi usullarini, shu jumladan xalqaro hamkorlikni samarali mustahkamlashning asosi sifatida madaniy aloqalardan foydalanishga asoslangan, xalqaro munosabatlar va xalqaro darajada o‘zaro hamkorlikning yangi tizimini shakllantirishni talab qildi. Madaniy diplomatiya zamonaviy dunyoda tashqi siyosatni amalga oshirishning eng muhim elementiga aylanib bormoqda va globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni ta’minlash, milliy o‘ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlash, ko‘p markazli dunyo tartibini shakllantirish, millatlararo va millatlararo nizolarga, shuningdek, alohida davlatlar yoki ularning tazyiqlariga qarshi turish muammolarini eng samarali hal qilish imkonini beradi. Hozirgi bosqichda xalqaro faoliyatning yangi shakllari va diplomatik jarayonning rivojlanishi natijasida «diplomatlar birinchi navbatda sivilizatsiyalararo, madaniyatlararo va konfessiyalararo muloqotning professional dirijorlari bo‘lishga chaqiriladi», «professional diplomatiya madaniyatlararo muloqot vositasiga aylanmoqda. O‘z navbatida, madaniyatlararo muloqot bu so‘zning keng ma’nosida diplomatiya bo‘lib, ham davlat, ham davlatlararo diplomatik tuzilmalar hamda nodavlat subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan diplomatiya» [11.].

Madaniy diplomatiya - bu “ichki madaniyat yutuqlari va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir imkoniyatlaridan foydalangan holda tashqi siyosiy vazifalarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan usullar va vositalar majmui”. Hozirgi bosqichda “professional diplomatiya madaniyatlararo muloqot vositasiga aylanib bormoqda. O‘z navbatida madaniyatlararo muloqot bu so‘zning keng ma’nosida diplomatiya bo‘lib, ham davlat, ham davlatlararo diplomatik tuzilmalar hamda nodavlat subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan diplomatiyadir”. Madaniyatdan davlatning tashqi siyosatining quroli sifatida foydalanishning kengayishi tashqi madaniyat siyosati atamasining paydo bo‘lishiga olib keldi, bu “davlatning tashqi siyosiy vazifalarini hal qilish uchun madaniyat yutuqlari va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi” deb tushuniladi [12, 55.].

Madaniy diplomatiya tashabbuslari quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- san’at, jumladan, teatr, kino, musiqa, raqs, rasm, haykaltaroshlik;
- ko‘rgazmalar, shu jumladan xalqaro EXPO ko‘rgazmalari;
- ta’lim dasturlari, akademik va ilmiy almashinuv dasturlari;

chet elda til dasturlari;

- adabiyot: xorijda kutubxonalar tashkil etish va milliy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish;

-xorijda axborot va madaniy dasturlarni translatsiya qilish;

- diniy diplomatiya, shu jumladan dinlararo muloqot tashabbuslarini [7.] o‘z ichiga oladi.

Kitob diplomatiyasining vositalari esa quyidagilardan iborat:

- Adabiyotlarni tarjima qilish va boshqa tillarda nashr etish;
- Xalqaro kitob ko‘rgazmalari, festivallar, forumlar;
- Kitoblar almashish dasturlari, “book exchange”;
- Xorijiy mamlakatlarda milliy adabiyot markazlari ochish;
- Xalqaro tashkilotlar orqali adabiyot loyihalari (YuNESKO, IBBY) joriy etilishi.

Kitob diplomatiyasi tarixi va misollar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni aytish mumkinki, XX asrda sobiq SSSR davrida “Pushkin kutubxonalari” orqali sovet madaniyatini targ‘ib qilish; Amerikada Mark Tven, Xeminguey, Stiven King asarlarini tarjima qilish va tarqatish; Yaponiyada Murakami asarlari orqali zamonaviy Yaponiya haqida

tasavvur uyg‘otishga harakat qilgan.

Zamonaviy misollar doirasida Koreya Respublikasi tomonidan “K-Literature” (koreys adabiyoti)ni globallashtirish; Xitoy tomonidan “Belt and Road Initiative” doirasida xitoycha adabiyotni eksport qilish; Turkiya tomonidan Yunus Emre Institutlari orqali turk adabiyotini tarqatish kitob diplomatiyasining o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi [10.].

O‘zbekistonning mustaqillik davrida madaniy diplomatiyasi siyosiy diplomatiyasiga hamohang shakllanib, rivojlanib bormoqda. Madaniy diplomatiyada kitob diplomatiyasiga alohida e’tibor qaratib kelinayotganligini Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi adabiy mutafakkirlar asarlarini tarjima qilish va tarqatish; “Jahon adabiyoti” jurnali va O‘zbekiston Milliy kutubxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish; Sharq adabiyoti merosini targ‘ib qiluvchi xalqaro tadbirlar (Sharq Taronasi, Navoiy forumi) tashkil etish; YUNESKO bilan hamkorlikda kitob loyihalarini [10.] amalga oshirish kabi tadbirlarda ko‘rish mumkin. Masalan, Milliy kutubxonada, O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida adabiyot sohasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yish va kitob diplomatiyasini yanada mustahkamlash 2016-yil 9-noyabr kuni O‘zbekiston Milliy kutubxonasida ma’naviy-ma’rifiy o‘tkazildi. Ushbu tadbir O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston shoir-yozuvchilarining ijodiy uchrashuviga bag‘ishlandi. Unda turkman delegatsiyasi vakillari – “Miras” radiokanali muharriri M.Sagatov, Turkmaniston Davlat axborot agentligining yetakchi muxbiri M.Kadjarova, “Dünyä edebiyaty (Jahon adabiyoti)” jurnali tahririyati mas’ul kotibi Ye.Geldimuradova, “Edebiyat we sungat (Adabiyot va san’at)” gazetasi tahririyati bo‘lim muharriri M.Yagmurov, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zolari, adabiyotshunoslar va tarjimonlar ishtirok etdilar. Ikki mamlakat shoir va yozuvchilarining ijodiy uchrashuvi o‘zbek va turkman xalqlarining adabiy, musiqiy, madaniy hamda do‘stona aloqalarni mustahkamlash maqsadida o‘tkazilgan O‘zbekistonda Turkmaniston madaniyati kunlari doirasida bo‘lib o‘tdi. Tadbirlarda do‘stlik va qo‘shnichilik ruhida barqaror rivojlanib borayotgan o‘zbek-turkman munosabatlari ikki mamlakat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik munosabatlari va madaniy almashinuvning mustahkamlanib borishiga xizmat qilayotganligi ta’kidlab o‘tilgan [15.].

O‘zbekiston tomonidan kitob diplomatiyasini rivojlantirish maqsadida bir qator tashabbuslar amalga oshirilib kelinayotganligini ham alohida ta’kidlash joiz. Xususan, a) tarjimalar sohasida Alisher Navoiy, Bobur, Ibn Sino, Beruniy, Farg‘oniy kabi mutafakkirlarning asarlari ingliz, rus, fransuz, arab, ispan va boshqa tillarga tarjima qilindi. “O‘zbekiston – sivilizatsiyalar chorrahasida” loyihalari asosida nashrlar xorijiy tillarda nashr qilinib xorijga tarqatilmoqda. Bu esa, xorijliklarning mamlakat madaniyati va qadriyatlari bilan yaqindan tanishishlariga yordam beradi. b) Xalqaro kitob ko‘rgazmalari va forumlar doirasida Frankfurt, Moskva, London, Tehron kabi shaharlardagi kitob yarmarkalarida O‘zbekiston faol ishtirok etmoqda hamda 2022 va 2023-yillarda “Central Asia Nobel Fest”, Tashkent Book Fest va boshqa tadbirlarda davlat imidjini faol targ‘ib qilishga erishildi. Yirik xalqaro tadbirlarda mamlakatimiz nashriyot mahsulotlarining taqdimoti xorijlik nashriyotlar, kitob sotuvchilari va kitobxonlar bilan aloqa o‘rnatish imkonini beradi. V) Hamkorlikdagi nashr loyihalari doirasida YuNESKO, ISESKO kabi tashkilotlar bilan ilmiy, adabiy va ta’limiy kitoblarni birgalikda nashr etish, jumladan Alisher Navoiy asarlari YuNESKO bilan hamkorlikda fransuz, ingliz va arab tillariga tarjima qilinganligini keltirib o‘tish mumkin. Shuningdek, yozuvchilar va adabiyot arboblarining tashriflarini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy yozuvchilarni adabiy bayramlar, anjumanlar va ijodiy uchrashuvlarda ishtirok etish uchun mamlakatga taklif etish, bu madaniy almashinuv va aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijda kutubxonalar va madaniyat markazlarini tashkil etish ham kitob diplomatiyasining muhim yutug‘I sanaladi. O‘zbek tilidagi kitoblar bilan jihozlangan kutubxonalar ochish, til va madaniyatni ommalashtirishga qaratilgan turli tadbirlar o‘tkazilayotgan madaniyat markazlari tashkil etiladi.

O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasida kitob diplomatiyasi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan alohida rivojlana boshladi. “Ma’rifat va ma’naviyat” targ‘iboti, “Yangi O‘zbekiston” ideologiyasi doirasida: O‘zbekistonning boy adabiy, ilmiy va madaniy merosini dunyoga tanitish, Milliy klassiklar asarlarini chet tillarga tarjima qilish, Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda nashr loyihalarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratildi [19.].

O‘zbekiston Prezidentining xorijiy davlat va

hukumat rahbarlariga kitob sovg‘a qilishi an’ana tusiga kirgan. Ularga ko‘pincha kitoblar sovg‘a qiladi yoki kitoblarni sovg‘a sifatida qabul qiladi. Masalan, Turkiya Prezidentiga turkiy xalqlar madaniy merosi hisoblangan “Dada Qo‘rqut kitobi”, Tojikiston Prezidentiga Abdurahmon Jomiyning “Muhabbat maskani”, Belarus Prezidentiga Yakub Kolasning “Qadrdon qo‘shiqlar”, Fransiya Prezidentiga Viktor Gyugoning “Kulayotgan odam”, Vengriya bosh vaziriga Yanosh Aronning “Ajoyib ohuning hikoyati”, Turkmaniston yetakchisiga Maxtumqulining “Tanlangan asarlar”i kabi ushbu ro‘yxatni yana ko‘plab davom ettirish mumkin [16.].

2017-yilning sentabr oyida Qozog‘istonning o‘sha vaqtdagi prezidenti Nursulton Nazarboev davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo‘lgan. Tashrif arafasi uning “XXI asr bo‘sag‘asida” nomli kitobi Shavkat Mirziyoyev so‘zboshisi bilan o‘zbek tilida chop etilgan edi. O‘zaro uchrashuvda O‘zbekiston davlat rahbari kitobni qozog‘istonlik hamkasbiga tuhfa etgan [17.].

Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-oktabrida O‘zbekistonga davlat tashrifi bilan kelgan Qirg‘iziston prezidenti Almazbek Atambayevga qirg‘iz xalq eposi - “Manas”ning o‘zbek tilidagi tarjimasini tantanali tarzda topshirgan edi [18.].

Belarus prezidenti Aleksandr Lukashenko 2018-yil 13-sentabrida O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelganida O‘zbekiston davlat rahbarining qo‘lidan belarus shoiri Yakub Kolasning o‘zbek tiliga o‘girilgan “Qadrdon qo‘shiqlar” to‘plamini qabul qilib olgan edi. Ma’lumot uchun, Yakub Kolas Ikkinchi Jahon urushi vaqtida O‘zbekistonga evakuatsiya qilinib, ma’lum muddat Toshkentning Darxon dahasida yashagan. Lukashenkoning ushbu tashrifi arafasida Toshkentdagi Yakkachinor ko‘chasi Kolas sharafiga qayta nomlanib, ko‘chaning San’at muzeyiga tutashgan qismidagi maydonga shoirning byusti ham o‘rnatilgan edi [20.]. “U xalqlarimizning do‘stligini, O‘zbekiston zaminini, tabiatini, o‘zbek xalqi fazilatlarini kuylagan», degan Shavkat Mirziyoyev [21.].

Shavkat Mirziyoyev 2018-yil martida Dushanbega qilgan rasmiy safari chog‘ida Alisher Navoiyning ustozi va zamondoshi hisoblangan Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub hamda o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlardan tashkil topgan “Muhabbat maskani” kitobini Tojikiston prezidenti Emomali Rahmonga sovg‘a qilgan edi [22.]. Ma’lumot o‘rnida aytish mumkinki, 2022-yil 28-avgust kuni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, shoir va tarjimon Odil Ikromga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon tomonidan Abu Abdulloh Rudakiy nomidagi Davlat mukofoti topshirildi. Ushbu mukofot Odil Ikromga Jaloliddin Rumiyning olti kitobdan iborat “Ma’naviy masnaviy” asari, “Zamonaviy tojik she’riyati” antologiyasida 60dan ortiq tojik shoirlari she’rlari hamda Muhammad Iqbol, Furug‘ Farruxzod, Zahiriy Samarqandiy kabi bir qator fors-tojik adabiyoti namoyandalarining asarlarining yuksak saviyadagi tarjimasi uchun berildi [23.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi marta 2018-yil 8-9-oktyabr kunlari Fransiya Respublikasiga amalga oshirilgan rasmiy tashrifi arafasida ushbu mamlakat Prezidenti Emmanuel Makron qalamiga mansub “Revolyusiya” kitobi o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Davlatimiz rahbari Parijda bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvda Fransiya yetakchisining o‘zbekcha kitobi ilk nusxasini unga taqdim etdi. Prezident Emmanuel Makronning ushbu kitobini joriy yilda “O‘zbekiston” nashriyoti nashrdan chiqardi. Prezident Shavkat Mirziyoyev kitobga yozgan “Aql-idrok ovozi” sarlavhali so‘zboshisida, jumladan, shunday deb ta’kidlagan: “Fransiya Prezidentining siyosiy va iqtisodiy dasturi to‘la ifoda etilgan ushbu kitob mamlakatimiz akademik va ishbilarmon doiralari, olimlar va amaliyotchilar tomonidan sinchiklab o‘rganilmoqda. Shunisi e’tiborliki, o‘z kitobiga “Revolyusiya” deb nom berganiga qaramasdan, muallif “Shok terapiyasi” g‘oyasini ilgari surmaydi. Uning fikricha: “Yangi munosabatlarni o‘rnatish uchun avval yaratilgan barcha narsalarni buzib tashlashning hojati yo‘q”. Bu g‘oya bizning yurtimizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan, puxta o‘ylangan, ijtimoiy yo‘naltirilgan islohotlar falsafasi bilan uyg‘un va hamohang ekanini qayd etish lozim”. O‘zbekiston Prezidentining bu e’tirofi bejiz emas. Chunki aslida ham Prezident E.Makronning kitobida o‘z ifodasini topgan saylovoldi dasturida Fransiyani dunyo siyosatining buyuk mamlakatiga aylantirish maqsadi qo‘yilgan. Fransuz yetakchisi shu yo‘ldan qat’iy bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’rifi bilan aytganda, “u davlat rahbari sifatida o‘zining birinchi navbatdagi vazifasini Fransiyaning buyukligini hamda fransuz xalqining o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchini tiklashdan iborat, deb anglaydi” [24.]. Prezident Shavkat

Mirziyoyev Fransiya Senati raisi Jerar Larshe bilan ham uchrashib, unga Fransiya Konstitutsiyasining o‘zbek va fransuz tillarida chop etilgan nusxasini sovg‘a qilgandi. Jerar Larshe bu kitobni katta mamnuniyat bilan qabul qildi [25.]. Xususan, 2025 yil 12 mart kuni Parijdagi Yelisey saroyida Fransiya prezidenti Emmanuel Makron bilan uchrashuvda ham u o‘z an’anasiga sodiq qolib, hamkasbiga fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo tomonidan 1869 yilda yozilgan “Kulayotgan odam” romanining o‘zbek tilidagi ilk nusxasini sovg‘a qildi [26.].

Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy davlat va hukumat rahbarlari bilan uchrasharkan, ularga ko‘pincha o‘zbek tiliga o‘girilgan kitoblarni sovg‘a qiladi. 2019 yil yanvarida Germaniya qilgan safari chog‘ida Myunxenda Bavariya yeri bosh vaziri Markus Zyoder bilan uchrashgan edi. Uchrashuv yakunida Shavkat Mirziyoyev bosh vazirga Germaniya muzeylarida saqlanayotgan O‘zbekiston tarixiy yodgorliklari haqidagi kitob-albomni sovg‘a qilgandi. Bundan tashqari, prezident Germaniyaning o‘sha vaqtdagi Federal kansleri Angela Merkel bilan uchrashuvda unga nemis yozuvchisi Iogann Volfgang fon Gyotening “Faust” asarini esdalik uchun bergan edi [27.].

Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning dekabrida Yaponiyaning Nagoya universiteti ilmiy kengashi tomonidan faxriy doktor unvoni bilan taqdirlanadi. Taqdirlash marosimida Shavkat Mirziyoyev so‘zga chiqib, universitet ilmiy jamoasiga minnatdorchilik bildirgan va universitet kutubxonasiga o‘zbek tilida chop etilgan Yaponiya Konstitutsiyasi, “Yapon she’riyati guldastasi”, “Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya to‘plamlarida”, “O‘zbekiston yaponiyalik qalbida” kabi bir qancha kitob va albomlar taqdim etgan [28.]. “Yapon she’riyati guldastasi” nomli kitobiga so‘zboshi yozgan yurtboshimiz betakror yapon she’riyati haqida to‘xtalar ekan, “Bu ko‘xna merosning ajralmas qismi hisoblanadigan yapon she’riyati esa xalq ruhi va falsafasining, bugungi yapon madaniyati va sivilizatsiyasining rivojlanishiga asos bo‘lgan buyuk bir adabiy mo‘jizadir…”, deya ta’kidlaydi [4, 290.]. Ushbu tadbirning ertasiga Shavkat Mirziyoyev Yaponiya parlamentining quyi palatasi raisi Tadamori Osima bilan uchrashib, suhbat so‘ngida unga Yaponiya Konstitutsiyasining o‘zbek tilidagi birinchi nusxasini sovg‘a qilgan [29.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-fevral kuni Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimida ishtirok etdi. Ochilish marosimida butun dunyodan ikki mingga yaqin mehmon - olimlar, yozuvchilar, ta’lim va madaniyat namoyandalari, davlat va jamoat arboblari qatnashdi. Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti tomonidan taklif etilgan oliy darajadagi yagona mehmon bo‘ldi. Bunda ham o‘ziga xos chuqur ma’no bor. Davlatimiz rahbarining kitobga mehri, kitobxonlik targ‘ibotiga e’tibori bo‘lakcha. Ma’rifat, ta’lim, yoshlar tarbiyasiga oid xalqaro tashabbuslari ham barchaga ma’lum. Joriy yil O‘zbekistonda Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e’lon qilingani ham ilmga e’tiborning yana bir dalolati. Shavkat Mirziyoyev ushbu kutubxonaga dunyoda o‘ta noyob bo‘lgan “Usmon Mus’hafi”ning xattotlarimiz tomonidan ko‘chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiyning mashhur “Masnaviy” asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning “Kasalliklar tarixi” asari qo‘lyozmalarining faksimile nusxalari, “Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari” nomli kitob-albom, Yunus Emro she’rlarining o‘zbek tiliga tarjimasi jamlangan “O‘lmas ko‘ngil” deb nomlangan kitoblarni kutubxonaga tuhfa qildi. Shuningdek, Turkiya Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasiga 350 dan ziyod turli mavzudagi kitoblar taqdim etildi [8.].

2020-yil mart oyida (03.03.2020.) Samarqandda o‘tkazilgan “Imom Abu Mansur Moturidiy va Moturidiya ta’limoti: o‘tmish va bugun” mavzusidagi xalqaro konferensiyada qatnashgan dunyoga mashhur “Al-Azhar” majmuasi rahbari, Misr Bosh imomi Shayx Ahmad Tayyibga prezident Shavkat Mirziyoyev nomidan Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” asari faksimile-nusxasi topshirilgan edi [30.]. O‘z navbatida, Shayx Ahmad Tayyibga ushbu yuksak e’tibor uchun minnatdor ekanligini qayd etib, Prezidentimizga ham o‘zining cheksiz ehtiromini bildirdi. Tuhfa qilingan noyob kitob esa “Al-Azhar” majmuasida qimmatli tarixiy manba sifatida o‘rganilishi va yanada keng tadqiq etilishini ma’lum qildi.

Diplomatiyaning bunday yorqin shakllarini ko‘rib, bilib xayoldan shayx Najmiddin Kubro hazratlarining quyidagi ibratli so‘zlari o‘tdi, “Kitob sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli damlarda madadkor, odamlar orasida zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir” [16.].

Vengriya bosh vaziri Viktor Orban 2021-yilning martida rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘lgandi. O‘shanda rasmiy tadbirlar yakuniga yetgach, prezident Shavkat Mirziyoyev Vengriya hukumati rahbariga Yanosh Aran yozgan “Ajoyib ohuning hikoyati” asarining o‘zbekcha tarjimasini sovg‘a qilgan. Ushbu asar yaqinda davlatimiz rahbarining so‘zboshisi bilan Toshkentda nashr etildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘zbek va venger xalqlari o‘rtasidagi tarixiy do‘stlikning yorqin ifodasi bo‘lgan ushbu kitobni Vengriya Bosh vaziri Orbanga taqdim etdi. Ma’lumot uchun, bu asarni o‘zbek tiliga vengriyalik mashhur olim va sayohatchi Herman Vamberining do‘sti va shogirdi, salkam 30 yil Budapeshtda yashab, ilmiy faoliyat olib borgan o‘zbek olimi Isoq Ibrohim tarjima qilgan. «Ajoyib ohuning hikoyati» qadimgi venger va xunlarning kelib chiqishi Sharqqa borib taqalishini bayon qiluvchi bir asardir [18.].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 12-noyabr kuni Istanbulda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on bilan uchrashdi. Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining sakkizinchi sammiti doirasida tashkil etilgan uchrashuv Turkiya uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan Demokratiya va ozodlik orolida bo‘lib o‘tdi. Turkiya ommaviy axborot vositalari xabariga ko‘ra, uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev R.T.Erdo‘g‘onga “Daha Adil Dünya Mümkün” (“Dunyo yanada adolat bo‘lishi mumkin”) kitobining o‘zbek tilida chop etilgan nashrini sovg‘a qilgan. Turkiya Prezidenti qalamiga mansub mazkur asarda dunyo bo‘ylab kuzatilayotgan adolatsizlik, migratsiya inqirozi, xalqaro terrorizm, islomofobiya, siyosiy munofiqlik kabi illatlar xususida so‘z yuritiladi. Muallif dunyoda adolatli qaror toptirish uchun ayni paytda amalda bo‘lgan xalqaro tuzilmalar, jumladan, BMTni isloh etishni taklif etadi [31.].

Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning martida Pokiston bosh vaziri Imron Xon bilan uchrashgan. Suhbat yakunida Imron Xon O‘zbekiston prezidentidan urducha-o‘zbekcha mushtarak so‘zlar lug‘atini qabul qilib olgan. Unda o‘zbek va urdu tillaridagi 3 mingdan ziyod bir xil ma’noli so‘zlar jamlangan [32.].

Shavkat Mirziyoyev eng ko‘p Turkmaniston yetakchisi Gurbanguli Berdimuhamedovga kitob sovg‘a qilgan. Jumladan, 2017-yili Ashxobodda o‘tgan uchrashuvda Turkmaniston prezidentiga Mahtumqulining «Elingga baxsh ayla» nomli kitobi sovg‘a qilingan edi [33.]. “Ushbu kitob o‘zbek xalqining nafaqat zabardast so‘z san’atkoriga, ayni paytda uning siymosida qardosh Turkmaniston xalqiga, uning boy madaniyati va tarixiga hurmati va yorug kelajagiga bo‘lgan ishonchining yorqin namunasidir” [3, 372.]. 2019-yil 28-noyabrda Gurbanguli Berdimuhamedovning O‘zbekistonda chop etilgan asarlari - “Baxtli hayot sog‘liqdan boshlanar”, “Madaniyat – xalqning bebaho xazinasi”, “Barhayot afsona”, “Choy – shifo va ruhiy quvvat manbai” nomli asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, uning ilk nusxalari tuhfa etilgan [34.]. Va nihoyat, Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning oktabr oyida Ashxobod qilgan tashrifi chog‘ida endilikda Turkmaniston Xalq maslahati raisi lavozimida ishlayotgan Gurbanguli Berdimuhamedovga Maxtumqulining o‘zbek tilida nashr etilgan tanlangan asarlari to‘plamini taqdim etgan edi [35.].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Italiya Bosh vaziri Jorja Meloniga 2025-yil 29-may kuni italiyalik yozuvchi, siyosatshunos, faylasuf Nikollo Makiavelli qalamiga mansub «Hukmdor» (il Principe) asarining o‘zbek tilidagi nashrini topshirdi [36.]. Ma’lumot uchun, asar 1513-yilda yozilgan bo‘lib, siyosiy realizmning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining bu kabi kitoblar sovg‘a qilishida chuqur ma’no mujassam. Bu O‘zbekiston xalqi sizning ilmiy, adabiy, ma’naviy merosingizdan boxabar, ularni o‘qiydi, qadrlaydi degani. Ayni shu narsaning o‘zi diplomatik munosabatlarning eng oliy cho‘qqisidir. Dunyoning boshqa mamlakatlari rahbarlari va yirik namoyandalari ham bizning Prezidentdan ibrat olayotgani bor gap.

Darhaqiqat, kitob diplomatiyasi. Bu ibora oldin ham bo‘lgan. Biroq davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev nomi bilan bog‘langanda boshqacha jaranglaydi. Yurt egasining ulug‘ ajdodlarimizning kitob sovg‘a qilishdek odatlarini xalqaro miqyosda urfga aylantirgan davlat rahbari sifatida ham olib borayotgan faoliyati tahsinga loyiqdir [16.].

O‘z navbatida, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga ham xorjiy mamlakat rahbarlari, hukumat rahbarlari va ijodkor olimlari tomonidan kitob diplomatiyasini rivojlantirish maqsadida bir qator kitoblar tuhfa qilinganligini guvohi bo‘lamiz. Jumladan, Koreya Respublikasida O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining birinchi yili haqida koreys tilida 2017-yil noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev” nomli kitob chop etildi. 50 ming nusxada chop etilgan ushbu kitob 8 bo‘lim, 320 sahifadan iborat bo‘lib, ko‘plab suratlar bilan boyitilgan. Nashrda Shavkat Mirziyoyevning avval O‘zbekiston Respublikasi prezidenti vazifasini bajaruvchi, so‘ng prezident sifatidagi faoliyati haqida batafsil ma’lumot berilgan. Davlat rahbarining mamlakat va xorijda so‘zlagan nutqlari, jumladan, prezident lavozimiga kirishish marosimi, Konstitutsiya bayrami, Yangi yil bayrami, BMT Bosh assambleyasi sessiyasidagi nutqidan iqtiboslar keltirilgan. Kitobda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohalarda boshlangan juda muhim islohotlar tahliliga katta e’tibor qaratilgan. Iqtisodiyotning liberallashuvi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoyalash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar, valyuta bozorini liberallashtirish, aholining ijtimoiy himoyasi, viloyatlarga nisbatan yangi siyosat, so‘z erkinligi va konstitutsiyaviy huquq tamoyillarini himoya qilish, bularning barchasi Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan yangi islohotlarning dastlabki natijalaridir. Kitobda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi ko‘p yillik savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikka ham keng o‘rin ajratilgan. Kitob “Uz Kor Economy Media Group” tomonidan chop etilgan. Uning muallifi mashhur jurnalist va yozuvchi Cho Chol Xyon [37.].

2019-yil dekabrda “Prezident Mirziyoyev - O‘zbekistondagi islohotlar davrining me’mori» nomli asar XXR Tashqi ishlar vazirligining Xitoy xalqaro muammolar akademiyasi muvofiqlashtiruvi ostida “Xalqaro hayot” nashriyoti tomonidan chop etildi. Asarda Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston buguni va ertangi kuni haqidagi strategik qarashlari, uning Markaziy Osiyo mintaqasida ShHT hamda Yevroosiyo hududida xavfsizlik va taraqqiyot ta’minlanishida tutayotgan faol o‘rni o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, O‘zbekiston taraqqiyotining o‘suvchanligi, so‘nggi uch yil ichida mamlakat ichki va tashqi siyosatida ro‘y bergan e’tiborga sazovor o‘zgarishlar ham xitoylik kitobxonlarning e’tiboriga havola qilingan [38.]. Kitobga 13 taniqli xitoylik mutaxassislarning maqolalari kiritilgan bo‘lib, uning namoyishi O‘zbekisonning Xitoydagi elchixonasi va Xitoyning xalqaro tadqiqotlar instituti tomonidan tashkillashtirildi. Tadbirda CIIS direktori Si Chjenxun, Xitoyning Yevroosiyo bo‘yicha maxsus vakolatxonasi vakili Li Xuey, Xitoyning sobiq Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari Chjan Deguan va kitobdagi ba’zi maqolalar mualliflari ishtirok etdi [39.]. Kitob mualliflari orasida tadqiqot tizimlarining xalqaro reytingida yetakchi o‘rin tutadigan Xitoy Xalq Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi nufuzli tahliliy-ilmiy markazlar rahbarlari hamda ekspertlari, jumladan, Xitoy zamonaviy xalqaro munosabatlar akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligining Xitoy xalqaro muammolar akademiyasi, Xitoy ijtimoiy fanlar akademiyasi va boshqa qator ilmiy markazlarning yetakchi tahlilchilari mavjud [38.].

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 11-noyabrda Ozarbayjonga tashrif buyurganda Boku shahrida o‘ziga ajratilgan qarorgohda ozarbayjonlik adabiyotshunos va shoir Akif Bag‘irovni qabul qildi. Ozarbayjonlik adabiyotshunos va shoir Akif Bag‘irov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga “Shavkat Mirziyoyev fenomeni” kitobini taqdim etdi. Kitobdan siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning “Mening Prezidentim” va “Millatparvar” kitoblaridan saralab olinib, shoir tomonidan Ozarbayjon tiliga tarjima qilingan publitsistik esselar o‘rin olgan. Ma’lumot uchun, shoir Naxichevonda tug‘ilgan bo‘lib, umrining katta qismini O‘zbekistonda yashab, ijod qilgan. Bag‘irov Ozarbayjon xalqini o‘zbek adabiy muhiti bilan yaqindan tanitishda fidoyilik ko‘rsatib kelmoqda. Jumladan, u ko‘plab o‘zbek shoirlari, adiblarining asarlarini, jumladan Sirojiddin Sayyidning “Vaqt haykali” kitobini tarjima qilgan. Ozarbayjon tiliga tarjima qilgan. Shoir o‘zbek xalqining shonli tarixi va O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi yutuqlaridan, xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlardan ilhomlanib yozilgan “O‘zbek kelayotir” qasidasi bilan ham mashhurdir. Uchrashuv yakunida Shavkat Mirziyoyev shoirga o‘zbek adabiyotini Ozarbayjonda ommalashtirish va ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga qo‘shgan hissasi uchun minnatdorlik bildirdi [40.].

Binobarin, O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasida kitob diplomatiyasini tadqiq etar ekanmiz, ushbu diplomatiya davlat rahbarlarini hayratlantiradi, davlatlararo hamkorlikni qizg‘in olib borishga undaydi. Jumladan, Toshkent xalqaro investitsiya forumida so‘zga chiqqan Bolgariya Prezidenti Rumen Radev o‘z hayajonlarini, jumladan, mana bunday tarzda ifoda etgan edi: “Bugun tongda janob Prezident Shavkat Mirziyoyev meni yana bir bor hayratlantirdi.

Prezidentlik faoliyatimning to‘qqiz yili davomida juda ko‘p mamlakatlarda bo‘ldim. Ko‘plab davlat rahbarlari va hukumat boshliqlari bilan uchrashdim. Biroq menga ilk bor kitob sovg‘a qilishdi. Bu kitob mukammal tahlil natijasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi jamoaning Bolgariya salohiyatini qanchalik chuqur tahlil etganini ko‘rib, juda katta taassurot oldim. Unda kompaniyalar, tarmoqlar, sanoat yo‘nalishlari hamda ilg‘or texnologiyalar aniq va mukammal bayon etilgan. Bu har tomonlama puxta ishlab chiqilgan tahliliy asar. Shuni ta’kidlashni istardimki, muhtaram Prezident, biz bizneslarimizni bog‘lash, ilmiy va amaliy institutlarimizni uyg‘unlashtirish va barcha yo‘nalishlarda olg‘a siljish uchun bor kuchimiz va salohiyatimizni safarbar etamiz” [16.].

Albatta, kitob diplomatiya, nafaqat davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaydi, balki mamlakatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni, xorijda vatandoshlar bilan mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. “O‘zbekiston–2030” strategiyasidan kelib chiqqan vazifalarni amalga oshirish jarayonida “barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borish hisoblanadi [1.] va mazkur masalada ijobiy natijalarga erishildi. mintaqa xalqlarida umumfuqaroviy, yaxlit mentalitet va umumiy hududga mansublik xislatlari rivojini milliy madaniy markazlar, ziyolilarning o‘zaro uchrashuvi, adabiy va madaniy dekadalar hamda siyosiy tadbirlar orqali rivojlantirib borish [13, 32.]ga alohida ahamiyat berilmoqda. Xususan, 94-maqsadida keltirilganidek, “Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish” doirasida O‘zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san’at va hunarmandchilik yo‘nalishidagi oliygohlarda xorijdagi vatandoshlar uchun 200 ta grant ajratish, Vatandoshlar jamoat birlashmalariga yetkazib beriladigan badiiy adabiyotlar sonini 100 mingtaga oshirish ko‘zda tutilgan. 100-maqsadi – Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish doirasida “Yosh kitobxon” tanlovini qo‘shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazish, Ta’lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini 2 baravarga oshirish kabi vazifalar ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda [1.].

Ta’kidlash joizki, “ko‘p millatli va ko‘p konfesiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik muhiti - bizning bebaho boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash va barchamizning muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi zarurligi” [2.] va ushbu masala kitob diplomatiyasi asosida yechim topishi mumkinligiga amin bo‘lamiz.

Qayd etib o‘tish joizki, bitta ilmiy maqola bilan kitob diplomatiyasi haqida to‘liq O‘zbekiston madaniy diplomatiyasini ochib berib bo‘lmaydi, biz faqat so‘nggi yillardagi kitob diplomatiyasiga e’tibor qaratdik, xolos. Vaholanki, O‘zbekiston o‘zining mustaqil taraqqiyot yo‘lining 34 yiliga qadam qo‘yar ekan, 1991-yildan hozirgi paytgacha bo‘lgan kitob diplomatiyasi tarixi alohida bir tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Xulosa. Kitob diplomatiyasi bugungi globallashgan dunyoda tinchlik va madaniy muloqot qurilishida muhim rol o‘ynaydi. Har bir davlat o‘z adabiyotini jahonga tanitish orqali diplomatik faoliyatini kengaytirishi, “soft power” (“yumshoq kuch”)ini mustahkamlashi mumkin. Kitob diplomatiyasi – O‘zbekistonning xalqaro maydonda bilim va ma’rifat asosida olib borayotgan diplomatik siyosatining muhim yo‘nalishidir. Bu orqali mamlakat o‘zini intellektual kuch, madaniy markaz, tamaddunlar gultoji sifatida namoyon qilmoqda. **Kitob diplomatiyasining natijalari yana shundan iboratki, O‘zbekistonning xalqaro nufuzini oshirib, tarixiy va ilmiy merosni tanitish orqali madaniy muloqot maydoni kengaytiradi. Jahon davlatlari bilan ma’rifiy aloqalar mustahkamlab, “Yumshoq kuch” vositasi sifatida diplomatik munosabatlarda muloqot madaniyati kuchaytirishining guvohi bo‘lamiz.** Shuning bilan birga, kitob diplomatiyasining ahamiyatli jihati, birinchidan geosiyosiy muvozanatda madaniyat orqali ta’sir o‘tkazish imkoni beradi; ikkinchidan, milliy brendni yaratishga yordam beradi; uchinchidan, ta’lim, turizm va xalqaro hamkorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi; to‘rtinchidan, intellektual mulk va ilmiy almashinuvni faollashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kitob diplomatiyasi xorijda O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish, madaniy aloqalarni kengaytirish va xalqaro nufuzini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Аннотация. В данной статье рассматривается книжная дипломатия, считающаяся важным направлением культурной дипломатии нового Узбекистана. Анализируются основное место, роль и значение книжной дипломатии в становлении и налаживании культурного сотрудничества Узбекистана со странами мира. В сравнительно-историческом аспекте исследованы вопросы развития и перспективы культурного сотрудничества Узбекистана со странами мира в новом духе, соответствующем современной системе международных отношений.

Исследуется, что книжную дипломатию на новый уровень вывел Шавкат Мирзиёев, который стал уделять особое внимание укреплению культурных связей между государствами, развитию взаимопонимания и дружбы между народами. В частности, раскрываются аспекты продвижения национальной культуры Узбекистана на международной арене, укрепления культурного диалога между различными народами, создания атмосферы взаимного доверия и дружбы, пропаганды идей мира, солидарности и толерантности.

Пример Узбекистана иллюстрирует возможность книжной дипломатии влиять на геополитический баланс через культуру, а также важную роль, которую книжная дипломатия играет в построении мира и культурного диалога в современном глобализированном мире, помогая вывести культурную дипломатию на новый уровень. Автор выдвигает ряд предложений и выводов относительно развития сотрудничества в этой области.

Ключевые слова: Узбекистан, книжная дипломатия, «культурная дипломатия», «мягкая сила», «книгообмен», национальные литературные центры, международные книжные ярмарки, национальная культура.

Annotation. This article discusses book diplomacy, which is considered an important direction of the new Uzbekistan's cultural diplomacy. The main place, role and significance of book diplomacy in the formation and establishment of Uzbekistan's cultural cooperation with countries of the world are analyzed. The issues of the development and prospects of Uzbekistan's cultural cooperation with the countries of the world in a new spirit, consistent with the modern system of international relations, were studied from a comparative and historical perspective.

It is studied that book diplomacy has been brought to a new level by Shavkat Mirziyoyev, who began to pay special attention to strengthening cultural ties between states, developing mutual understanding and friendship between peoples. In particular, the aspects of promoting Uzbekistan's national culture in the international arena, strengthening cultural dialogue between different peoples, creating an atmosphere of mutual trust and friendship, and promoting the ideas of peace, solidarity, and tolerance are explained.

The example of Uzbekistan illustrates the possibility of book diplomacy to influence geopolitical balance through culture, and the important role that book diplomacy plays in building peace and cultural dialogue in today's globalized world, serving to elevate cultural diplomacy to a new level. The author puts forward a number of proposals and conclusions regarding the development of cooperation in this area.

Key words: Uzbekistan, book diplomacy, "cultural diplomacy", "soft power", "book exchange", national literary centers, international book fairs, national culture.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158 сон “Ўзбекистон – 2030” Стратегияси тўғрисидаги Фармони. – // https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2. “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori // https://lex.uz/uz/docs/-7622129 (Murojaat etilgan sana:06.08.2025.).

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – 456 б.

5. Астахов Е.М. Мировая практика культурной дипломатии (Диалог культур и партнерство цивилизаций. VIII Международные Лихачевские научные чтения. 22-23 мая 2008 г. – СПб.: Изд-во СПБГУП, 2008.) // https://mgimo.ru/files/34255/34255.pdf?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com (Murojaat etilgan sana: 05.08.2025.).

6. Гавров С.Н., Востряков Л.Е. Культурная дипломатия как инструмент конструирования и трансляции притягательного бренда Российского государства https: // kulturnaya-diplomatiya-kak-instrument-konstruirovaniya-i-translyatsii-prityagatelnogo-brenda-rossiyskogo-gosudarstva.pdf (Murojaat etilgan sana: 06.08.2025.).

7. Василенко Е.В. Культурная дипломатия как инструмент «мягкой силы» государства. // https: // kulturnaya-diplomatiya-kak-instrument-myagkoy-sily-gosudarstva.pdf (Murojaat etilgan sana: 05.08.2025.).

8. https://qalampir.uz/news/shavkat-mirziyeev-erduganning-kutubkhonasiga-noyeb-kitoblar-sovga-k-ildi-14473 (Murojaat etilgan sana:04.08.2025.).

9. https://www.google.com/search?q=%D0%8F&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOdIBCDEyMjBqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=UTF-8 (Murojaat etilgan sana:04.08.2025.).

10. https://chatgpt.com/c/689065b9-4c30-8013-96c2-7dd1e83c7a70 (Murojaat etilgan sana:04.08.2025.).

11. Каширина Т.В., Федотова К.Е. Культурная дипломатия как средство внешней культурной политики. Дипломатическая служба. 2017;2.// https://panor.ru/magazines/diplomaticheskaya-sluzhba/numbers/2057.html# ; https://panor.ru/articles/kulturnaya-diplomatiya-kak-sredstvo-vneshney-kulturnoy-politiki/55008.html# (Murojaat etilgan sana: 06.08.2025.).

12. Ковалева И. В. Культурная дипломатия как средство внешней политики государств. – С.55. http://e-lib.mslu.by/bitstream/edoc/6754/1/%D1 %8F.pdf (Murojaat etilgan sana: 05.08.2025.).

13. Назаров Н. Марказий Осиёда этноижтимоий ҳамкорлик. // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. № 4 (76) /2016.

14. Фредерик Стар. Историческая перспектива сотрудничества в Центральной Азии // Казахстан в глобальных процессах. 2008. № 3.

15. Халқ сўзи. – 2016 – 9 ноябрь.

16. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2025-yil 30-iyul, №154-son.

17. Яқин қардошлик ва ўзаро манфаатдорликка асосланган ҳамкорликнинг янги босқичи (16.09.2017.) // https://president.uz/uz/lists/view/1045

18. https://mover.uz/watch/YvdLutnm (09.03.2018.). (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

19. https://chatgpt.com/c/6890873c-e528-8013-979e-7c709a2e1773 (Murojaat etilgan sana:04.08.2025.).

20. https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/19/gift-books/ (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

21. https://kun.uz/kr/27569746?q=%2F27569746 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

22. https://president.uz/uz/lists/view/1551 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

23. http://oyina.uz/kiril/posts/9335 (28.08.2022).

24. https://evu.uz/magazine/revolyucziya-kitobini-ib.html (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

25. https://president.uz/uz/lists/view/2076 (08.10.2018.).

26. https://t.me/Press_Secretary_Uz/5479 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

27. https://president.uz/uz/lists/view/2265 (22.01.2019). (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

28. https://president.uz/uz/lists/view/3158 (18.12.2019) (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

29. https://president.uz/uz/lists/view/3159 (19.12.2019). (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

30. https://telegra.ph/Prezident-SHavkat-Mirziyoev-SHajh-A%D2%B3mad-Tajjibgasov%D2%93a-salom-j%D1%9Elladi-03-03 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

31. https://ziyouz.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-rajab-toyyib-erdogon-kitob-sovga-qildi/; https://www.aa.com.tr/tr/politika/cumhurbaskani-erdogan-ozbekistan-cumhurbaskani-mirziyoyev-ile-gorustu/2419506 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
32. https://president.uz/uz/lists/view/5025 (03.03.2022). (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
33. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-va-turkmaniston-strategik-sherik-davlatlar-06-03-2017 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
34. https://president.uz/uz/lists/view/3098 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
35. https://president.uz/uz/lists/view/7602 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
36. https://oyina.uz/kiril/posts/28159 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
37. https://sputniknews.uz/20171123/6896308.html (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
38. https://kun.uz/kr/news/2019/12/08/xitoyda-shavkat-mirziyoyev-haqida-kitob-nashr-etildi?q=%2Fnews%2F2019%2F12%2F08%2Fxitoyda-shavkat-mirziyoyev-haqida-kitob-nashr-etildi#! (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
39. https://qalampir.uz/news/khitoyda-shavkat-mirziyeev-%D2%B3ak-ida-kitob-chop-etildi-11538 (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).
40. https://oyina.uz/kiril/posts/25561; https://president.uz/oz/lists/view/7706?utm_source=in_materials (Murojaat etilgan sana: 04.08.2025.).

MAHALLALARDA XAVFSIZ MUHITNI YARATISH KONSEPSIYASINING MAZMUN-MOHIYATI

Ikanov Azamat Agzamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Alijonov Ibroxim Rustamjon o‘g‘li.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

Annotatsiya. Mazkur maqolada, Yangi O‘zbekistonda xavfsiz muhitni yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish konsepsiyasining mazmun-mohiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: xavfsiz muhit, xavfsiz davlat, kriminogen vaziyat, jinoyatchilik, CPTED.

Mamlakatimizda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida mahalla jinoyatchiligini jilovlashning **“O‘zbek modeli”** yaratilib xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘ldi jumladan:

O‘zbekistonning xavfsiz davlat sifatidagi reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilanib bormoqda, jumladan butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project-AQSh) tashkiloti tomonidan har yili o‘tkaziladigan huquq ustuvorligi indeksining “Tartib va xavfsizlik indikatori” [1] bo‘yicha O‘zbekiston, dunyoda 142 ta davlat orasida 17-o‘rinni, Osiyoda 49 ta davlat orasida 5-o‘rinni, Markaziy Osiyo va Shanxay hamkorlik tashkiloti davlatlari orasida 1-o‘rinni egallaganligi;

so‘nggi **to‘rt yilda** (2021-2024 yy.) ishsizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **ikki barobarga** kamaygan bo‘lsa, 2024-yilda yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **0,6 foizga**, yollar tomonidan **0,7 foizga**, ishsizlar tomonidan **6,2 foizga**, ilgari sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **0,3 foizga** kamayganligi[2];

MDHga a’zo davlatlar orasida O‘zbekiston har **100 ming** aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni **(359,5 ta)** bo‘yicha eng **xavfsiz davlatlardan** [3] biriga aylanganligi amalga oshirilgan islohotlar mahsulidir.

biroq O‘zbekistonning investitsiyaviy va turistik jozibadorligini yanada oshirish va mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish maqsadida jinoyat oqibatlari bilan emas, balki jinoyatlarning asl omillarini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish orqali uning barvaqt oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, sodir etiladigan qonunbuzilishlarning asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va kompleks chora-tadbirlar bilan manzilli bartaraf etish orqali jinoyatchilikning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini yanada oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 2025-yil 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son Qarori [4] imzolandi, mazkur qarorga aynan birinchi son bilan qabul qilinishi ham masalalarning qanchalik dolzarb ekanligini anglatadi.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 50 dan ortiq professor-o‘qituvchilari tomonidan biriktirilgan hududlarda jinoyatchilikning asl sabab-sharoitlari va omillari o‘rganilib, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib tegishli davlat organlariga taqdim etildi.

Ilmiy o‘rganishlar davomida aniqlangan tizimli muammolar, jinoyatchilik omillari va xorijiy tajriba asosida Universitet Ilmiy-amaliy

tadqiqotlar markazi tomonidan “Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish Konsepsiyasi” loyihasi [5] (keyingi o‘rinlarda – Konsepsiya deb yuritiladi) ishlab chiqildi.

Konsepsiya 5 ta bob, 23 ta band va ilovadan iborat bo‘lib, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini, xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha tashkiliy, huquqiy, amaliy, texnik va boshqa choralarni belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi.

Konsepsiyaning 1-bobi “Umumiy qoidalar” deb nomlanib, 3-bandida Konsepsiya qoidalari va normalari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha davlat va nodavlat tashkilotlari (organlari), fuqarolik jamiyati institutlari, jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilishi belgilangan bo‘lsa, 4-bandida tushunchalarga quyidagicha huquqiy ta’rif berilgan:

xavfsiz muhit – xavfsizlik obyektlarining hayotiy muhim manfaatlari xavf-xatar, tahdid va tajovuzlardan himoyalanganligi ta’minlangan holat.

mahalla yettiligi – mahalla raisi, profilaktika inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organing a’zolaridan iborat tarkib, davlat organlarining mahalla bo‘g‘indagi vakillari hisoblanadi.

Mahalla kodeksi – mahalla yettiligi faoliyatini va mahalladagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarining majmuasi, bunda barcha qonunchilik hujjatlari birlashtiriladi, tizimlashtiriladi va unifikatsiya qilinadi.

Konsepsiyaning “Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishni tartibga solish” nomli 2-bobi 5-bandida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan, bular:

ijtimoiy profilaktika tadbirlari samaradorligini oshirish va takomillashtirish;

mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish mexanizmlarini takomillashtirib borish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga, shuningdek “mahalla yettiligi” faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarini doimiy takomillashtirib borish va unifikatsiya qilish;

alohida toifadagi shaxslar (voyaga yetmaganlar, yoshlar, ayollar, ishsizlar, muqaddam sudlanganlar va boshqalar) bilan manzilli, ta’sirchan ishlarni tizimli tashkil qilish;

mahallalardagi jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulki qo‘riqlovi qamrovini izchil oshirib borish;

mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini, xususan CPTED (Crime Prevention Through Environmental Design – atrof-muhitni loyihalash orqali jinoyatlarning oldini olish) konsepsiyasini tatbiq qilish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

fuqarolar, jamoatchilik va davlat organlari o‘zaro hamkorligini va ishonchini yanada mustahkamlash,

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish, mahallalardagi targ‘ibot-tashviqot tadbirlar ko‘lamini, ta’sirchanligi va samaradorligini yanada oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasida faol ishtirok etib kelayotgan fuqarolar, ko‘ngilli guruhlar va jamoatchilik rag‘batlantirish va ijtimoiy imtiyozlar taqdim qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Shu bilan birga, 6-bandida mahallalarda xavfsiz muhitni ta’minlash quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi bayon etilgan, jumladan:

qonuniylik va huquq ustuvorligi – “mahalla yettiligi”ning faoliyati hamda huquqbuzarliklar profilaktikasiga mas’ul davlat organlarining faoliyati amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshirilishi hamda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashi shart;

ochiqlik va shaffoflik – mahalla faoliyatiga doir ma’lumotlar va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga doir ma’lumotlar fuqarolar va keng jamoatchilikka yetkazilib turilishi, ular bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatilishi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilishi lozim;

doimiylik va tizimlilik – ijtimoiy profilaktika tadbirlari doimiy ravishda uzviy ketma-ketlikda yakuniy maqsadga erishilmaguncha davom ettirilishi lozim, bunda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini muayyan vazifani bajarish orqali tushatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

individuallik va o‘ziga xoslik – mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishda har bir mahalla (aholi) ning o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish talab etiladi.

“xavfsiz ko‘cha” va “xavfsiz yo‘lak”larni barpo etishning ustuvorligi – mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning asosiy omillaridan bo‘lib, bosqichma-bosqich Respublikaning barcha hududlarini qamrab olish nazarda tutiladi;

Qo‘riqlash xizmati qo‘riqlov darajasini oshirib borish – mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida bosqichma-bosqich qo‘riqlov qamrovini oshirish orqali huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Konsepsiyaning 3-bobida mahallalarda muhitni yaratish mexanizmlari yoritilgan, jumladan 9-bandda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish quyidagilar orqali amalga oshirilishi belgilangan:

mahalla yettiligi faoliyatiga va huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

manzilli va ta’sirchan ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish;

mahalladagi jismoniy va yuridik shaxslar mol-mulki qo‘riqlovi qamrovini oshirib borish;

innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish;

atrof-muhitni loyihalashtirish orqali jinoyatchilikni oldini olish konsepsiyasi (CPTED) orqali mahallalarda “xavfsiz ko‘cha” va “xavfsiz yo‘lak”larni barpo etish;

aholining huquqiy ongini oshirish, sportga va sog‘lom turmush tarziga targ‘ib qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish;

mahalla aholisi va keng jamoatchilikni mahallada xavfsiz muhitni yaratishga keng jalb qilish;

mahalladagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning asl omillarini tizimli ravishda ilmiy o‘rganib borish.

Shuningdek, 3-bobda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlari amalga oshirishdan kutilayotgan natija va bu boradagi ilg‘or xorijiy tajribalarni tatbiq qilish masalalari yoritilgan.

Konsepsiyaning 4-bobida, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bilan bog‘liq tashkiliy choralar belgilangan, jumladan:

mahallalarda xavfsiz muhitni baholash Konsepsiyaning ilovasida keltirilgan “mahallalarda kriminogen vaziyatni baholash indikatorlari” asosida amalga oshiriladi;

Konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq moliyaviy xarajatlar vazirlik va idoralarga ajratilgan davlat byudjeti mablag‘lari va budjetdan tashqari mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi;

Konsepsiyani amalga oshirish va monitoring qilib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida doimiy faoliyat yurituvchi idoralararo ishchi guruhi tuziladi;

Konsepsiya asosida normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish, ularni unifikatsiya qilish, “Mahalla kodeksi” loyihasini ishlab chiqish va amaldagi normativ-hujjatlarni Konsepsiyaga muvofiqlashtirish maqsadida Adliya vazirligi huzurida idoralararo ishchi guruhi tuziladi.

Konsepsiyaning 5-bobi (yakunlovchi qoidalar)da mahallalarda kriminogen vaziyatni baholash indikatorlari asosida “xavfsiz mahalla” deb topilgan mahalla yettilishi a’zolarini qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari ko‘rib borilishi belgilangan, bu esa mahalla yettiligining manfaatdorligini va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Konsepsiyaning 1-ilovasida mahallalarda kriminogen vaziyatni baholash 50 ta indikatorlari hamda ularni hisoblash metodikasi keltirilgan bo‘lib, mazkur indikatorlar kelgusida mahallalardagi kriminogen vaziyatni baholash va monitoring qilish orqali, jinoyatlarni barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, Konsepsiyaning amaliyotga joriy etilishi, Yangi O‘zbekistonda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish orqali, aholimizning tinch-osuda hayotini ta’minlash barobarida, O‘zbekistonning invistitsiyaviy va turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье описываются реформы, реализуемые для создания безопасной среды в Новом Узбекистане, а также суть концепции создания безопасной среды в жилых кварталах.

Ключевые слова: безопасная среда, безопасное государство, криминогенная обстановка, преступность, CPTED.

Abstract. This article describes the reforms being implemented to create a safe environment in New Uzbekistan and the essence of the concept of creating a safe environment in neighborhoods.

Key words: safe environment, safe state, criminogenic situation, crime, CPTED.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Order%20;
2. https://stat.uz/uz/ (O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi);
3. https://stat.uz/uz/ (O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi);
4. https://lex.uz/docs/7330260 (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son);
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni loyihasi, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025-y.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat maqola mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 16,75. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 15.08.2025 y. Buyurtma № 560.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024